

“O' QITUVCHI NUTQI MADANIYATI”

fanidan

TAYANCH KONSPEKT

Toshkent-2015

**1- mavzu: "O`qituvchi nutqi madaniyati" fanining
mundarijasi, maqsadi va vazifalari**

REJA:

- 1.Fanning maqsadi va vazifalari**
- 2.Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi**

3.Fanning ahamiyati

Dunyoda turli-tuman kasblar, biri-biridan turfa hunarlar bor. Ularning har birida o'ziga xos ish qurollaridan foydalaniladi. Masalan, dehqonning asosiy quroli ketmon, duradgorniki - tesha (arra, randa va sh.k.), jarrohniki - tig', tikuvchiniki — igna va h.k.o. Dehqon ketmoni bilan taqir erda betakror bog' barpo qiladi, go'zallik yaratadi yoki tajriba-mahorati etarli bo'lmasa, erning umriga zomin bo'ladi. Ketmon o'tkir bo'lmasa, dehqonning o'zi ketmon urish hadisini olmagan bo'lsa, oltin tuproqning ham, xomtama dehqonning ham holiga maymunlar yig'lashi aniq. Faoliyatining asosiy quroli til bo'lgan kasblar ham borki, ularning boshida o'qituvchilik turadi. Qaysi fan mutaxassisi bo'lishidan qat'i nazar, o'qituvchi tildan mohirona foydalanish hadisini olmagan, demakki, chinakam madaniy nutq malakasini egallamagan bo'lsa, darsdagi nutqi o'tmas, nochor va rangsiz bo'lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo'lmasin, qirq besh daqiqalik fursat uning o'zi uchun ham, o'quvchi sho'rlik uchun ham benihoya og'ir azob. Ona tilida puxta, lo'nda va shirador nutq to'za olish malakasi va mahorati matematika o'qituvchisi uchun ham, ona tili o'qituvchi-si uchun ham birday zaruriy fazilatdir. O'qituvchi go'zal, o'zni ham, so'zni ham qiynamaydigan, ravon va ohorli ifo-dalarga boy nutqi bilan o'quvchilarni maxdiyo etib, materialni bayon qilmog'i lozim. Boshqacha qilib aytganda, o'qituvchining raso madaniy nutqi o'quvchida havas va hayrat uyg'otishi, unga namuna bo'lishi, ayni paytda bu nutq mavzuning o'quvchi tomonidan oson o'zlashtirilishi uchun eng qulay vosita vazifasini bajarishi kerak.

Nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi, hech bir istisnosiz, barcha o'quv fanlari bilvosita yoki bevosita shug'ullanishi zarur. Matematika bo'ladimi, fizika yoki tarix bo'ladimi, o'qituvchi o'z nutqiy mahorati bilan ibrat ko'rsatishi, hatto tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo'l bilan o'quvchidagi so'z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq.

Ta'lim amaliyotida ko'rgazmalilik azaldan eng muhim omil sifatida qo'llanib kelinadi, shuning uchun o'qituvchi juda ko'p vaqtini turli ko'rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Ammo unutmaslik kerakki, nutqiy madaniyatni o'rgatish, chiroyli so'z zavqini o'stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko'rgazmali qurol o'qituvchining o'zidir. Nutq madaniyati haqida gap ketar ekan, avvalo, til va nutq tushunchalarining mohiyatini farklab olish lozim.

Til va nutq bir-biri bilan chambarchas bog'liq, ammo ayni paytda bir-birida farkdanishi kerak bo'lgan hodisalardir. Tilsiz nutqning, nutqsiz tilning mavjud bo'lishi mumkin emas. O'zbek adabiy tilining asoschisi ulug' Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida so'zning sharaflari haqida so'zlash asnosida til va nutq munosabati xususida quyidagi nazariy fikrni bayon qiladi: "Til muncha sharaf bila nutqning olami (quroli) dur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidir."¹ Demakki, til nutq uchun qurol, bu quroldan foydalanib nutq to'ziladi, nopisandliq e'tiborsizlik qilinsa, nutq maqbul bo'lmaydi va bu tilning ofati bo'ladi. Til va nutqning bir-biri bilan bog'liqligi, biri ikinchisiga hamisha ta'sir etishini til qonuniyatlarini teran bilgan bobomiz Navoiy aniq sezgan.

Evropa tilshunosligida til va nutqni farqlash zaruriyatini asoslash, til va nutq tushunchalarining mohiyatini belgilash, bu ikki hodisaga xos xususiyatlarni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish, avvalo, mashhur shveytsar tilshunosi Ferdinand de Sossyur nomi bilan bog'likdir. Uningcha, "til tushunchasi nutqiy faoliyat tushunchasi bilan teng emas; til- nutqiy faoliyatning muayyan bir, albatta, eng muhim qismi", til so'zlovchining faoliyati emas, u tayyor mahsulot, ijtimoiy hodisa, nutq esa individual faoliyat, so'zlovchining o'z fikrini ifodalash maqsadida til belgilaridan foydalangan holda reallashtirgan kombinatsiyasi mahsulidir. Til shu qadar mutlaqo o'ziga xos narsaki, so'zlash qobiliyatini yo'qotgan odam ham tilni saqlaydi, ya'ni u eshitadigan til belgilarini bemalol tushunaveradi. Uning ongida til yaxlitligicha turaveradi, shu tilda o'ylayveradi, faqat nutqni reallashtirish uchun nutq organlarining tegishli harakati yo'qolgan bo'ladi, xolos. F.Sossyurning quyidagi fikrlari ham alohida diqqatga sazovor: "...Nutqiy faoliyatni o'rganish ikki qismga bo'linadi; ulardan birining, asosiysining o'rganish predmeti tildir, ya'ni mohiyatan ij-timoiy va individga bog'liq bo'lmagan narsadir; bu sof psixik fan; boshqasining, ikkinchi darajalisining o'rganish predmeti nutqiy faoliyatning individual tomonlari, ya'ni nutq (fonatsiya — tovush chiqarish bilan birga); bu fan psixofizikdir.

Shubhasizki, bu ikki predmet (ob'ekt) bir-biri bilan chambarchas bog'liq va biri ikkinchisini taqozo etadi: til nutq tushunarli va shu asosda foydali bo'lishi uchun zarur; nutq o'z navbatida tilning shakllanishi uchun zarur; tarixan nutq fakti hamisha tildan oldindir. Agar tushuncha-ning so'zli (fonetik) obraz bilan assotsiatsiyasi oldindan nutq aktida voqe bo'lmagan bo'lsa, bunday assotsiatsiya qanday qilib mumkin bo'la oladi? Boshqa tomondan qaraganda, faqat boshqalarni eshitib, biz o'z ona tilimizni o'rganamiz; sanoqsiz tajribalar natijasidagina til bizning ongimizda saqlanib qoladi. Nihoyat, tilning taraqqiyoti aynan nutq hodisalari bilan bog'liq: bizning til ko'nikmalarimiz boshqalarni eshitganda olingan taassurotlarga bog'liq holatda o'zgaradi. Shunday qilib, til va nutq o'rtasida bir-biriga bog'liqlik o'rtaq chiqadi: til bir paytning o'zida nutqning ham quroli, ham mahsulidir. Ammo bularning barchasi til va nutqning mutlaqo farqli narsalar bo'lishiga monelik qilmaydi." Ko'rinadiki, til tuganmas imkoniyat, nutq esa ayni shu imkoniyatning real voqelanishidir. "F. de Sossyur til — nutq dixotomiyasini shaxmat o'yini qoidolari misolida tushuntirib berishga harakat qilgan edi. Haqiqatan ham, shaxmat taxtasidagi 64 katak teng holatda ikki xil rangda ikki guruhga o'ttiz ikkitadan ajratilib, qarama-qarshi qo'yiladi, har ikki guruhdagi donalar vazifa va qiymat jihatidan bir-biriga teng, donalarning o'ziga xos joyla-shish tartibi va yurish qoidolari bir xil. Shaxmat o'yini qoidolari o'yinchilar uchun majburiy, avvaldan ma'lum bo'lib, ular doimo o'yinchilar xotirasida saklanadi. Har ikki o'yin-chi bir xil imkoniyatga ega bo'lib, shaxmat o'yini qoidalariga bir xil bo'ysunsa ham, o'yinchilarning o'zlari imkoniyatlardan foydalanish mahoratiga ko'ra biri kuchli, biri kuchsiz mavqeda bo'ladi. Qaysi shaxmatchi imkoniyatlarni o'z maqsadi yo'liga izchillik bilan bo'ysundira olsa, u shu imkoni-yatlardan foydalana olmagan raqibini engadi." Usta shaxmatchi mavjud imkoniyatlarni qanchalik mahorat bilan ishga solsa, ziyrak nutq to'zuvchi ham tildagi behisob ifoda imkoniyatlaridan o'z maqsadiga eng maqbullarini

tanlaydi. Qiyosning mohiyati shuki, shaxmat donalari va bu donalar-ning harakati qoidalari til, bu donalar va mavjud qoidalardan foydalanib to'zilgan konkret shaxmat kombinatsiyasi nutqdir.

Tilshunoslikda ko'pincha "til madaniyati" va "nutq madaniyati" tushunchalari farqlanadi, ammo ba'zan har ikkisi o'rnida birgina yo "til madaniyati", yo "nutq madaniyati" termini qo'llanadi, Hamonki, til va nutq hodisalarini farqlash zarur ekan, ular chindan ham alohida-alohida hodisalar ekan, albatta, til madaniyati va nutq madaniyatini ham farqlash maqsadga muvofiq. Til va nutq tushunchalarining mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsa q til madaniyati tilning "madaniylashganlik", adabiy lashganlik normalashganlik darajasini, lug'at tarkibi, grammatik semantik stilistik jihatlardan rivojlanganlik boylik darajasini, potentsial ifoda imkoniyatlarining ko'lamdorligini ifoda etadi. Nutq madaniyati esa tildan bemalol, maqsadga o'ta muvofiq va ta'sirchan bir tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir. Boshqacha aytganda, nutq madaniyati tilda potentsial mavjud bo'lgan xilma-xil ifoda shakllaridan fikr uchun eng uyg'unlarini tanlay bilish va shu asosda raso nutq to'za olish mahoratidir. Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi eng qadimgi davrlardan beri ma'lum, u kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqa ehtiyojiga ko'ra yo'zaga kelgan. Tabiiyki, tilning eng birinchi, balki bosh vazifasi uning kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lishidir. Shuni ham alohida aytmoq joizki, tabiat va jamiyatda inson tiliday murakkab, serqirra, serqatlam, servazifa, shakl va mazmun tanosibi tarang hodisa kamdan-kam topiladi. Tilni madaniyat ko'zgusi deb hisoblagan atokdi olmon olimi Vilgelm fon Gumboldtning ushbu gaplari til hodisa-sining mohiyatini yanada teranroq anglashga imkon beradi: "Tillarning xilma-xilligi aslo muayyan bir narsani turlicha tovushlar bilan ifodalash emas, balki bu narsani ko'rishning farkliligi natijasidir." Haqiqatan ham, har bir millatning o'ziga xos ko'rish tarzi bor, o'ziga xos idrok intizomi bor, umuman, o'ziga xos tafakkur tamoyili bor. Ana shunga ko'ra "milliy ong", "milliy tafakkur", "milliy tuyg'u" degan tushunchalar millat boqiyiligining betakror ustunlari sifatida yashab keladi. Amerika etnolingvistikasining asoschilaridan biri Benjamin Li Uorfning "Agar Nyuton inglizcha gapirmaganida, inglizcha o'ylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qadar boshqacharoq bo'lardi" degan so'zlarida ulkan haqiqat mavjud. Milliy sezgi va milliy ruhning shakllanishida ona tili hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ingliz jurnalisti Govard Brabinning "Ona tili va miya. Yapon olimining g'aroyib kashfiyoti" nomli maqolasida bayon qilinishicha, Tokio universitetining tibbiyot professori Tadanobu Tsunoda 1981 yilda YuNESKOning Afinada o'tgan simpoziumida o'zining 15 yillik tajriba-tadqiqotlari haqida axborot bergan. Professor Tsunoda o'z eksperimentiga yaponiyalik va g'arblik (frantso'z, ingliz, nemis va h.k.) kishilarni jalb qiladi. Olim ularga inson ovozi, hayvonlar, hasharotlar tovushi, turli fizik tovushlar, yapon va g'arb musiqa asboblari tovushlarini eshittiradi va tegishli apparatlardan foydalangan holda ularning miyalaridagi markazlarning reaksiyasini qayd etib boradi. Ma'lum bo'ladiki, yapon va g'arblik kishilarning bosh miya yarim sharlaridagi markazlar vazifalarining taqsimlanishida farq mavjud ekan. Yapon kishisi miyasidagi muayyan bir markaz bilan qabul qiladigan tovushni g'arb kishisi boshqa bir

markaz orqali qabul qilar ekan. Tadqiqotchi bu farq etnogenetika bilan bog'liq yoki bog'liq emasligini aniklash maqsadida 20 ta yapon emigrantining bolalari ishtirokida eksperimentini yana davom ettiradi. Natija shuni ko'rsatadiki, bu farq genetik emas, balki ona tili muhiti bilan aloqador ekan. Ana shularga asoslanib, professor Tsunoda quyidagicha xulosa chiqaradi: "Men insonning o'z atrofidagi tovushlarni qabul qilishi, sezishi, o'zlashtirishi va tushunishini ona tili differentsiatsiya qiladi deb hisoblayman. Ona tili miyadagi emotsional mexanizmning rivojlanishi bilan o'zviy bog'liq. Bolalikdan egallangan ona tili har bir etnik guruhning o'ziga xos, betakror madaniyati va ruhiy olamining shakllanishi bilan chambarchas bog'likdir deb o'ylayman."

Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim-tajribalarni to'plash, saqlash va keyingi avlodlarga etkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi. Tilni faqat va faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish insonning tabiiy tilini, bu be-nihoya murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, jo'nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mosuvo bo'lgan sun'iy tilga (masalan, esperanto kabi) tenglashtirishdan, yo'l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli "til"ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas.

1887 yilda polshalik shifokor Lyudvig Zamengof tomonidan yaratilgan esperanto tili boshqa sun'iy tillar orasida eng keng tarqalganidir. Bunday sun'iy tillar muayyan amaliy va eksperimental maqsadlar uchun biror darajada ahamiyatli bo'lsa-da, u yoki bu xalqning madaniyati va tarixi zaminida bunyod bo'lmaganligi uchun har bir xalqning butun ruhiy dunyosi, madaniyati va tarixi bilan bevosita bog'langan tabiiy tillarning o'rnini aslo bosa olmaydi. Sun'iy tillarda bir tushuncha faqat bir so'z bilan ifodalanadi, grammatik qoidalar qat'iy, ifodalar bir ma'noli, variantdorlik yo'q, bir ma'noli modellar hukmron, demakki, ifoda tanlash imkoniyati mavjud emas. Shuning uchun ham sun'iy tillarda til (nutq) madaniyati muammosiga hech bir ehtiyoj yo'q. Tabiiy tillarda (ayniqsa, rivojlangan tillarda) esa ana shunday ifoda tanlash imkoniyatlarining cheksiz-chegarasizligi tilning o'ziga xos tamalidagi haqiqatdir. Agar tabiiy til ham sun'iy tillar kabi faqat aloqa vositasigina bo'lganda edi, u juda jo'i, sodda va shunchaki bir narsaga aylangan bo'lardi. Holbuki, odamlar til vositasida tuyg'u va kechinmalari, quvonch va qayg'ulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi ho'zurlari kabi xilma-xil sezgilarini ham ifodalaydilarki, bular hamisha ham sof kom-munikativ maqsadlarni ko'zda tutmaydi. Demakki, til bemisl boy, sehra sinoatga, ruhu ruhoniyyatga, ko'rku komillikka limmo-lim bir xilqatdir. Albatta, tilning sanab o'tilgan vazifalari uning bosh vazifasi (aloqa vositasi bo'lishi) bilan bir qatorda, uning asosida voqe bo'ladi. Atoqli tilshunos A. Rustamiy tilning vazifalari haqida gapirar ekan, shunday xususlarga alohida urg'u beradi: Til tufayli jamiyat a'zolarining har birida hosil bo'lgan tajriba-bilimlar ommalashadi va ular ko'pchilik tomonidan rivojlantiriladi. Til tufayli bilim avloddan avlodga og'zaki yoki yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o'tgan avlodning izlanishlarini yangidan boshlab o'tirmaydi, uni davom ettiradi. Til tufayli biz sezgi o'zvlari bi-lan bilib bo'lmaydigan narsalarni ham o'rganamiz...1

Tilning muhim vazifalaridan yana biri uning go'zallikni ifodalashi, ya'ni estetik vazifasidir. Tildagi badiiy imkoniyatlarning cheksizligi, bu imkoniyatlar ham moddiy va ham ma'naviy olamlarni qamrab olishini ta'kidlab, A. Rustamiy shunday yozadi: "...Tilning o'zidan ham go'zallik moddasi sifatida, xususan, qalamu so'z ahli va umuman xalq foydalanadi. Chunki til etuk hodisalardan bo'lib, unda go'zallik uchun zarur bo'lgan hamma sifatlar mavjuddir. Birinchidan, til tabiat va insondagi mavjud go'zallikni aks ettirish vositasi bo'lsa, ikkinchidan, tilning o'zi go'zallikni vujudga keltiradi. Shoir va yozuvchilar hamda oddiy xalq orasidagi minglab chechanlar tilning mazkur har ikki jihatining biridan yoki har ikkisidan birdek foydalanadilar va shu bilan o'quvchi yoki tinglovchiga rohat bag'ishlaydilar... Biz tilga go'zallik javhari sifatida nazar soladigan bo'lsa, uning kishini hayratga soladigan darajada etukligi bor. Qaysi bir tilni olmag, undagi tovushlar yo'zga etaaydi. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilida o'ttiz bitta tovush bor... Mana shu qadar ozgina tovushdan o'zbek tili tarixida milliondan ortiq so'z yasalgan va bu so'z yasalishi kerak bo'lgan takdirda cheksiz davom etishi mumkin. Bu cheksiz imkoniyat dunyodagi hamma tillarga xos. Tiliing mana shu etukligi uning o'zining go'zalligini va undai foydalanuvchining, ya'ni so'zlovchining yoki yozuvchining mahoratini ta'minlaydi".

Ming yillik madaniyatimiz tarixida xalqimiz badiiy dahosining mahsuli bo'lmish nafis so'z san'ati durdonalari behisob. Ularning allaqanchasi turkiy tafakkur teranligi va taxayyul bepoyonligining muhtasham obidalari o'laroq jahon badiiyati ganjinasining to'rida qo'r to'kib turibdi. Tilimiz inja ifoda imkoniyatlariga benihoya boy va shunga ko'ra beqiyos darajada betakrordir. Mumtoz va bugungi adabiy asarlarni o'qirkanmiz, xalq og'zaki ijodi namu-nalari bilan tanisharkanmiz yoki turli so'z o'yinlarini, o'tkir va nozik askiyalarni tinglarkanmiz, oddiy odam nutqida topib aytilgan so'z yoki iboraning guvohi bo'larkanmiz, tilimizning turfa tovlanishlaridan, nafosatidan astoydil lazzatlanamiz, behad zavqlanamiz. Bu o'rinda yana shuni ham aytish joizki, u yoki bu tilni go'zal yoki "xunuk" (go'zal emas) deyish mantiqan to'g'ri bo'lmaydi. Alohida olingan til chiroyli ham, xunuk ham bo'lolmasligi tabiiy. Bu munosabat bilan taniqli rus tilshunosi R.A.Budagovniig quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: "Aslida tillar, avvalo, ko'p rivojlangan va kam rivojlangan, juda boy va biroz boy, qadim yozuv an'anasiga suyangan va bunday an'anaga mutlaqo ega emas bo'lishi mumkin. Bularning barchasi u yoki bu tilning potentsial estetik imkoniyatlarida turlicha aks etadi. Ikkinchidan, tillar, ayniqsa, adabiy tillar o'zicha chiroyli ham, xunuk ham bo'lmasada, aloqa (kommunikatsiya) jarayonida, xususan, agar bu tillardan faqat nimani gapirayotganiga emas, balki qanday gapirayotganiga ham befarq bo'lmagan odamlar foydalanayotgan bo'lsa, qo'shimcha estetik vazifani olish qobiliyatiga ega."1 Tabiiyki, o'zbek adabiy tili ana shunday asrlar osha rivoju sayqal topgan, behad qadim yozuv an'anasiga sohib, ming yillik yozma yodgorliklarida yashab kelayotgan juda boy tildir. Shuning uchun ham tilimiz go'zal nutq to'zish uchun potentsial imkoniyatlari tuganmas tengsiz xazinadir.

Tilning estetik vazifasi, albatta, nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligi, go'zalligini ta'minlashda favqulodda muhim ahamiyatga molikdir. Ammo, aytib o'tilganiday, bu vazifa kommunikativ vazifa bilan birga voqe bo'ladi.

Til estetikasini o'rganishga bo'lgan qiziqish o'tgan asrning boshlarida bir qator chet el filologlari, faylasuflari, yozuvchilarida paydo bo'lgan. Til estetikasi muammosini birinchilardan bo'lib o'rgangan olim sifatida ko'pincha italyan faylasufi va siyosiy arbobi Benedetto Croce (1886-1952) tilga olinadi va uning 1902 yilda e'lon qilingan "Esteti-ka ifodalash haqidagi fan sifatida va umumiy tilshunoslik sifatida" nomli kitobidagi² asosiy fikrga e'tibor qaratiladi. U nazariy jihatdan tilshunoslikni estetika bilan aynan tenglashtiradi, ya'ni go'yoki tilning asosiy vazifasi kishilarning muloqotini ta'minlash emas, balki estetik omil asosidagi o'zlikni ifodalashdan iborat.

B.Krochening g'oyalarini nemis filologi Karl Fossler (1872-1949) davom ettiradi. Uningcha, til — alohida individuumlarning ijodi, shuning uchun odam har bir so'z va har bir gapga betakror mazmun yuklaydi. Dantening "Ilohiy komediyasi"dagi qahramon muhabbat (atoge) so'zini bir necha marta ketma-ket takrorlarkan, uningcha, bu so'zni kitobxon har safar yangi ma'noli yangi so'z sifatida qabul qiladi. Fosslerning qanoaticha, "so'z va gapning estetik bo'yog'i betakrordir va ana shu estetik bo'yoq tilda etakchi vazifani bajaradi". Albatta, ana shu estetik bo'yoq, demakki, tilning estetik vazifasi reallashar ekan, nutq yoki matn to'zishdan ko'zlangan maqsadga osonlik bilan erishish imkoniyati ortadi. Zotan, o'quvchi yoki tinglovchi yozuvchi yoki so'zlovchining gapiga ishonishi, bu gap esa ishontirishi, ta'sir kuchiga ega bo'lishi lozim.

Dunyo filologiya ilmida tilning estetik vazifasiga qanday maqom, mavqe berilishidan, uning birlamchimi, ikkilamchimi ekanligidan qat'i nazar, bu vazifa bor va u tilning eng zaruriy jihatlaridan bir sifatida yashaydi. Ta-biiyki, buni inkor etib bo'lmaydi.

Ko'pincha tilning estetik vazifasi faqat badiiy adabiyot tiligagina nisbat bergan holda talqin etiladi. Estetika faqat badiiy asar tiligagina xos, undan tashqarida til estetikasi haqida gapirish mumkin emas deb qarash unchalik to'g'ri emas. Ayni masalalarni chuqur tadqiq etgan R.A.Budagovning fikricha, "estetiklik" tushunchasi "chiroylilik", "go'zallik", "nafosat" tushuichalariga qaraganda juda ancha keng va rang-barang, shunday ekan, tilga va nutqqa nisbatan "estetiklik"ni so'zlovchi yoki yozuvchining faqat nimani gapirayotgani va nima haqida yozayotganigagina emas, balki qanday gapirayotgani va qanday yozayotganiga ham ongli munosabat sifatida tushunmoq maqsadga muvofikdir. Taniqli tilshunos yana shuni ham ta'kidlaydiki, bu munosabatning darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Rivojlangan adabiy til o'zida go'yoki birinchi darajali potentsial estetik vazifalarni mujassam etsa, badiiy adabiyot tili ikkinchi, oliy darajadagi estetik vazifalarni namoyon etadi. Shuning uchun adabiy tilda estetika yo'q degan nuqtai nazar mutlaqo asossizdir. Ta'kidlash mumkinki, "estetik vazifasidan ayrilgan adabiy til o'zining ulkan ifoda imkoniyatlaridan teng yarmiga ayriladi. U qashshoq, tussiz va g'arib bo'lib qoladi".¹ Boshqacha qilib aytganda, nutqning tom ma'nodagi sifati, ta'sir etish, "yuqish yoki yuqtirish" salohiyati xuddi shu estetik vazifa bilan chambarchas bog'likdir. Shuning uchun ham qaysi uslubdagi nutq bo'lishidan qat'i

nazar, albatta, unda tilning estetik vazifasi ishtirok etadi. XX asrning ulkan nazariyatchi fizigi, Nobel mukofoti sohibi Lui de Broyl haqli ravishda ta'kidlaganidek "matematik formularlar uslubi" bilan egallangan bilimlarni mustahkamlash mumkin, lekin adabiy tilning barcha vositalari yordamisiz bu bilimlarni rivojlantirib bo'lmaydi. Bu qanchalik g'ayritabiiy ko'rinmasin, "odatdagi adabiy til qat'iy formulalar tiliga nisbatan o'zining bir qarashdagi noaniqligi bilan aniqroqdir". Badiiy adabiyot uslubini ham, ilmiy yoki boshqa uslublarni ham til estetikasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Fikrni qanday ifodalashga e'tibor bor joyda, albatta, til estetikasi o'rta qadarga chiqadi, lekin, aytayliq badiiy adabiyotda u bor bo'yi bilan namoyon bo'lsa, boshqa bir uslubda ikkinchi planda bo'lishi mumkin.

Aytish lozimki, nutq madaniyatini kommunikativ vazifa bilan bir qatorda estetik vazifasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ko'rinadiki, madaniy nutq to'zish maqsadi o'rta qadarga qo'yilar ekan, hamisha til va nutq estetikasi e'tiborda bo'lishi shart. Til (nutq) estetikasini nutq madaniyatidan aslo ajratib bo'lmaydi.

Nutqning madaniyligini, demakki, ta'sir quvvatini ta'min etadigan to'g'riqlik aniqdigi mantiqiylik ifodalilik boyliq sofliq jo'yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud (ular haqida keyinroq batafsil to'xtalinadi). Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Tilshunoslikda "nutq madaniyati" termini, asosan, ikki xil ma'noda qo'llanadi, ya'ni: 1) tildan bemalol, maqsadga va nutqiy va-ziyatga muvofiq tarzda foydalana olish, nutqda kommunikativ sifatlarning barchasini mujassamlashtira bilishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami; 2) tilshunoslikning tildan maqsadga va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda foydalanish, nutqda kommunikativ sifatlarni mujassamlashtirish qoidalarini ilmiy asosda o'rganish va belgilash bilan shug'ullanuvchi bo'limi.

Nutqning kommunikativ sifatlari nafaqat aloqani ta'minlash, balki tinglovchi yoki o'quvchiga nutqiy ta'sirni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kommunikativ va estetik ta'sir maqsadida to'zilgan nutq(matn)ni "Nutq madaniyati" kursining predmeti deyish mumkin.

Nutqning to'g'riligi, ya'ni uning adabiy til me'yorlari (talaffo'z, so'z yasalishi, leksiya morfologiya sintaktik uslubiy me'yorlar)ga qat'iy mosligi madaniy nutqning asosiy, markaziy sifatidir. Ammo har qanday to'g'ri nutq madaniy bo'lavermaydi, u mazkur boshqa kommunikativ sifat-larga ham ega bo'lgandagina chin ma'nodagi madaniy nutq maqomini olishi mumkin. Bu o'rinda yirik rus tilshunosi S.I.Ojegovning quyidagi fikri diqqatga sazovor: "Yuksak nutq madaniyati — bu o'z fikrlarini til vositalari orqali tug'ri, aniq va ta'sirchan qilib ifodalay olishdir. To'g'ri nutq deb hozirgi adabiy til me'yorlariga rioya qilib to'zilgan nutqqa aytiladi. Til me'yorlari — bu ijtimoiy-nutqiy amaliyot (badiiy adabiyot, o'qimishli kishilar nutqi, sahna nutqi, radio va sh.k.)da umum tomonidan qabul qilingan talaffo'z, grammatika va so'z qo'llash qoidalaridir. Ammo yuksak nutq madaniyati faqatgina til me'yorlariga amal qilish-dangina iborat emas. U ayni paytda o'z fikrini ifodalashning nafaqat aniq vositasini, balki eng ommabop (ya'ni eng ta'sirchan) va jo'yali (ya'ni ayni vaziyat uchun eng muvofiq va, demakki, uslub nuqtai nazaridan o'rniga tushgan) vositalarini ham topa olish mahoratini ham o'z

ichiga oladi." Nutqning to'g'riligi uning markaziy sifati bo'lsa-da, nutqiy madaniyatni mazkur sifatning bir o'zi bilan ta'minlash aslo mumkin emas. Shubhasizki, har qanday to'g'ri nutq ham aniq yoki jo'yali, sof yoki boy bo'lmaydi, umuman, etarli ta'sirchanlik quvvatiga sohib bo'la olmaydi. Shuning uchun ham nutq madaniyati muammolarini tadqiq etish bilan shug'ullangan bir qator tilshunoslar nutq madaniyatining ikki bosqichini farqlash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar. Masalan, L.I.Skvortsov umumiy "nutq madaniyati" tushunchasini adabiy tilni egallash va undan foydalanishning ikki bosqichini ifodalovchi "nutqning to'g'riligi" va "nutq madaniyati" tarzida ikki qismga ajratish lozimligini ta'kidlarkan, ularga shunday izoh beradi: "Birinchi, quyi bosqich nutqning to'g'riligidir. To'g'rilik haqida biz adabiy nutq va uning me'yorlarini egallash jarayonida gapiramiz. Variantlarni nutqning to'g'riligi sathidagi baholash: to'g'ri — noto'g'ri, ruscha ifoda — ruscha ifoda emas va sh.k... Nutqning to'g'riligi mohiyatan maktab ta'liminiyu predmetidir. O'rta maktab dasturi umumiy tarzda to'g'ri nutq (ko'proq grammatika sohasida) malakasini shakllantirish ko'zda tutadi. Adabiy tilni egallashning ikkinchi, yuqori bosqichi haqiqiy ma'nodagi nutq madaniyatidir. Nutq madaniyati haqida adabiy tilga sohiblik sharoitida, to'g'rilik (ya'ni adabiy me'yorlarni bilish) sharoitida gapirish mumkin. Variantlarni nutq madaniyati sathidagi baholash boshqacha: yaxshiroq - yomonroq, aniqroq, jo'yaliroq..." Tabiiyki, nutq madaniyatining birinchi bosqichisiz ikkinchi bosqichi ham mavjud bo'la olmaydi, to'g'rilik sifatiga ega bo'lmagan nutq, ya'ni noto'g'ri nutqda boshqa biron kommunikativ sifat bo'li-shi mantikdan tashqaridir.

Nutqning to'g'riligi uning adabiy til me'yorlariga to'la mosligi sifatida talqin etilar ekan, bu me'yorlarning ikki xilini farkdash o'rinlidir. Tilshunoslikda adabiy til me'orlarining kuchli va kuchsiz tiplari ajratib ko'rsatiladi.

Nutq madaniyatining birinchi bosqichida, ya'ni to'g'ri nutq to'zish malakasini shakllantirishda asosiy diqqat e'tibor adabiy tilning kuchsiz me'yorlariga qaratilishi maqsadga muvofiq, chunki nutq amaliyotida kuchli me'yorlar deyarli bo'zilmaydi, kuchsiz me'yorlar esa nutq to'zuvchining ikkilanishiga va demaq nutq to'g'riligining bo'zilishiga ko'proq yo'l ochadi. Masalan, ega va kesimning shaxs va sonda moslashuvi kuchli sintaktik me'yor bo'lib, u bolalikdanoq kishi ongidan mustahkam o'rin olgan. Shuning uchun bu me'yorni qo'llashda biron kishi adashib, Men kelding shaklida jumla to'zmaydi. Qaratqich va tushum kelishiklarining qo'llanishi bilan bog'liq me'yorlar esa kuchsiz me'yorlarga misol bo'la oladi. Shuning uchun bu me'yorlar chuqur o'rgatilmasa, odam adashib, -ning o'rnida —ni qo'shimchasini ishlatib, meni du.tim tarzida noto'g'ri birikma to'zishi mumkin.

Adabiy til me'yorlari, nutqning sifatlari, nutq madaniyati masalalari o'zbeq rus va umuman, dunyo tilshunosligida ham amaliy, ham nazariy jihatdan ko'p vaqtlardan beri faol o'rganib kelinadi. O'zbek tilshunosligida S.Ibrohimov, Sh.Shoabdurahmonov, G'.Abdurahmonov, R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, M.Sodiqova, Yo.Tojiev, B.O'rinboev, A.Mamatov, M.Asomiddinova, T.Qudratov, S.Karimov, T.Qurbonov, A.Boboeva, B.Umurqulov, A.Ahmedov, Q.Samadov, S.Inomxo'jaev, L.Xo'jaeva va boshqa ko'plab olimlar nutq madaniyati masalalarin

tadqiq etishga o'z hissalarini qo'shganlar. Ular yaratgan asarlarda o'zbek nutqi madaniyatining nazariy masalalari bilan bir qatorda bevosita amaliyotga daxldor, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga doir taklif va tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. Aytib o'tilganiday, o'qituvchining birlamchi va asosiy quroli nutqdir. Ammo hech kimga sir emaski, ko'pgina o'qituvchilarning, ayniqsa, yosh o'qituvchilarning nutqida madaniylik jihatidan ancha-muncha nuqsonlar ko'zga tashlanadi. Har qanday ta'limning asosiy va etakchi shakli darsdir, shuning uchun ham pedagogika fani uning samaradorligini oshirishning yo'llarini tinimsiz izlaydi, xilma-xil metodlar, usullar, vositalar ishlab chiqadi. Kunimizda ham ta'limga yangidan-yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy texnik vositalar muntazam va jadal joriy etilmokda. Ammo dars deyiladigan murakkab jarayonning mukammalligi hamda natijadorligini ta'minlashda o'qituvchining pedagogik mahorati va shaxsiy fazilatlari ko'zgusi bo'lmish uning so'zi favqulodda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining mahorati faqat o'qitishning xilma-xil metodlarini o'rinli va to'g'ri qo'llay olishidagina iborat emas, balki o'quvchi bilan muloqotidagi asosiy quroli — tildan ustalik bilan foydalana bilishi bilan ham belgilanadi. Ta'sirchan nutqi bilan o'quvchi diqqatini butun dars davomida tutib tura olmasa, o'qituvchining pedagogik mahorati haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Darsning mazmuni va samaradorligi o'qituvchi nutqining ta'sirchanligi, umuman, madaniy bo'lishi bilan bevosita aloqadordir. Agar o'quvchi o'qituvchi nutqida noizchilliq tussizlik qashshoqliq mantiqsizlik noaniqlik uslubiy g'alizlik grammatik yanglishlik kabi nuq-sonlardan loaqal birortasini sezsa, uning diqqati bo'linadi, bayon qilinayotgan materialga bo'lgan qiziqishi susayadi. Qolaversa, material bunday no'noq nutq bilan bayon qilinganda, tabiiyki, o'quvchi uni qabul qilishda zo'rlanadi, darsdan ko'zlangan samaraga erishish mushqo'lashadi. Nutq texnikasi bilan bog'liq kamchiliklar (ayrim tovushlarni talaffo'z qilolmaslik yoki yanglish talaffo'z qilish, ovozning ortiqcha balandligi yoki pastligi, ovoz tembridagi sifatsizlik "shang'illagan" yoki "hirqiragan" bo'lishi, jumlada so'zlararo pao'za bera olmaslik nutq jarayonida to'g'ri nafas ola bilmaslik va sh.k.) ham dars samaradorligiga oldingi ko'rsatilgan nuqsonlardan kam salbiy ta'sir qilmaydi. O'qituvchi nutq madaniyatini nafaqat o'zi puxta egallagan bo'lmog'i, balki o'quvchilarini ham unga odatlantirmog'i kerak.

"O'qituvchi nutqi madaniyati" kursining asosiy vazifalari talabalarni nutq madaniyatining o'zak tushunchalari bilan tanishtirish, bo'lajak o'qituvchilarda til vositalari va ifoda imkoniyatlaridan kommunikativ va estetik maqsad hamda nutq vaziyatiga o'ta muvofiq tarzda foydalana olish malakalarini, nutqning barcha kommunikativ sifatleri mohiyati bilan oshno etgan holda bunday sifatlarga ega nutq to'zish mahoratini shakllantirish, og'zaki madaniy nutqning muhim o'zvi bo'lmish nutq texnikasini yaxshilash bilan bog'liq ko'nikmalarni yo'zaga keltirishdan iborat. Nozik til sezgisi, tilimizning benihoya boy an'analari va ifoda imkoniyatlaridan xabardorligi, tamoman to'q va ta'sirchan nutqi bilan o'quvchi qulog'ini emas, balki qalbu shuo'rini zabt etib, uning akdiy va ma'naviy dunyosini ken-gaytirishga bel bog'lagan o'qituvchi bugunning o'qituvchisidir.

Adabiyotlar:

1, 2, 3, 19, 20, 33

Tayanch soʻz va iboralar:

1. Oʻqituvchi
2. Nutq
3. Madaniyat
4. Iqtisodiyot
5. Tilshunoslik
6. Iqtisodiy bilim
7. Iqtisodiy taffakur
8. Iqtisodiy fanlar

Takrorlash uchun savollar:

1. Fanning vazifasi nimalardan iborat?
2. Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
3. Oʻqituvchining nutqi qanday boʻlish kerak?
4. Nutq madaniyati qaysi fanlar bilan bogʻliq?

2-mavzu: Madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatlari

REJA:

- 1. Madaniy nutq**
- 2. Nutqning asosiy kommunikativ sifatlari**
- 3. Nutqning to'g'riligi**

Nutqning madaniyligini ta'min etadigan to'g'riliq aniqliq mantiqiylik ifodalilik boyliq sofliq jo'yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlari mavjud. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborotni tinglovchi (o'quvchi)ga etkazish, shu yo'l bilan unga ta'sir qilishdan iborat bo'lib, mazkur sifatlarning jami nutqning ta'sirchanligini yo'zaga keltiradi.

Nutqning to'g'riligi nutq madaniyati haqidagi ta'limotning markaziy masalasidir. Madaniy nutqning boshqa barcha kommunikativ sifatlari ayni shu to'g'rilik mavjud bo'lgandagina yo'zaga kela oladi. Zotan, to'g'ri bo'lmagan nutqning aniqliqi yoki mantiqiyliqi, ifodaliligi yoki boyligi haqida gapirish mumkin emas. Aytish joizki, nutqning to'g'riligi boshqa barcha kommunikativ sifatlarning poydevori vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham nutqning to'g'riligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi bo'lib, maktab ona tili ta'limining asosiy maqsadi ham o'quvchilarda aynan to'g'ri nutq to'zish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

To'g'rilik sifati nutq tarkibi va qurilishining amaldagi adabiy til me'yorlariga to'la mosligi asosida yo'zaga keladi. Adabiy til me'yorlariga amal qilinmasdan to'zilgan nutq to'g'ri nutq bo'la olmaydi.

O'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyoti juda qadim zamonlarga borib taqaladi¹. Bizning⁴² ming yillik umumxalq tilimiz bor, adabiy tilimiz ana shu umumxalq tilimiz bag'rida rivoj topgan. Tabiiyki, umumxalq tili — tabiiy va tarixiy taraqqiyot jarayonlari ichidagi, ammo "andavalanmagan", "randalanmagan" til. U o'z go'zalligini qanday bo'lsa, shundayligicha asrlar osha asragan, ataylab pardoatlanmagan, me'yor degan qat'iy qoidalar zanjiridan ozod, muayyan hududga mansub goh behad noziq gohida mundayroq o'ziga xosliklarni, ya'ni shu til doirasidagi barcha sheva-larni ham qamragan tildir. Adabiy til esa ana shu xalq tilining, ta'bir joiz bo'lsa, tarbiyasi, ko'rkli va komil yagona "farzandi"dir. O'zbek adabiy tili o'zbek xalq tili zaminida tarkib topgan, u xalq tilining tegishli qonuniyatlar asosida me'yorlashtirilgan, sayqallangan, oro berilgan shaklidir. O'zbek adabiy tilining shakllanish asosi ham, boyish va ozikdanish manbasi ham ayni shu xalq tilidir. Bugungi o'zbek adabiy tilimizning boyligi va favqulodda

ifoda imkonlariga egaligi aslida xalq tilimizning rasoligi va ravonligi bilan izoxlanadi.

Alabiy me'yor til unsurlaridan til sistemasi qonuniyatlariga uyg'un, jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida barqarorlashgan ijtimoiy-nutqiy amaliyot va an'anaga muvofiq holda foydalanish qoidalaridir. Adabiy me'yorning shakllanishi va rivojlanishida jamiyatdagi nutqiy amaliyot va, ayniqsa, atokdi yozuvchilar — so'z ustalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xuddi shu amaliyotda barqarorlashgan so'z (yoki boshqa lisoniy birlik)ni qo'llash doimiy qoida shaklini oladi. Qizig'i shundaki, adabiy til me'yori nutqiy amaliyotdan olinadi va yana shu amaliyotni boshqarishga xizmat qiladi. Til me'yorlari milliy til birligi, butunligining bosh omillaridan hisoblanadi. Ayni shu me'yorlar ko'p shevali o'zbek milliy tili egalarining nutqiy muloqotini birlashtiradi. Adabiy me'yorlar anchayin barqaror hodisadir, aks holda nutqiy aloqa qiyinlashishi tabiiy. Aytayliq bugun bu shakl me'yor, ertaga boshqa shakl me'yor bo'lsa, kishilarning bir-birlarini anglashlari mushqo'lashadi. Masalan, muayyan so'z mavjud bir narsaga nisbat berib yasalgan va bu so'z adabiy me'yorga kirgan, ammo vaqtlar o'tishi bilan bu narsa o'rnini boshqa narsa egallaydi.

Me'yorlarni tamoman qotib qolgan narsa deb tushunish to'g'ri emas. Adabiy til me'yorlari ayni paytda dinamik hodisa hamdir. Til o'zining ijtimoiy tabiatiga muvofiq jamiyat rivoji bilan bab-baravar tako-millashib borar ekan, tilning me'yorlari ham o'zgarib, yana« da mukammallashib boradi. Masalan, o'tgan asrning 30-yillarida buyruq maylining ikkinchi shaxs ko'plik shakli sifatida — (i)ngiz shaklini qo'llash adabiy til me'yori edi lekin asr oxiriga kelib, uning o'rnida —(i)ng shakli me'yorga aylandi.

O'zbek adabiy tili me'yorlarining xalq shevalariga ko'ra asoslarini ham to'g'ri tasavvur etmoq lozim. "O'zbek tilining lahjalari orasida, odatda, qorluq-chigil lahjasi hamda unga qarashli bo'lgan ayrim sheva va dialektlar o'zbek adabiy tilining tayanch sheva va dialektlari deb hisoblanadi. Bunda ularning talaffo'z norma (me'yor)larini belgilashdagi roli, ko'pgina terminlarning ularda ilgaridan shakllanganligi, bu sheva vakillarining ko'p jihatdan milliy madaniyat va leksik an'analimizni boshqarishda o'zlariga xos xizmatlari borligi asosga olingan... Ba'zi olimlar o'zbek adabiy tilining normalarini belgilashda Toshkent shevasini fonetik jihatdan, Andijon, Farg'ona shevalarini esa morfologik jihatdan tayanch sheva deb hisoblaydilar. Toshkent shevasi poytaxt shahar shevasi sifatida leksik tomondan ham o'zining ko'pgina elementlarini adabiy tilga kiritgan va kiritmoqda. Lekin aslida A.K.Borovkov qayd qilib o'tganidek o'zbek tilining birorta shevasini ham adabiy tilga hamma jihatdan asos bo'lgan deb aytib bo'lmaydi. Chunki o'zbek tilining hamma dialekt va shevalari adabiy til taraqqiyotiga ma'lum bir hissa qo'shgan, ikkinchi tomondan, ularning har birida juda ko'p o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Masalan, Andijon, Farg'ona shevalari o'zbek adabiy tiliga eng ko'p tarqalgan grammatik formalardan birini - hozirgi zamon fe'lining — yap affiksi bilan yasaluvchi formasini bergan. Bundan tashqari, Andijon va Farg'ona shevalari o'zbek adabiy tilining asosiy talaffo'z bazasi sifatida ham xizmat qiladi. Bu shevalarning adabiy tilimizga o'zlarining fonetik xususiyatlari bilan ham maksimal darajada yaqinlashuvi shu bilan izoxlanadi. Bu shevalar o'zbek adabiy

tiliga o'zlarining leksik boyligi, stilistik imkoniyatlari hamda boshqa til vositalari bilan ham hissa qo'shgan. Shuni xarakterlik, bir qarashda o'zbek adabiy tilidan birmuncha o'zoqroq turgandek ko'ringan qipchoq shevalari ham o'zbek adabiy tiliga juda ko'p leksik boyligi, stilistik imkoniyatlari hamda boshqa grammatik vositalari bilan hissa qo'shgan. Masalan, o'zbek adabiy tilidagi qaratqich kelishigining to'liq formasi qipchoq shevalaridan qabul qilingan. Adabiy tilimizdagi hozirgi zamon fe'lining -yotir affiksi vositasida yasaluvchi formasi ham qipchoq va o'g'o'z dialektlariga xos formadir va h.k...

Demaq o'zbek adabiy tilining rivojlanishida barcha dialekt va shevalar manba bo'lib xizmat qilgan. Lekin bundan qorluq-chigil lahjasiga oid dialekt va shevalar etakchi manba rolini o'ynagan."

O'zbek adabiy tilida, asosan, quyidagi me'yorlar farqlanadi: 1)leksik (so'z qo'llash) me'yorlar;

2)talaffo'z (orfoepik) me'yorlari;

3)so'z yasalishi me'yorlari;

4)morfologsh me'yorlar;

5)sintaktik me'yorlar;

6)uslubiy me'yorlar.

Tabiiyki, adabiy tilning yozma shaklida imlo (orfografik) tinish belgilari (punktuatsion) me'yorlari ham mavjud bo'ladi. Bu me'yorlar mutaxassislar tomonidan til qonuniyatlari, shuningdeq tarixiy an'analarga suyangan holda aniq qoidalar shaklida tayyorlanadi va tegishli davlat organi tarafidan tasdikdanadi. Bu qoidalar ayni paytda imlo lug'atlarida o'z aksini topadi. Madaniy nutq malakasini puxta egallamoq, muayyan nutqning to'g'rilik sifatini xolis baholay bilmoq uchun adabiy me'yorlarning mazkur tiplari, ularning asosiy qoidalari va bu qoidalarining bo'zilishi natijasida yo'zaga kelishi mumkin bo'lgan nutqiy xatolarni etarli darajada tasavvur qilmoq maqsadga muvofikdir. Ayniqsa, adabiy til me'yorlarining kuchsiz tiplari, agar etarli darajada egallanmagan bo'lsa, nutqda bo'zilishga moyil bo'ladi.

O'zbekistonning mustaqilligi arafasida va mustaqillikning dastlabki yillarida ham o'zbek tilidagi evropacha o'zlashmalarni tildan chiqarishga qaratilgan xilma-xil fikrlash tavsiyalar o'rta tashlandi. Bu tavsiyalarning aksariyati ilmiy-ijtimoiy asosga ega emasdi, chunki bu fikrlarning mualliflari tilning mohiyati va qonuniyatlaridan bexabar edilar. Masalan, bir yozuvchi hatto tovar so'zi o'zbek tiliga yot, uni iste'moldan chiqarish kerak degan da'vo bilan chiqdi. Holbuki, tovar so'zi sof turkiy bo'lib, u rus tiliga turkiy tillardan o'tgan. Aslida tug'+ar — tug'ar (tug'adigan — tuvar — to'var — tovar shaklida paydo bo'lgan. Mol so'zining ma'no taraqqiyoti qanday bo'lsa, tovar so'ziniki ham aynan shunday. Faqat bu so'zlarning biri sharqiy turkiy tillarga, ikkinchisi esa g'arbiy turkiy tillarga xosdir. Demaq tovar so'zi o'zbek tilining ming yillik asl o'z so'zi sifatida yashashga haqli.

Ayni shu davrda aeroport so'zini tayyoragoh, gazeta so'zini ro'znoma, jurnalni majalla, fakultetki kulliyot, filalogayani suxanshunosliq rayonni nohiya tarzida almashti-rishga harakat qilindi, matbuotda shunday qo'llana boshladi. Ammo baribir, bu so'zlar o'zbek tilining leksik me'yoriga aylana olmadi. Bir xorijiy tildan kirgan so'zni boshqa xorijiy til — arab yoki fors tili so'zi bilan almashtirish,

tabiiyki, til leksikasi taraqqiyoti uchun hech narsa bermaydi, aksincha, xalqni o'zi odatlangan so'zidan ajratadi, tushunishini qiyinlashtiradi.

Ayniqsa, o'qituvchi nutqida hatto maktab bilan bog'liq tushunchalar ifodasi uchun adabiy tilning lug'at boyligidan o'rin olib ulgurmagan so'zlarning qo'llanishi mutlaqo nojoizdir. Masalan, "Kichkintoylar nutqini o'stirish" nomli bir kitobda shunday jumla bor: Tarbiyachi xattaxta oldiga ikki nafar bolani chaqiradi.* Albatta, bu so'z ruschadan olingan doska so'zining muqobili sifatida yasalgan, lekin leksik me'yor maqomini olmagan. Aslida bunday yangi so'z yasashga ehtiyoj yo'q, chunki tilimiz tarixida ayni ma'noda qo'llangan taxta so'zi mavjud: Xonada o'ntacha est chang bosgan parta, kiraverishdagi devorga kattakon krra taxta qoqilgan edi (Parda Tursun, "O'qituvchi" romani). Tilning leksik me'yorlarini yaxshi anglash, uni avaylash va unga amal qilish to'g'ri nutq to'zishning muhim omillaridandir.

Mamlakatimizdagi jadal iqtisodiy islohotlar tufayli marketing, menejment, menejer, broker, lizing, birja kabi allaqancha xorijiy so'z o'zbek adabiy tilining lug'at xazinasidan joy olib ulgurdi. Albatta, bu so'zlar yangi, ilg'or iqtisodiy g'oyalar bilan birga kirib kelmokda. O'zbek adabiy tilining talaffo'z (orfoepik) me'yorlari deganda, nutqda ayrim tovushlar, ularning qo'shilmasi, so'zlar, jumla(gap)larning ohangi (intonatsiyasi) va shu kabilarni to'g'ri talaffo'z qilish qoidalari nazarda tutiladi.

Ba'zan yoshlar yoki biron-bir xorijiy tilni mukammal biladiganlar nutqida muayyan so'zni boshqa til talaffo'z taomiliga moslab aytish kabi nuqsonlar ham ko'zga tashla-nadi. Masalan, yanvar so'zini yinvar, Yaponiya so'zini Yipo-yaiya, dekan so'zini dekan, fakultet so'zini fikultet tarzida begona aktsent bilan talaffo'z qilish o'zbekcha talaffo'z me'yoriga ziddir. Tovush va so'z talaffo'zi bilan bog'liq bunday xatolar ancha-muncha bor.

Nutqning to'g'ri anglanishida mantiqiy urg'u, pao'za, ohang (intonatsiya) ham alohida ahamiyatga ega. Aytib o'tilganideq ular bilan bog'liq qonuniyatlar ham o'zbek adabiy talaffo'zi me'yorlarini belgilaydi.

O'zbek tilining o'ziga xos so'z yasalishi me'yorlari mavjud. Xar qanday yasaladigan so'z shu me'yorlar doirasida bulmog'i shart. Bu me'yorlarga amal kilinmasdan yasalgan so'z tilining lurat tarkibidan o'rin ololmaydi. Masalan, -gich (-rich, qich, -kich) qo'shimchasi faol yasovchi qo'shimchalardan bo'lib, tilimizdagi mavjud so'z yasalish me'yorlariga ko'ra fe'lga kushiladi va narsa-kurol, ya'ni fe'ldan anglashilgan xarakatni bajaruvchi kurol otini yasaydi: so'zgich, tekislagich, chizg'ich, kirg'ich, qisqich, ko'rsatkich kabi. Bu qo'shimcha ot turkumidagi so'zga mutlako kushila olmaydi. Lekin ba'zilar bu koidani bo'zib, tomirgich so'zini yasaydilar ("O'zbekistan adabiyoti va san'ati", 1990 yil 16 noyabr). Pul sografni tomirgich deb aytish, o'zbek tilida bunday so'z yasash tilimiz tabiatiga tamoman ziddir. Chunki tomir so'zi ot turkumiga oid bo'lib, mazkur qo'shimchaning ma'nosi bilan uyg'unlasha olmaydi, demakki, yangi so'z yo'zaga kelmaydi, Shuning uchun xam bu "so'z" tilimiz lutatiga kirmadi.

O'zbek adabiy tilining grammatikasi, ya'ni morfologiya na sintaksisi tilshunoslikda nazariy jixatdan anchayin batafsil tadkiq etilgan, tilning morfologik va sintaktik kurulishiga xos konuniyatlar umumlashirilgan, deyarli barcha xolatlar

koidalashtirilgan. Ular tilshunosligimizdagi ko'plab ilmiy tadqiqotlar, normativ grammatikalar, o'zbek tili bo'yicha umumta'lim va oliy maktablar uchun yaratilgan. Darsliklar, o'quv qo'llanmalarida o'z aksini topgan. Ana asosda o'zbek tilida so'z shakllari, qo'shimchalarning ko'llanishi, so'zlarning kushilishi, so'z birikmalari va gap to'zilishi bilan bog'liq qoidalarining jami **grammatik me'yorlar** sifatida e'tirof etilgan.

Tabiiyki, grammatik me'yorlar morfologik va sintaktik - me'yoyrlardan tarkib topadi. So'zlarning morfologik shakli ularning nutqda ko'llanishini tartibga soluvchi koidalar **morfologik me'yorlar**. so'zlarning birikish yullari, so'z birikmasi va gap to'zilishi bilan bog'liq koidalar esa **sintaktik mo'yorlar** deb yuritiladi.

Uslubiy me'yorlar nutq madaniyatining chukqisi xisoblanadi, bu me'yorlarni mukammal bilish va ulardan erkin foydalana olish madaniy nutq tarbiyasining pirovard maksadlaridandir.

Til kanchalik rivojlangan bo'lsa, uning uslubiy me'yorlari xam shunchalik barkrorlashgan, ranginlashgan, boyigan bo'ladi. O'zbek tili dunyodagi eng kadimiy va tarakqiy etgan tillardan biri sifatida o'zining tarang uslubiy me'yorlariga ega.

O'zbek tilida Quyidagi nutq uslublari farqlanadi: 1)so'zlashuv uslubi, 2)rasmiy uslub, 3)ilmiy uslub, 4) publi- tsistik uslub, 5) badiiy uslub. Bu uslublarning xar biriga xoslangan grammatik shakllar, so'z, so'z birikmasi, gap va intonatsion vositalar mavjud. Ana shu xoslanish o'zbek adabiy tili uslubiy me'yorlarining asosidir. Anikroq aytiladigan bo'lsa, **uslubiy me'yorlar** muayyan soxadagi aloqani ta'minlaydigan nutqning mazmuni, maqsadi va vazifasi uchun mos keladigan til birliklarini tanlash koidalaridir.

Uslubiy me'yorlarni puxta egallash, ularga ziyraklik bilan muntazam amal qilish malakalariga ega bo'lmoq uchun ko'p o'qish, o'rganish, qisqasi ko'p ter to'kishga to'g'ri keladi. Ayniqsa, uqituvchi va asosiy quroli so'z bo'lgan boshqa kasb egalari bu me'yorlar bo'yicha malakalarini oshirish borasida muttasil shug'ullanishlari lozim.

Adabiy til me'yorlari bo'zilishining ikki to'rini farqlash lozim. Birinchisi shuki, so'zlovchi yoki yozuvchi adabiy til me'yorlarini bilmaganligi uchun bunday nuqsonga yul kuyadi va u to'zgan nutq noto'g'ri deb qaraladi. Ikkinchi holatda esa so'zlovchi yoki yozuvchi adabiy til me'yorlarini mukammal biladi, lekin turli, masalan, estetik maqsad bilan muayyan qonuniyatlar asosida bu me'yorlarini bo'zadi va uning nutqi notug'ri deb hisoblanmaydi. Ayni paytda bunday holatlar bo'zilish deb emas, balki adabiy me'yordan chekinish tarzida baholanadi. Bu o'rinda, tabiiyki, badiiy nutq nazarda tutilmokda.

Bir uslubga oid so'z yoki sintaktik to'zilmalar boshqa uslubga ko'chirilganda, bu birliklarning eng nozik uslubiy va estetik imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Bu birliklar yumor, kinoya-kesatiq, xullas, komik ruhni ifodalovchi asosiy vositalardan biriga aylanadi. Komik ruhning kuchlilik darajasi esa ko'chiriladigan uslublarning bir-biridan qanchalik o'zokligi, keskin farklanishi bilan bog'likdir. Boshqacha kilib aytganda, boshqa uslubga ko'chirilgan birliklarning bu uslubga "yot"ligi qanchalik kuchli sezilib, farklanib tursa, komik effekt shunchalik yuqori

va sezilarli bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy asar tilida ko'proq rasmiy, ilmiy-tantanavor uslublarga xos birliklarning kuchirilishi ko'zatiladi.

Rasmiy-publitsistik uslubda bu uslubning o'ziga xoslangan, uni xarakterlovchi so'z va sintaktik to'zilmalar juda ko'p. Ular hatto doimiy birikmalarga, iboralarga aylanib qolgan. Ularni eshitishimiz (yoki o'qishimiz) bilan ixtiyorsiz ravishda rasmiy-publitsistik uslub xayolimizga keladi. Aytish mumkinki, bunday birikmalar rasmiy-publitsistik uslubning o'ziga xos tamg'alari sifatida odatiylashib qolgan. Masalan, yutuqlarga erishmoq, ta'kidlab utmoq, keng muhokama qilmoq, aloxida e'tiborni qaratmoq, kamchiliklarni bartaraf qilmoq, misli ko'rilmagan darajada mustaxramlamoq, tarixiy voqealarga guvoh bulmoq, qayd qilmoq, faktlarga murojaat qilmoq va boshqa bir kator shu kabi so'z, so'z birikmalarini esga olish mumkin.

Badiiy so'z ustalari so'zlarni boshqa uslubga kuchirib kullar ekan, turli xil estetik imkoniyatlarni yo'zaga chiqaradilar. Badiiy nutqda adabiy tilning grammatik uslubiy yoki boshqa me'yorlaridan badiiy-estetik maqsad bilan chekinilishi adabiy til me'yorlarining nainki bo'zilishi, balki badiiy nutqning mutlaqo o'ziga xos me'yorlarining voqe bo'lishi tarzida baholanadi. Nutqning tug'riligi sifati badiiy uslubda ana shunday o'ziga xos bir tarzda namoyon bo'ladi. Badiiy nutqda ko'zatiladigan adabiy til me'yorlaridan chekinish holatlari va buning oqibatida yo'zaga keladigan estetik ta'sirning qimmatini idrok etmoq uchun, albatta, adabiy til me'yorlarini puxta bilmoq lozim.

Adabiyotlar:

1, 2, 3, 19, 20, 33

Tayanch so'z va iboralar:

1. O'qituvchi
2. Nutq
3. Madaniyat
4. Me'yor
5. Talaffo'z (orfoepik) me'yorlari;
6. So'z yasalishi me'yorlari;
7. Morfologsh me'yorlar;
8. Sintaktik me'yorlar;
9. Uslubiy me'yorlar.
10. Nutqning to'g'riligi

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutqning kommunikativ tasnifi nimalardan iborat?
2. Nutqning to'g'riligi deganda nimani tushunasiz?
3. Nutqning to'g'riligini bo'zuvchi vositalar qanday bo'lish kerak?
4. Nutqning to'g'riligi bo'zilgan matnlar bilan ishlash.

3- mavzu : Nutqning aniqligi

REJA:

1.Nutq aniqligi

2.Narsa va tushuncha aniqligi

3.Nutq aniqligining ahamiyati

Kishilar o'rtasidagi mulokotni talab darajasida ta'minlay oladigan nutq to'g'ri bo'lishi bilan bir qatorda aniklik sifatiga ham ega bo'lishi shart. Agar nutq aniq bo'lmasa, so'zlovchi etkazdirmoqchi bo'lgan muayyan fikr tinglovchi tomonidan to'lasicha va aynan anglanishi mahol. U holda fikr chala yoki yanglish tushunilishi mumkinki, bu anik bo'lmagan nutqning kishilar o'rtasidagi tabiiy va normal muloqot uchun yaroqsizligini ko'rsatadi.

Qadimgi yunon donishmandi Aristotel o'zining "Ritorika" kitobida nutqning asosiy fazilati uning anikligida ekanligini aytib, "agar nutq aniq bulmasa, u o'z maqsadiga erisha olmaydi" deb ta'kidlaydi. Shu narsa ham haqiqatki, nutqning maqsadi, ya'ni aytilmoqchi bo'lgan fikrning o'zi aniq va ravshan bo'lmasa, uni ifodalash uchun to'ziladigan nutq hech qachon aniq bulolmaydi. Nutqiy ifoda aniq bo'lishi uchun, avvalo, nutq to'zuvchining o'zi aytmoqchi bo'lgan fikrini tiniklashtirib olishi kerak. Ko'pincha tadqiqotchilar ulug' rus adibi L.N.Tolstoyning "So'zdagi noanikdiq shubhasiz, fikr noanikligining alomatidir" degan gapini iqtibos qiladilar. XVI asrda yashagan frantso'z faylasufi Mishel Montenning quyidagi gapida ham katta ma'no bor: "Men Sukrotning xulosalariga tayangan holda uylaymanki, ongida biror narsa haqida tirik va aniq tasavvur shakllangan odam bu tasavvurlarni har qanday tilda, tarabar shevasida (tushunib bo'lmaydigan) bo'lsa-da, ifodalay oladi." Albatta, narsa-hodisalar haqida ongda aniq tasavvurlarning shakllanishi uchun tafakkur kilish lozim bo'ladi. Narsa-hodisalarni tug'ri va anik; nomlay olmasliq tabiiyki, ularni yaxshi bilmaslik oqibatidir. Tafakkur qila olmaslik yoki tafakkur tanballigi aniq nutq to'zishga imkon bermaydi. Zotan, til va tafakko'ring dialektik birligi hakida ko'p⁸⁹ gapirilgan, tilsiz tafakkur, tafakkursiz til yuq, bizning barcha bilimlarimiz til va tafayusurga ko'ra hosil bo'ladi, shakllanadi va rivojlanadi.

Real voqeliq tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalarning nutqda tug'ri va yakqol ifodalanishi aniq nutqning asosiy mohiyatidir. Shuning uchun ham aniklik kommunikativ sifati nutq va voqelik o'rtasidagi mutanosiblik zaminida belgilanadi.

Bunda, asosan, nutqdagi asosiy birlik sanalmish soʻzning tugʻri qoʻllanishi nazarda tutiladi. Demak nutqning anikligi soʻzning tildagi maʼnosiga tamomila muvofiq tarzda qoʻllanishi, soʻzning voqelikdagi oʻzi ifodalayotgan narsa-hodisa bilan qatʼiy mosligi asosida yoʻzaga keladigan kommunikativ sifatdir, Aniq nutq malakasining shakllanishida tavsiflanayotgan voqelikni bilish, tildagi soʻz maʼnolari sistemasini yaxshi anglash, nutq mazmuniga eʼtibor bilan qarash hal qiluvchi ahamiyatga molikdir.

Nutqni aniq toʻza olish uchun, aytilganiday, eng avvalo, soʻzning leksik maʼnosini toʻgʻri tasavvur qilish lozim. Quyidagi jumlagi eʼtibor beraylik: Avlodlar merosini oʻrganamiz ("Maʼrifat", 1998 yil 3 iyun). Bu jumlada ifodalanmoqchi boʻlgan mazmun avlod soʻzining leksik maʼnosiga toʻgʻri kelmaydi. Avlod soʻzi asli arabcha boʻlib (uning bir-lik shakli valad, yaʼni "bola" demakdir), oʻzbek tilida "bir ota-bobodan tarqalgan nasl", "bir davrda tugʻilib usgan kishilar" kabi maʼnolarga ega, Hamonki, gap meros haqida ketar ekan, ajdod soʻzi qoʻllanishi lozim edi, chunki u ham asli arabcha boʻlib, uning maʼnosi "ilgari utgan nasl-na sab, ota-bobolar" demakdir. Shunga koʻra mazkur jumla ajdodlar merosini urganamiz shaklida toʻzilishi kerak edi. Koʻrinadiki, avlod soʻzi tildagi leksik maʼnosiga muvofiq tarzda qoʻllanmaganligi uchun nutqning aniqligiga putur etgan.

Oʻzbek tilida aniq nutq yaratishga kumaklashuvchi vositalar juda koʻp. Nutq predmetini, ifodalanmoqchi boʻlgan narsa-hodisani butun iker-chikirlarigacha, turfa nozikliklarigacha ajratib ifodalash imkonini beruvchi sinonimlar qatori mavjudki, ular orasidan nutq predmeti ifodasi uchun eng uygunini tanlash orqali ham nutqning aniqligi taʼminlanadi.

Sinonimlar narsa-hodisa, harakat-holat, belgilarning eng kichiq hatto sezilar-sezilmas nozik qirralarini, ularga boʻlgan subʼektiv munosabat va yana qanchadan-qancha oʻziga xosliklarni farldab koʻrsata olar ekan, nutq toʻzishda juda katta tanlash imkoniyati mavjudligi tabiiy, Shubhasizki, tilning sinonimlarga boyligi soʻz tanlashga benihoya ehtiyotkorlik bilan munosabatda bulishni talab etadi. Xususan, tilimizning ulkan xazinasini boʻlmish sinonimik boyligini chukur va mukammal egallamasdan turib, nutqning aniqligi, ravonligi, ifodaliligiga erishish mumkin emas. Kishidagi lugʻat zahirasiining kambagʻalligi fikr ifodasiining kashshokligiga, soʻz qoʻlashdagi koʻpol noqisliklarga, soʻzlarning maʼnolaridagi tovlanishlarni ilgay olmaslikka olib keladi.

Tilimizdagi dars, mashgʻulot, saboq soʻzlarida maʼnodoshlik bor, ammo ularning qoʻllanishi farkli. Shunga qaramasdan, ularning biri oʻrnida ikkinchisini yoki aralash ishlatish natijasida nutq aniqligining boʻzilishi hollari koʻzga tashlanadi. Masalan, "Kichkintoylar nutqini oʻstirish" nomli qoʻllanmada bu soʻzlarning uchalasi ham aralash ishlatilgan: 19-mashgʻulot. Mavzu: "Saboq"... Hozir qanday saboq? — deb suraydi tarbiyachi. — Hozir oʻzbek tili sabogʻi,- deb bir ovozdan javob beradilar bolalar... Hozir oʻzbek tili darsi. Dars sinfdi davom etyapti (61-63-betlar). Bu nutqni aslo aniq deb boʻlmaydi. Saboq soʻzi eskilik boʻyogʻiga ega boʻlib, u tarixiy mavzudagi matnda qoʻllanishi mumkin, bu soʻzning hozirgi tilda ikkinchi, kuchma maʼnosi ("ibrat, namuna") faol ishlatiladi: turmush saboqlari, tarix saboklapu kabi. Mashgʻulot soʻzining maʼnosi umumiy,

umuman mashg'ulliq masalan, amaliy mashg'ulot, sport mashg'uloti, tugarak mashg'uloti deyish mumkin, lekin tugarak darsi, sport darsi deb bo'lmaydi. Mazkur matnda nutq predmetini aniq ifodalaydigan so'z fakat dars so'zidir, maktab amaliyotida ham aynan shu so'z keng tarqalgan.

Keyingi paytlarda ba'zan familiya so'zining muqobili yoki sinonimi sifatida tarif so'zini mutlaqo notug'ri va ma'nosiga zid qo'lash uchrab qolmokda. Mazkur qo'llanmada o'qiymiz: Tarbiyachi: Sening isming nima? Bola: Mening ismim Nosir. Tarbiyachi: Sening sharifing nima? Bola: Mening sharifim Usmonov (11'1-bet). Eski kitobiy uslubda Ismi sharifingiz nima? shaklidagi ibora bo'lib, uning mazmuni "Sharafli, muborak ismingiz nima?" demakdir, bu iborani "Ismingiz va familiyangiz nima?" tarzida behad dumbul tushunish oqibatida familiyata. sinonim "ixtiro qilingan". Bu "ixtiro" nutqning aniqligi bilan bir qatorda tilning va mantiqning mohiyatini ham ishdan chiqargan.

O'zbek tilida shkaf va javon so'zlari aynan bir narsani bildiradi, bunday sinonimlarni tilshunoslikda dubletlar deb ham atashadi. Kamida, Fapb bilan bog'liq mavzudagi nutq bo'lganda, shkaf so'zini qo'lash ma'kul bo'lar, har holda, bu so'z rus tilidan kirgan. Lekin ular ifodalagan predmet bevosita bir narsa, shuning uchun ularning ikkalasini birdaniga, boshqa-boshqa predmetlar nomi sifatida qo'llash nutqni mavhumlashtiradi, tinglovchi yoki o'quvchi bu ikki so'zga tegishli ikkita predmetni topolmaydi. Quyidagi nutqdagi fikrni tinglovchi aniq tasavvur qila olmaydi: Tarbiyachi shkaf va javon suratlarini ko'rsatib, bir necha bor "Bu javop", "U shkaf" deydi (S.Jo'raev, H.Qodirov). To'g'ri, qaysidir bir shevada bu so'zlar ifodalagan buyumlarda farq bordir, ammo adabiy tilda unday emas.

O'zbek tilida sovg'a, hadya, tortiq, tuhfa so'zlari sinonimlardir. Gazetalardan birida mana bunday yozilgan: Mirmuhsin ushbu asari bilan adabiyotimizga... munosib kuvonchli tuhfa hadya qildi ("O'zbekiston madaniyati", 1977 yil 14 oktyabr). Boshqa bir gazetada esa Quyidagicha yoziladi; ...Fermer xujaligi raxbari... o'z hadyasini tuhfa etmoqda ("Xalq so'zi", 2006 yil 4 iyul). So'zlarning leksik ma'nosi to'g'ri anglanmaganligi, ularning sinonimligi nazardan qochirilganligi bois mazkur jummalarda aniklik sifati yuqolgan. Ajratib ko'rsatilgan tuhfa hadya qildi, hadyasini tuxfa etmokda birikmalari tavgologikdir, ya'ni ayni bir mazmun ikki marta ta'kidlangan, bu normal nutqda aniklikka xalaqit beradi. Mana bu jummalarda ham ana shu sababga ko'ra nutqning aniqligiga putur etgan: Uning (raqamli texnologiyaning) afzalligi shundaki, iqtisodiy sarf-xarajatlarni ancha tejaydi ("O'zbekiston ovozi", 2006 yil 17 iyun) (sarf-xarajat, albatta, iqtisodiy bo'ladi). Musaxon aka... o'tgan asrning 1913 yili... Qozon universiteti meditsina fakultetiga tahsil olgani boradi ("Xurriyat", 2006 yil 5 iyul) (o'tgan asr bo'lgandan keyin 1913 yili emas, balki 13 yili bo'lishi kerak).

Aniq nutq to'zishda so'zlarning ko'p ma'noliligi, ya'ni polisemiya hodisasiga alohida e'tibor berilishi lozim. Tilda birdan ortiq ma'noga ega bo'lgan so'zlar juda katta mikdorni tashkil etadi, bu ham aslida tilning o'ziga xosligi va boyligini ko'rsatadi. Ammo ayni shu holat ham nutq to'zuvchidan ziyraklikni talab etadi. Ingliz adibi Jona- tan Svift "Gulliverning sayohatlari" romanida utkir satira tili bilan xayoliy Lagado akademiasining hayotdan ajralib qolgan olimlari ustidan

kular ekan, ularning soʻz vositasida emas, balki narsalar vositasida oʻzaro muloqot kilishlarini tasvirlaydi. Guyoki soʻzlar narsalarning nomi boʻlganligi uchun yanglish anglanishi ham mumkin, shuning uchun narsalarning oʻzini koʻrsatish orqali fikr almashish maʼqulrokdir. Asarda olimlar suhbat uchun bir erga boradigan boʻlsa, fikrini bildirishga kerak boʻladigan narsalarni ham qopda olib borgan, yaʼni har bir olimning lugʻat zahirasi shu qopning hajmiga bogʻliq, boʻlgan. Bu kulgining asosi - soʻzning koʻp maʼnoliligidan gul va dumbul tasavvur bilan qoʻrqish. Hajv ustasi Svift tilning muʼjizaviy tabiatidan bexabarlik ustidan qoʻlganday boʻladi.

Oʻzbek tilida kasal soʻzi polisemantik boʻlib, uning 7 ta maʼnosi qayd etilgan, yaʼni 1) "organizm normal faoliyatining boʻzilganlik belgisi (sifat)", 2)"organizmining normal faoliyati boʻzilgan kishi", 3) "organizm normal faoliyatining boʻzilganlik holati, kasallik" 4)"kutulib boʻlmaydigan odat", 5)"kamchiliq illat" va h.k. Parchada bu soʻz ikkinchi va uchinchi maʼnolari bilan ishlatilgan, lekin ikkinchi, yaʼni kasallik maʼnosida qoʻllangandagi kontekst ayni maʼnoni emas, balki uchinchi, yaʼni bemor maʼnosini reallashtirish uchun qulaydir. Shuning uchun nutqdagi fikrning birdaniga aniq anglanishi bir qadar qiyin, bu maʼno ifodasi uchun toʻgʻridan-toʻgʻri kasallik soʻzini ishlatib quya qolgan maʼqul edi. Ehtimol, soʻz uyini chiqarishga harakat qilingandir, ammo bu maqsadga erishilmaganday. Undan koʻra kasallik soʻzi qoʻllanganda, ham nutq aniq bulardi, ham muayyan estetik effekt yoʻzaga kelardi.

Shakldosh soʻzlar, yaʼni omonimlarni ham farklay bilish soʻzlarni toʻgʻri qoʻlash va demaq nutqning aniqligini taʼminlashga yordam beradi. Omonimlarni qorishtirish natijasida yoʻzaga keladigan nutqiy noanikliklar koʻproq oʻquvchilar nutqida koʻzatiladi, bu, albatta, ularda nutqiy kunikmalarning etarli darajada muntazamlashmaganligi bilan izoxdanadi. Bu boradagi nuqsonlarni, tabiiy, maktab ona tili taʼlimi tarixiy ravishda bartaraf etib boradi. Ayni paytda bu masalada yirik tilshunos Sh.Rahmatullaev tomonidan toʻzilgan "Oʻzbek tili omonimlarining izoxdi lugʻati" (Toshkent: Oʻkituvchi, 1984) ham yaxshi amaliy qoʻllanma vazifasini oʻtashi mumkin.

Oʻzbek tilida talaffoʻzi jihatidan oʻxshash (bir xil emas), ammo boshqa-boshqa maʼnoga ega boʻlgan bir qancha soʻzlar bor, ular fonetik jihatdan bir-ikki tovushga koʻragina farqlanadi. Bunday soʻzlar tilshunoslikda paronimlar deb yuritiladi. Masalan: asl — asil, sado — sazo, utsishli — utsimish- li, tansiq — tsishchis, yonilgi — yoqilsh, nufuʼz — nufus, oro — aro (ora), qayda — qaydam, bola — balo, xayol — xiyol, afzal — abzal, maʼkul — maqol, tip — tif, shox — shoh, taxlit — tak/iug, taxrir — max,l.il, nogiron - nigoron, murojaat — munojot, maʼnaviy - maʼnoviy kabi. Bunday soʻzlarni nutqqa olib kirishda juda ham xushyor bulish, soʻzning maʼnosiga aloxida eʼtibor berish zarur. Ularning biri oʻrnida ikkinchisini qoʻlash bayon qilinayotgan fikrning boʻzilishiga, juda boʻlmaganda, yanglish anglanishiga olib keladi. Aniq nutq yoʻzaga kelmaydi, fikrning aniqligi va ravshanligi tamoman yukoladi.

Badiiy nutqda qoʻllangan paronimlarning maʼnosi bir- biridan qanchalik yiroq, bir-biriga qanchalik qarama-qarshi boʻlsa, ekspressivlik shunchalik aniq va kuchli boʻladi. Chunki ohangdosh soʻzlarning maʼnosidagi farklilik karama- karshilik

solishtirishni ko'tilmaganlik darajasiga olib chiqadi, ular o'rtasidagi kontrastlikni behad kuchaytiradi. Masalan, qabr — qasr paronimik juftligida so'zlarning ma'nosida konkret qarama-qarshilik mavjud. Ular ifodalagan tushunchalarni bir-biri bilan yonma-yon kuyish ham bir qadar notabiiy. Bu so'zlarni she'rda yonma-yon quyish esa kuchli ekspressivlikni yo'zaga keltiradi, chunki so'zlar o'zaro ohangdosh, ma'no jihatidan esa qarama-qarshi ekanligi aniq ko'rinib turadi:

Nabilar, rasullar, dohiylar unda,

Qabrlar, tsasrlar turgandir qator

(A.Oripov, "Ona sayyora" she'ri).

Mazkur holatni mana bu misolda ham ko'rish mumkin: Bolasi yuklap bolaga qiziqadi. Lekin bolaning balo bo'lgan i ham bor... (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani).

Aniq nutq to'zish uchun qo'llanilishi chegaralangan so'zlarning ma'nolarini etarli darajada bilish bilan bir qatorda ularning ishlatilish o'rinlarini ham aniq tasavvur etish zarur.

Tilimizdagi so'zlarning barchasi ham qo'llanish kulami jihatidan bir xil emas. So'zlarning aksariyati nutqda keng, faol qullansa, ayrimlari juda kam, nafaol qullanadi. Hozirgi til nuqtai nazaridan ba'zi so'zlarda eskilik buyoBI mavjud bo'lgan ligi uchun ular "eskirgan so'zlar" nomi bilan yuritiladi. Ana shunday eskirgan so'zlar nafaol qo'llanuvchi so'zlar sirasiga kiradi.

So'zlarning eskirishi, ya'ni bugungi adabiy til nuqtai nazaridan eskilik buyog'ini olishi turli sabablar bilan voqe bo'lishi mumkin. So'zlar, asosan, o'zi anglatgan tushunchalarning butunlay yuqolib ketishi sababli yoki boshqa so'zlarning sikuvi, "tazyiqi" bilan faol qo'llanishdan chiqib, eskirib qoladi. Birinchi holatda tushunchaning o'zi yuqolib ketgani uchun uni ifoda etgan so'z kishilarning faol lug'atida keraksiz bo'lib koladi. Ikkinchi holatda esa muayyan tushunchaning ifodasi bo'lgan so'zning o'rnini shu tushuncha ifodasi uchun yana ham qulayroq bo'lgan bopshcha so'z olishi natijasida oldingi so'z faol lug'atdan o'z-o'zidan chiqib ketadi. Tilshunoslikda birinchi sabab bilan eskirgan so'zlar istorizmlar, ikkinchi sababga ko'ra eskirgan so'zlar esa arxaizmlar deb yuritiladi.

Istorizm va arxaizmlar muayyan talab va maqsad bilan nutqda qo'llanadi. Istorizmlar o'zoq utmish voqeligi haqida gap borganda, usha davr tushunchalarini nomlash maqsadida nutqda olib kiriladi, chunki ular o'sha tushunchalarning yagona nomidir, hozirgi tilda uning mukobili yoki sinonimi yuq. Shuning uchun istorizmlar badiiy bo'lmagan har qanday nutq ko'rinishida ham, badiiy nutqda ham mazkur maqsad bilan qo'llanaveradi. Ular tarixiy davrni real tasvirlash zaruriyati bilan ishlatiladi. Masalan: Har bir mingboshiga o'ntadan, har bir aminga ikkitadan, har bir ellikboshiga bittadan yaroqlik yigit beradigan bo'lishibdi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Haram doirasi bukun shovqin-suronsiz edi. Podshoxring bir-biriga yaqin, lekin ayrim-ayrim saroylarda yashagan xotinlari shoh xonadoniga mansub bir shahzodaning tuyiga ketishgan edi. Aksar qizlar — kanizaklar sultonning sevikli xotini Xadichabegimni ko'zatib borgani uchun "Bori safid'da, agar oqsochlar hisobga olinmasa, yigirma choqli ayol qolgan edi (Oybeq "Navoiy" romani).

Arxaizmlarning esa hozirgi tilda, albatta, sinonimi mavjud bo'ladi. Ana shuning uchun ham arxaizm ishtirok etgan sinonimlar katoridan estetik va kommunikativ maksadan kelib chiqqan holda yo arxaik so'z, yoki hozirgi tilga oid so'z nutqqa tanlab olinadi. Tabiiyki, arxaik so'z muayyan estetik vazifa uchun xizmat qiladi. Bu, albatta, badiiy nutqda alohida qimmatga ega. Nobadiiy nutqda arxaizmlarni ishlatishda ma'lum bir me'yorni saqlash lozim, ularning keragidan ortiq ko'p bo'lishi nobadiiy nutqni chuchmallashtiradi yoki tushunilishini qiyinlashtiradi.

Badiiy nutqda arxaizmlar, avvalo, davr ruhini, tarixiy sharoitni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Bu holat tarixiy mavzulardagi asarlar tilida ko'p ko'zatiladi. Bunday o'rinlarda arxaizmlar ham xuddi istorizmlar bajargan vazifani bajaradi. Quyidagi misollarda totiq (jazo), ilik (qo'l), taqya (do'ppi) arxaizmlariga e'tibor qiling: Otabek ularning totiqclarini xo'p boplab berdi (A.Qodiriy, "O'tgan kunlar" romani). Iliq o'z o'rnida aziz. Ko'z o'z o'rnida mu'tabar. Agar ko'z bilan iliq bir-biri bilan nizo qilsa, bundan har ikkisi jabr ko'rar (P.Kodirov, "Yuldo'zli tunlar" romani).

Qo'llanilishi chegaralangan so'zlarning yana bir guruhi kasb-hunarga oid so'zlardir. O'lkamizda qadim zamonlardan beri duradgorlik yogochsozlik kulolchilik naqqoshlik zargarlik zardo'zlik temirchilik kashtachilik to'qimachilik poyabzaldo'zlik kabi xilma-xil kasb-xunar tarmoklari tarakdiy topib kelmokda. Albatta, bu sohalarga oid tushunchalarning aniq atamasi bo'lgan ko'plab so'z va birikmalar mavjudki, ular tilshunoslikda kasb-xunar leksikasi nomi bilan umumlashtiriladi. Bu leksika, tabiiyki, mazkur sohalardagi jarayonlarni tasvirlaganda faol qo'llanadi. Ta'kidlash joizki, mazkur kasb-hunar sohalari u yoki bu darajada xalqning kundalik hayoti bilan bog'liq. Aytayliq arra, tesha, bolta, randa, parma kabi bir qancha so'zlar duradgorlikka oid bulsa-da, o'lar kundalik hayotda ishlatiladi, demakki, bu so'zlar nutqiy muloqotda anchayin faol qullanishi tabiiy. Ammo kasb-xunar sohalari yurtimizning turli hududlarida mavjudligi hisobga olinsa, ularga oid so'zlarda sezilarli shevaviy farqlar bo'lishini ham tasavvur etish mumkin. Masalan, Farg'ona, Toshkent, Samarkand, Buxoro shevalaridagi g'ulabur arra, dastarra, iskana, parma, bolg'a, andova, qirg'ich kabi so'zlar bilan ifodalangan duradgorlik qo'ruvchilik predmetlari Xorazm shevasida yorg'i, bichqi, qachov, burov, cho'kich, yulmola, siyxoh kabi so'zlar orqali ifodalanadi.

Qo'llanilishi chegaralangan so'zlarning yana bir katta guruhi terminologik leksikadir. Terminlar muayyan bir ilmiy yoki texnik tushunchaning yagona nomi sifatida nutqning aniqligini ta'minlashda behad muhim ahamiyatga ega bo'lgan so'zlardir. Aniklik talabi nutq uslublarining barchasiga kuyilsa-da, bu talab ularning hammasida ham bir xil darajada bo'lmaydi. Ayni talab rasmiy, publitsistik va ilmiy uslublarda alohida salmoq kasb etadi. Ayniqsa, ilmiy uslubda aniklik sifati birlamchi va bosh talab sifatida qaraladi. Ilmiy nutqning aniq va ravshan bo'lishi har Qanday fan rivoji uchun xal qiluvchi ahamiyatga molik bo'lgan zaruriyatdir. Ilmiy nutq aniqligining asosiy ustunlari- dan biri esa, shubhasiz, terminlardir. Har qanday ta'limning bosh maqsadi muayyan fan asoslarini o'quvchi ongiga joylashtirish ekan, ta'lim jarayonida, xususan, uqituvchining nutqiy faoliyatida terminlarning o'rni benihoya kattadir. Fanni chuqur bilmasdan to'rib, uning terminlarini etarli darajada bilish mumkin emas. O'z fanini mukammal

biladigan o'qituvchi bu fanga oid terminlarning ma'no-mohiyatini tula biladi, demaq o'z nutqida ularni o'rinli qo'llashda yanglishmaydi, u yoki bu terminni noto'g'ri ishlatib, o'quvchisini ham adashtirmaydi. Aytish mumkinki, terminni yanglish qo'llashning bosh sababi o'qituvchi yoki mutaxassisning fanni yaxshi bilmasligidan boshqa narsa emas.

Adabiyotlar:

1, 2, 3, 13, 16, 21, 23

Tayanch so'z va iboralar:

1. arxaizmlar
2. ilmiy uslub
3. termin
4. sinonim
5. Istorizm
6. Polisemiya
7. leksik ma'no

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutqning aniqligi deganda nimani tushunasiz?
2. Nutqning aniqligini bo'zuvchi vositalar qanday bo'lish kerak?
3. Nutqning aniqligi bo'zilgan matnlar bilan ishlash.

4-mavzu: Nutqning mantiqiyligi

Reja:

- 1.Narsa va tushuncha mantiqiyligi**
- 2.Nutq mantiqiyligiga zid holatlarda**
- 3.Matn to'zilihi va nutq mantiqiyligi**

Mantiqiylik nutqning tinglovchi tomonidan to'g'ri va to'liq anglanishi uchun zaruriy bo'lgan sifatlardan biridir. Mantiqiylikdan maxrum bo'lgan biron-bir nutq kishilar o'rtasidagi tayinli aloqani ta'minlay olmaydi. Nutqning mantiqiyligini tug'rilik va aniklik sifatlaridan ajralgan holda ham tasavvur etib bo'lmaydi, chunki tug'ri va aniq bo'lmagan nutq hech qachon mantiqiy bo'lishi mumkin emas. Zotan, tug'ri va aniq bo'lmagan nutqdan mantiqiylikni izlab topib bo'lmaydi. Adabiy til

me'yorlariga zid tarzda to'zilgan va tegishli birliklar noo'rin tanlangan nutqda mantiq begona bo'lishi tabiiy.

nutq to'zuvchi nutqning mantiqiylikligiga erishishi uchun til birliklarining sintagmatik (qo'shilish) imkoniyatlarini yaxshi bilishi lozim. Lekin buning o'zigina etarli emas. So'zlovchi (yozuvchi), eng avvalo, bayon etmoqchi bo'lgan fikrini, bildirmoqchi bo'lgan xabarini va u bilan bog'liq tafeilotlarni, ayni paytda mantiq konuniyatlarini etarli darajada tasavvur etmas ekan, u mantikdi nutq to'za olmaydi. Bu o'rinda nutq to'zuvchining tafakkur qobiliyati juda-juda muhimdir. Ko'rinadiki, nutqning mantiqiy bo'lishida ham lisoniy, ham g'ayrilisoniy omil ishtirok etadi.

Mantiqiylik nutqning maqsad nishoniga bexato etishini, bu nishonni ortiqcha o'rinishlarsiz zabt etishini ta'min etadigan sifatlardandir. Mantiqiy nutq fikr tarkibini to'g'ri va aniq aks ettirishi bilan ta'sirchanlik kasb etadi, ayni paytda u tinglovchi idrokini zuriqtirmaydi. Har qanday mantiqiy fikr qanchalik murakkab bo'lmasin, nutq to'zuvchining mahoratli ko'magi bilan o'ziga loyiq va yarashikli, demakki, mantiqiy libosini kiya bilsa, tinglovchi shuuri uni osonlik bilan o'z bag'riga oladi.

Maktab ona tili ta'limida o'quvchilarda bog'li nutq malakalarini shakllantirishga, ijodiy va mustaqil matn to'zish kobiliyatini o'stirishga katta e'tibor beriladi. Bu malaka va qobiliyatlarning tarkib topishi va rivojlanishini mantiqiy nutq tushunchasiz tasavvur ham etib bo'lmaydi. Mantiqiy nutq to'zish bog'li nutq to'zish, ijodiy matn yaratishning birlamchi asosidir. Buni, qaysi fandan dars berishidan qat'i nazar har bir o'qituvchi hamisha yodda tutmog'i lozim.

Mantiqiy nutq to'zish uchun so'zlovchi fikr predmetini atroflicha bilish, mantikiy tafakkur qoidalaridan boxabar bo'lish kabi g'ayrilisoniy talablar bilan bir qatorda til birliklarining leksik-semantik mohiyati, ularning sintagmatik xususiyatlari kabi lisoniy bilimlarni ham nazardan qochirmasligi kerak. Aytayliq so'zlarning jumla tarkibida mantikdy-mazmunliy zidaiyatsiz birika olishi, mantiqqa uyg'un qo'llanishi uchun ularning leksik-semantik mohiyatini etarli darajada bilish lozim.

Bir-biriga mantikan tamoman zid, qarama-qarshi bo'lgan , shuning uchun o'zaro alokalanirishishi mumkin bulmagan tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni jumlada munosabatga kiritish natijasida mantiqiylik bo'zish, hatto kulgili holatlar yo'zaga chiqishi ham ba'zan ko'zatiladi. Masalan, "qiyalik" va "chuqurlik", "chuqurlik" va "balandlik" kabi tushunchalar bir-biriga zid yoki, kamida, biri ikkinchisiga nisbatalanmaydigan tushunchalardir. Shuning uchun ham qiyalikning chuqurligi, chuqurlikning balandligi, chuqurlikning o'zunligi kabi birikmalarda mantiq sog'lom emasligi anik. Hech bo'lmaganda, chuqurlik degani "satxdan pastlik", balandlik esa "satxdan yukorilik" ekanligi tasavvur etilsa, bu ikki so'zni ko'shish mantiq muvozanatini qanchalik bo'zishi va kulgiga sabab bo'lishini anglash qiyin emas. Bunday mazmunliy nosog'lom birikmalar qo'llangan ushbu parchada nutqning mantikiylikligi haqida gapirib bo'lmaydi: O'zbekiston geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi bergan axborotga ko'ra, meteoritning qulashi shu qadar kuchli bo'lgan-ki, uning natijasida elliptik shakldagi qiyalik paydo bo'lgan. Qiyalikning chuqurligi taxminan 40 metrni,

o'zunligi 10 kilometrni, eni 7 kilometrni tashkil etadi. Yo'zaning shimoli-g'arbida balandligi 60 metr va o'zunligi 1 kilometr bo'lgan chuqurlik paydo bo'lgan ("Darakchi", 2006 yil 24 avgust).

Ba'zan uyushiq bo'laklarni qo'lashdagi mantiqiy-mazmunliy xatoliklar tufayli ham nutqning mantiqiylikiga putur etishi ko'zatiladi. Bir xil harakat-holat, belgiga mantiqan ega bo'lishi mumkin bo'lmagan narsa-hodisalarni ifodalovchi so'zlar uyushiq bo'laklar tarzida qo'llanadi va narsa-hodisalarning biriga nisbatlanishi mumkin bo'lgan harakat-holat, belgi ularning barchasiga tegishli bo'lib qoladi. Buning natijasida jumlada mantiq bo'ziladi. Masalan, ushbu jumлага diktat qilaylik: Buldozer, "Zil" avtomashinamiz miltiqning o'qiday uchadi ("O'zbekiston ovozi", 2006 yil 20 iyun). Jumlada buldozer va "Zil" avtomashinamiz so'zlari bilan ifodalangan egalar uyushik holatda qo'llangan. Ular bildirgan narsalarning har ikkalasiga xam kesim vazifasidagi uchadi so'zi ifodalagan harakat nisbatlangan. Holbuki, buldozer bu harakat (buning ustiga, miltikning o'qidayni) bajarishga mantiqan qodir emas, u "uchish" u yokda tursin, hatto tez yura olmaydi. Ayni shu o'rinda mantiq muvozanati bo'zilgan.

Nutq mantiqiy bo'lishi uchun fikrning ifodalanishiga zaruriy bo'lgan so'zlarning barchasi jumlada ishtirok etishi lozim. Ixchamliq qisqaliq lundalikka keragidan ortiq intilib, ba'zi so'zlarning tushirib qoldirilishi nutqdagi mantiqiylik sifatining izdan chiqishiga olib keladi. Mana bir misol: Tarbiyachi: Bolajonlar, endi urgangan so'zla- ringizni bir chizib beringlar-chi? deb vazifa topshiradi. Bolalar qalam va daftarlarini olib, chiza boshlaydilar (S.Jo'raev, X.Qodirov)- Oddiy mantiqqa ko'ra, so'z chizilmaydi, balki yoziladi, rasm esa chiziladi. Mazkur jumlada ham rasm chizish haqidagi fikr aytilmoqchi. Aslida bu fikr ifodasi uchun Urgangan so'zlaringiz ifodalagan narsalarning rasmini chizib bering tarzida jumla kurilishi kerak edi. Ehtimolki, nutq to'zuvchi ixchamlik maqsadi bilan bir necha so'zni tushirib qoldirib, o'z nazdida shaklan ixchamlikka erishsa erishgandir, lekin mantikda jiddiy putur etgan. Mantiqning mujmalligi, nodurustligi hisobiga yo'zaga keladigan ixchamlik yoki lundalik nutqiy aloqa uchun aslo foydali emas, balki tamoman zararlidir.

Muayyan bir so'zning tushirib qoldirilishi ham nutqdagi mantiq muvozanatining yaxshigina bo'zilishiga olib kelishi mumkin. Gapda so'zlar tartibining tug'ri, tilning sintaktik tabiatiga uyg'un bo'lishi mantiqiy nutq to'zishda jiddiy ahamiyatga molikdir. So'z tartibidagi nuqson jumlada ifodalangan fikrning mantiqan yanglish yoki ikki yoklama anglanishiga sabab bo'ladi. Masalan: Loqaydlik tufayli ko'rsak ham indamaymiz ("Xurriyat", 2006 yil 24 may). Bu jumladagi so'z tartibidagi saktalik sabab fikr ikki xil tushunilishi mumkin, ya'ni "loqaydlik tufayli ko'rish" (bu, albatta, mantiqqa zid) va "loqaydlik tufayli indamaslik". Aslida ifodalanmoqchi bo'lgan fikr ularning ikkinchisi. Jumladagi so'z tartibi Ko'rsak ham loqaydlik tufayli indamaymiz tarzida to'zilsa, mantiq o'zining tug'ri ifodasini topadi.

Nutqda mantikdy bog'likni tug'ri ifodalash uchun tildagi funktsional-sintaktik bog'lovchi vositalar bilan bir qatorda jumlarlar va abzatslar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlarni aniq tasavvur etish lozim, aks holda nutqning man- tiqiylikini ta'minlab bo'lmaydi. Ta'kidlash lozimki, mantiqiylik sifati nutqning barcha

ko'rinishlari uchun xosdir, ammo bu sifat, ayniqsa, ilmiy uslubda favqulodda ayrica ahamiyat kasb etadi. Mantiqiylik ilmiy nutqning mohiyati bilan bog'liq sifatdir. Zotan, ilmiy tafakkur va ilmiy bayon mantiq qonuniyatlariga muntazam tobelikdagi faoliyat sifatida yashab keladi.

Badiiy nutqda mantiqiylikka quyiladigan talablar tamoman o'ziga xosdir. Albatta, bu badiiy adabiyotning obrazli tafakkur maxruli ekanligi bilan aloqadorligini har kim biladi.

Umuman, nutqning mantiqiyligi fikr rivojining izchilligi, tushunchalar va fikrlar o'rtasidagi munosabatlarning mantiqiyligi, nutq predmetining aniqligi, fikr libosining fikrga majburiyatsiz loyqligi asosida yo`zaga keladi. Mantiqiylikdan maxrum bo'lgan matn nutqiy muloqot uchun yarashiqsiz va mutlaqo yaroqsizdir.

Adabiyotlar:

1, 4, 6, 17, 19, 27, 30

Tayanch so`z va iboralar:

1. Mantiqiylik
2. Badiiy nutq
3. Ixchamlilik
4. Qisqalik
5. Lo`ndalik
6. Muloqot
7. Til birliklari
8. Narsa va tushuncha

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutqning mantiqiyligi deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday vositalar nutqning mantiqiyligini bo`zadi?
3. Nutqning mantiqiyligi bo`zilgan matnlar bilan ishlash.

5- mavzu: Nutqning sofligi

Reja:

1. Adabiy til me'yorlari
2. Nutqni sofligiga putur yetkazuvchi unsurlar
3. Nutqni sofligi va badiiy asarlar

Har qanday narsaga baho berilganda, avvalo, uning asilligi, boshqa keraksiz unsurlardan xoliligi, o'z mohiyatiga muvofiq toza tarkibga egaligi kabi me'yorlardan kelib chiqiladi. Soflik sifati nutqning ana shunday baholash me'yorlaridan hisoblanadi. Aytish lozimki, nutqning bu kommunikativ sifati nutq bilan adabiy til va nutq bilan jamiyat munosabatida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra nutqning sofligini nutqning adabiy til me'yorlariga va jamiyatdagi ma'naviy-axloq qoidalariga yot bo'lgan unsurlardan xoliligi bilan belgilanuvchi kommunikativ sifat tarzida ta'riflash mumkin. Aytish joizki, kishi nutqining sofligi uning ma'naviy-ma'rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko'rsatkichlardan biridir.

Adabiy nutqning sofligiga putur etkazuvchi unsurlarning asosiylari sifatida Quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq: 1) shevaga xos so'z, ibora, grammatik shakllar, ypg'y va talaffo'z; 2) o'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari (varvarizmlar); 3) jargon va argo- lar; 4) dag'al, haqorat so'z va iboralar (vulgarizmlar); 5) "ishlamaydigan" yoki parazit so'zlar; 6) idoraviy so'z va iboralar (kantselyarizmlar) va sh.k. Nutq to'zuvchi o'z nutqining sofligi haqida qayg'o'rar ekan, albatta, mazkur unsurlarni qo'llashdan tiyilishi lozim.

Ma'lumki, shevaga xos so'zlar adabiy tilning leksik me'yorlaridan tashqarida, shuning uchun ham uning nutqda ishlatilishi soflik sifatining bo'zilishiga olib keladi. Bu esa hatto nutqning tug'ri tushunilishiga ham xalaqit beradi. Masalan, Dasturxonga sumalak halisa, holvaytar va turli shifobaxsh ko'katlardan tayyorlangan somsalar tortiladi (S.Jo'raev, H.Qodirov) gapida Buxoro shevasiga xos bo'lgan halisa so'zining qo'llanishi nutqning sofligini bo'zgan, tabiiyki, bu so'zni boshqa sheva vakillari tushunmasligi ham mumkin. O'zbek adabiy tilida esa bu so'zning muqobili halimdir. Ayni paytda ta'kidlamoq joizki, badiiy adabiyot tili mutlaqo o'ziga xos nutq uslubi sifatida shevaga xos so'z va boshqa birliklarning muayyan maqsad bilan qo'llanishiga imkoniyat yaratadi. Sheva so'zlari va grammatik shakllari, ya'ni dialektizmlar badiiy nutqda aniq estetik vazifani ko'zda tutgan holda qo'llanadi. Ta'kidlash kerakki, dialek tizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me'yor, qanday ishlatilishi va aynan qanday turlarining tanlanishi bilan ham bog'likdir. Badiiy asar tilida xam dialektizmlarning me'yoridan ortik darajada bo'lishi asarning estetik qimmati va ta'sir kuchini pasaytira- di, asar tilining sofligiga, ravonligiga putur etkazadi.

Dialektizmlarni badiiy asar tiliga olib kirish o'ziga xos badiiy-poetik usuldir. Bu usul, albatta, dialektizmlar bilan adabiy til me'yorlarining munosabatiga asoslanadi, Ana shu munosabat asosida adabiy tilga oid so'zlar (va shakllar) bilan qarshilantirilgan dialektizmlar alohida estetik qimmat kasb etadi. Xususan, ular mahalliy koloritni kabarik tasvirlash, asar qahramonlarining nutqiy tavsifini berish uchun o'ziga xos imkoniyat yaratadi. Ayni paytda ular nutqiy ekspressiya, ifodalilik uchun ham xizmat qiladi.

So'z leksik dialektizm sifatida badiiy nutqda ishtirok etar ekan, adabiy tilda bu so'zning sinonimi mavjud bo'lishi mumkin. Bunda dialektizm adabiy tildagi so'zlar bilan semantik va stilistik jihatdan qarshilantirilishi natijasida mahalliy koloritning muhim qirralarini o'zida aks ettiradi. Masalan: Men buvimdan beruxsat mehmon chaqirmayman (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Ma, bacham,

choy- ni o'zing qaytar (O.Muxtor, "Yillar shamoli" romani). Birovi "aba" deb mani chaqirmish (H.Sa'dulla, "Onaizor" she'ri). Muhammad Rahimxon qattiq kasalmish, ulli-ulli tabiblar ham kasalining davosini topolmayotganmish (J.Sharipov, "Xorazm" romani). Bu jumalardagi buvi (ona) Andijon-Farg'ona shevasiga, bacham (bolam) Buxoro shevasiga, aba (ona) Namangan shevasiga va ulli (katta, ulug') Xorazm shevasiga xos so'zlar bo'lib, ular kitobxon dikqatini o'ziga jalb etadi va tegishli hududlarga oidlikni alohida ta'kidlaydi.

Ba'zan adabiy tilda dialektal so'z ifodalagan tushunchani bildiradigan bir so'zdan iborat atama mavjud bo'lmaydi. Bu tushunchani ifodalash uchun bir necha so'zdan iborat tavsifdan foydalanishga tug'ri keladi. Bunday holatlarda yozuvchi mazkur dialektizmning o'zini ishlatib kuya qoladi. Ana shu tariqa ham nominativ, ham uslubiy maqsadga erishiladi. Tabiiyki, bunda muayyan mahalliy kolorit yorqin namoyon bo'ladi va, demaq dialektizm o'zining estetik vazifasini ham bajaradi. Masalan, Farg'ona shevasida qurigan jo'xoripoyaning bir bo'g'imini bo'riq deyishadi: ...Tor ko'prikning ustida bo'riq yotgan ekan, shuni tepib zovurga tushirmoqchi bo'lganimda, ikkala oyog'im kutarilib ketdi, shekilli, yiqildim (AQahhor, "Utmishdan ertaklar" qissasi).

Dialektizmlarning ekspressivligi ma'lum darajada ularning qo'llanish o'rni, ya'ni asarning qaysi qismida, personaj nutqidami, muallif nutqidami, manzara tasviridami va h.q. qo'llanishi bilan ham bog'liq. Masalan, badiiy asarning nomida qullangan dialektizm alohida va yorqin ekspressivlikka ega bo'ladi. Ularning ma'nosi bir so'z doirasidan chiqib, o'zida ramziy bir umumlashmani paydo qiladi. Ulkan so'z ustasi A.Qahhor qissalaridan birini "Sinchalak" deb atagan. Ma'lumki, sinchalak Farg'ona shevasiga xos so'z bo'lib, uning adabiy tildagi muqobili chittak so'zidir. Andijon shevasida uning jinqarcha tarzidagi muqobili ham bor (Jinqarchaday hamma vaqt va har qayda ko'rinib qoladigan bu "asl mingboshi"ga salom bermoqdan bellaringiz toladi. Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Ammo bu uch so'z semantik-uslubiy jihatdan bir-biri bilan aynan teng emas, ular muayyan ma'no nozikliklari va shunga ko'ra ekspressivligi bilan farqlidir, Sinchalak so'zining ma'no strukturasida bu so'z ifodalagan kushning noziklik nimjonlik belgisi asosiy o'rinda turadi (Bu so'zning kelib chiqishi shevadagi sinchaloq (adabiy tilda jimjiloq) so'zi bilan aloqdor. Andijon shevasida: Birdaniga tilla o'zukni o'z ko'zi oldiga olib bordi, u yoq-bu yog'ini aylantirib xo'p qaragandan keyin sekingina ko'l o'zatib, uni Umrinisobibining sinchalag'iga kigizib kuydi. Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Chittak so'zida bu kushning bir joyda turmasliq kunimsizlik belgisi, jinqarcha so'zida kichiklik va keraksiz serharakatlik belgisi bo'rtib ko'rinib turadiki, bu holat ayni so'zlar metaforik qo'llanadigan bulsa, ma'lum ma'noda salbiylik buyog'ining yo'zaga chiqishiga olib keladi. Shuning uchun ham tilni behad nozik tushungan yozuvchi asarning bosh qaxramoniga, o'zi alohida muhabbat bilan tasvirlagan tinchimas va g'ayratli ayolga nisbatan metaforik ifoda sifatida adabiy tilga xos chittak so'zini emas, balki shevaga xos bo'lgan sinchalak so'zini ko'llagan (Qissaning tarjimoni atoqli rus yozuvchisi K.Simonov ham buni juda yaxshi anglagan. Shuning uchun asarning nomini ruschaga adabiy tilga oid sinitsa so'zi bilan emas, balki ptichka-nevelichka

birikmasi bilan mohirona tarjima qilgan). Ana shu tarzda sinchalak dialektizmi konkret estetik qimmat kasb etgan.

Badiiy asarda kaxramonlarning nutqiy tavsifini, tasvirlanayotgan xududga xos mahalliy koloritni yaratish va ekspressivlikni yo`zaga keltirish kabi maqsadlar bilan, asosan, muayyan sheva uchun eng xarakterli bo`lgan dialektizmlarnigina qo`llash etarli hisoblanadi. Albatta, dialektizmlarni badiiy nutqda qo`llashning turli yullari, usullari bor. Ayrim hollarda dialektizm qo`llanadi-da, agar u keng kitobxonlar ommasiga etarli darajada tushunarli bulmasa, sahifa ostida bu so`zga izoh beriladi. Masalan: Zumrad: "Ayollar noziq ular ...yo`z kilo paxta joylangan qopni ko`tarib, o`smasak bo`lib qolish uchun yaratilmagan!" — deb aytdi (O.Muxtor, "Yillar shamoli" romani). Sahifa ostida o`smasak dialektizmiga izoh berilgan: "Nogiron" demoqchi. Buxoro shevasi.

Ba`zi hollarda esa matn ichida dialektizm adabiy tilda mavjud bo`lgan sinonimi bilan yonma-yon holatda keltiriladi. Masalan: Mexryunxonaning devorlaridan biriga shoti — narvon kuyilgan (I.Sulton, "Istehkom" pesasi). Shu sulfayu yutal mani axir xarob qildi (N.Aminov, "Elvizak" qissasi). Ko`rinib turganiday, birinchi misoldagi shoti dialektizmi adabiy tildagi narvon so`zi bilan yonma-yon keltirilgan va bu dialektizm mahalliy kolorit (Farg`ona) ifodasi uchun xizmat qilgan. Ikkinchi misolda esa sulfa so`zi dialektaldir (u tojik tilidan utgan bo`lib, ma`nosi "yutal" demakdir). Uning adabiy tildagi yutal mukobili ham keltirilgan, ham mahalliy kolorit, ham personaj tavsifi ta`kid olgan.

Ma`lumki, ayrim shevalarda kelishiklarni almashtirib qo`lash ko`zatiladi, ya`ni bir kelishik qo`shimchasi o`rnida boshqasi ishlatiladi. Bunday qo`lashlar, ya`ni grammatik dialektizmlar badiiy nutqda qahramon nushchini xarakterlovchi yordam vositalardan biridir (bunda ular bilan bir qatorda dialektal so`zlar ham ishtirok etishi mumkin). Avvalo, grammatik dialektizmlar adabiy tilning grammatik me`yorlaridan tashqarida bo`lganligi uchun kitobxon diqqatini o`ziga tez jalb qiladi, o`quvchiga g`ayritabiiy tuyuladi. Grammatik dialektizmlar ayni shu g`ayritabiiyligi bilan estetik assotsiatsiyalarni paydo qiladi, nutqning xududiy mansubligini osonlik bilan ta`kidlaydi. Masalan: Sizning Toshkentingizga Toshxon, Toshbibi degan ayollar bormi? Bale, bizning Buxor tiliga Sangcha degani Toshkent tilit Toshcha degani. Onalari "Boshing toshdan bo`lsin, do`xtarim", deb shunaqa ism kuyadilar. Oyti degani asli Oytuta degani. Bu Oyxola degan ma`no beradi, o`rislarning "tyota" degan so`zi ham shundan olingan bo`lishi kerak. Sizlar erkaklarni "mulla aka" deysizlar, biz "akamullo" deymiz, "opamullo" deymiz. Do`xtir opaning ismi dokumentga boshqacha. Ya`ni Istat Fo`zaylovna. Tushundingizmi? (S.Ahmad, "Azroil o`tgan yillarda" hikoyasi).

Har bir shevaning o`ziga xos fonetik qonuniyatlari mavjud. Shunga ko`ra u yoki bu sheva vakili adabiy tildagi so`zlarni ham ko`pincha nutqa e`tiborsizlik tufayli ana shu qonuniyatlarga mos tarzda talaffo`z qiladi. Talaffo`zdagi ana shunday shevaga xos farqli holatlarning adabiy asar tiliga kiritilishi muallifning personajni individuallashtirish, turmush tarzi, mahalliy muhit va turli sharoitlarni badiiy ishonchli va etnografik aniq, real tasvirlash kabi maqsadlari bilan o`zviy bog`langan bo`ladi. So`zlar talaffo`zidagi bunday kichik farqliliklar badiiy asarda juda katta ekspressiv vazifani bajaradi. Bunday fonetik dialektizmlar, asosan,

Personaj nutqida qo'llanadi. Albatta, ular dialektizmlarning boshqa turlariga qaraganda badiiy nutqda erkinroq ishlatiladi, chunki talaffo'zdagi u qadar katta bo'lmagan bunday farqlar keng kitobxonlar ommasining (ular qaysi sheva vakillari bo'lishidan qati nazar) bu so'zlarni erkin tushuna olishiga aslo xalaqit bermaydi. O'quvchi bu dialektizmlarning ekspressivligini, estetik qimmatini aniq seza oladi. Misollar: Shunaqa ekanmi? Voy tuvva-ey! Xalfa eshonning qizi chaqirtirgan ekanmi? Voy tuvva-ey!.. — deb uning eng qitit keladigan joylariga chang solishardi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Ilgari noyib turaning mamilasini, sizga nimalar deganini gapirib bering (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Bumam, birga ishlashar ekanmiz (Sh.Xolmirzaev, "So'nggi bekat" romani). Onam qal'adan galdimi? — deb so'radi (J.Sharipov, "Xorazm" romani).

Dialektizmlar, ko'rib o'tilganiday, badiiy nutqda kattagina estetik vazifani bajaradi, ammo bunda muayyan me'yorni saqlash, imkon qadar qo'shimcha izoh talab qilmaydigan, o'quvchi umumiy kontekstdan ma'nosini tushunib olaveradigan dialektizmlarni ishlatish maqsadga muvofiq.

O'rinsiz qo'llangan chet birlik ya'ni adabiy til me'yorlariga kirmagan so'zlar, birikma va iboralarning nutqqa kirib qolishi, shuningdek boshqa til sintaktik qoliplari asosida jumla to'zish nutqning sofligini bo'zishi tabiiy.

Atoqli adib Fitrat o'zining "Adabiyot qoidalari" asarida nutqning ("uslubning") umumiy zaruriy sifatlari ("hollari") tarzida to'g'rilik ("to'zlik"), aniqlik ("ochiqlik"), soflik kabilarni taxdid etar ekan, xususan, soflikka shunday ta'rif beradi: "Uslubda soflik so'z to'zushda, gap to'zushda yotchilik ko'rsatmaslik asarda yot so'zlar yo eski onglashilmas so'zlarni kirgizmaslik yot tillarning nahviy qo'idalariga qarab gap to'zmaslikdir.

O'quvchilarning qaysilarikim, tirishmaylar o'z bilimlarini orttira olmaslar deganimizda gapning to'zulishi o'ruschaning gap to'zulishiga ergashgan, uning ta'siri bilan bo'lgandir. Buning tug'risi: Tirishmayturgan o'quvchilar o'z bilimlarini orttira olmaydilar shaklida bo'ladi."¹

Tilshunoslikda varvarizmlar deb yuritiladigan boshqa til birliklarini o'zbek tiliga o'zlashgan, adabiy tilning leksik me'yorlari sirasidan o'rin olgan chet so'zlardan farqlash lozim. Har qanday chet so'z emas, balki fakat varvarizmlar nutqning sofligini bo'zadigan unsurlar sifatida karala- di. Rus, ingliz, arab, fors va boshqa tillardagi so'z va birikmalarni o'zbekcha nutqda ishlatish, avvalo, nutqning sofligini tamoman yuqotadi, qolaversa, bunday qilish o'zbek tiligagina emas, balki ayni paytda mazkur xorijiy tillarga ham xurmatsizlikni ko'rsatadi. Ba'zi kishilar nutqlarida varvarizmlarni ko'llarkan, bu bilan o'zlarining boshqa til- larni ham bilishlarini, madaniy saviyasining yukoriligini ko'rsatgandek bo'ladi. Aslida esa bu madaniy-ma'rifiy saviyaning pastligi, tafakko'ring torligi, ma'naviyatning qashshokligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nopisandlikning ildiz otganligini namoyon etuvchi holatdir. Masalan, zvonok chalindi (ko'ng'iroq chalindi), pererivga chiqdik (tanaffusga chiqdik), zvonit qildi (kung'iroq qildi), voobshche (umuman), koroche (qisqasi), tak (xo'sh) kabi bir qancha so'z va

birikmalarning o'zbekcha nutqda bo'lishi nutq to'zuvchi til sezgisining tubanligi va ma'naviy dunyosining yuqlligini ko'rsatishdan boshqa bir ishga yaramaydi.

Bu o'rinda shuni ham aytib o'tmoq lozimki, ilmiy va ilmiy-ommabop matnlarda misol, dalil sifatida boshqa tillardagi manbalardan fikrning aniqligi, ishonchliligini ta'minash maksadini ko'zda tutib aynan olingan, iqtibos qilingan xorijiy tildagi so'z, birikma va jumlarlar varvarizm deb baholanmaydi. Bu bayon qilinayotgan ilmiy fikrning asosligini, manbaga yondashuvning xolisligini kursatishga xizmat qiladigan maqbul usul sifatida dunyoning aksar mamlakatlarida, tillarida an'ana tusini olgan. Masalan, ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" (Toshkent: O'qituvchi, 1992) **137** asarida fikrining dalili sifatida hadisi shariflarga murojaat etar ekan, oldin asl arabcha matini keltiradi, sung uning o'zbekchasini beradi: Rasuli akram nabiiyi muxtaram sallolloxu alahi vasallam afandimiz: "Xubbul-vatani minal imoni — Vatanni suymak imondandur", - demishlar... Rasuli akram nabiiyi muxtaram sallolloxu alayhi vasallam afandimiz: "Annajotu fissiddiqi — Najot rostlikdadur", — demishlar (28, 29-betlar).

Yoki, aytayliq adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda boshqa tildagi manbalar o'rganilganda, misol usha tilda, masalan, fors tilida keltiriladi va uning tarjimai beriladi. Bu, albatta, ilmning maqsadi va tadqiqot tabiatining taqozosidirki, bunday holatlarda ham nutqning soflik sifati aslo zarar ko'rmaydi. Mana Alisher Navoiyning forsiy asarlari tadqiqidan parcha: ...Yozning boshlanishi ajoyib so'z uyini va jonlantirish san'ati bilan tasvirlangan:

**Fikand otashi ayyomi sayf dar olam,
Chu barshchi oh zi anfosi oshishi shaydo**

Yozning olovini olamga tushirdi. Bu xuddi shaydo oshshch nafasidan chaqilgan chaqmoqday edi).

Bu baytda "sayf" ikki ma'noli: 1) yoz va 2) qilich. Shu bois qilich va olov, qilich, olov va chakryuq shchyoslab olinib, chiroyli tasvir hosil qilingan. Ya'ni yozning otashi qilich dami — chakryushchay tushdi. Bu issiklik shiddati oshiq ohining shiddatini eslatadi.

Tilshunoslikka oid ilmiy ishlarda ham bunday holat ko'zatiladi: Ot oborot (substantivnuy oborot) deb rus tilida ikki hodisa ko'rsatiladi: a) ajratilgan moslashmaydigan sifatlovchi, b) ajratilgan izoxlovchi. Ajratilgan moslashmaydigan sifatlovchi yakka so'z shakl bilan ham, birikma bilan ifodalanishi mumkin: Etu kashu, bez myasa i morkovi, kak mojno nazivat plovom?! O'zbek tilida sifatlovchining bunday turi yuq.

Varvarizmlar badiiy nutqda yozuvchining mahorati bilan o'ziga xos estetik vazifani bajaradigan vositaga aylanadi. Badiiy asardagi personajlarning milliy mansubligi, harakteri, ichki dunyosi, madaniy-ma'rifiy saviyasi kabi bir qator jihatlarni ta'kidlab ifodalashda varvarizmlar alohida o'rin tutadi. Albatta, varvarizmlar, asosan, ayni shu personajlarning nutqida qo'llanadi.

Ko'pincha varvarizm qahramonning u yoki bu millatga mansubligini ta'kidlash uchun xizmat qiladi. Masalan: Miryokub biroz dovdiranib xonimning yoniga o'tdi.

Mumkinmi, xonim?

Xonim ko'zi bilan yonidan joy ko'rsatdi:

Pojalyusta... (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani).

Ma'lumki, mustaqillikkacha bo'lgan davrda obed, tolko,

rovno, prostoy, pryamo, tak kabi bir qator ruscha so'zlar keksayu yoshning jonli so'zlashuv tiliga kirib ketgan edi. Tabiiyki, bu so'zlar o'zbekcha talaffo'z bilan aytilgan. Ular varvarizmlar sifatida badiiy asar tilida usha davr ruhini biroz yumoristik fon bilan aks ettirishga yordam beradi. Quyidagi misollarda buni ko'rish mumkin: Sangcha chiqib ketar ekan, "Bilib kuyinglar, bolakaylarim, televizorni rovna soat o'nda o'chirib ketaman", dedi... Men unaqa mashxur odam emasman, po'ristoy polvonman, xolos... Tandirdan yangi o'zilgan, ushlagan kulni kuydiradigan moyli patirni shirchoyga turrab egan odam prama jannatga to'tadi (S.Ahmad, "Azroil o'tgan yullarda" hikoyasi).

Ba'zan badiiy nutqdagi varvarizmlar qaxramonning ham milliy mansubligini, ham ichki dunyosini, xarakterini bir chimdim achchiq kulgi bilan ochishga xizmat qiladi. Quyidagi misolda tatarcha va ruscha varvarizmlar ana shunday estetik vazifani bajargan: Bugungi yig'inga qatnashayotgan tuman partiya komitetining ideologiya ishlari bo'yicha sekretari Fatxullin o'tirgan joyida gapga kushildi:

O'xu, tolkoviyy malay shul. Bundan otlichniy kommunist chiqqa. Ul partiya uchun atisidan kechdi. Dinsiz ekanini dokazat etish uchun kolbasa yib ko'rsatdi. Buni o'z ko'zingiz bilan ko'rdingiz. Tolko patriot kommunistgina kolbasani shulay eyishi mumkin. Bravo, bravo!.. **139**Partiya safiga fidoyi patriot kelib kushilayotganidan gorjus! (S.Ahmad, "Bukdlamun bilan uchrashuv" hikoyasi).

O'tkir so'z ustasi Sayd Ahmad "Qorako'z majnun" nomli hikoyasida dinu imonidan, tilidan tongan, onaga muhabbatdan mosuvo bo'lgan, o'zga yurtni vatan tutgan, itdan-da tuban ug'il — Burixonning o'zi anglamagan fojiasini tasvirlar ekan, uni bor-yug'i ikki marta bir jumladan ruscha gapirtiradi. Ana shu ikki varvarizm bu xudo bexabar ug'ilning butun ichki qiyofasini namoyon etishga xizmat qilgan, salmolqi estetik qimmat bilan yukungan: Ug'li uning barridan chiqishga o'rinar, ammo kampirning qoq suyaq chayir kullari uni bushatmasdi.

Nu zachem, zachem plachet, mama, vot i priexal, xvatit, xvatit, — derdi ug'li...

...Qassob shunday deb kuyning burziga pichoq tortdi.

Nu zachem, zachem? — dedi Bo'rixon. — Ved barana jalko, vse ravno ya stolko myaso ne em! U nas baranina ne edyat...

Rostdan ham shu odam mening bolammi, deb uylardi kampir... Bo'rixon uchun O'zbekistonda mustaqillik bo'ldimi, bulmadimi, baribir edi. U o'zga yurtning fuqarosi, o'zga e'tiqodning sig'indisi edi. Tug'ilgan yurtga muhabbat tuyg'usi uni tark qilganiga ko'p yillar bo'lgan. Ona tili qadim-qadim zamonlardayoq unutilib ketgan. Shumer tili qatori tumanlar orasida qolib ketgandi.

Yana shuni ham aytish kerakki, varvarizmlar badiiy nutqda engil yumoristik ruh ifodasi uchun ham qo'llanadi, bunda, aytayliq ruscha so'z o'zbekcha talaffo'z bilan bo'zib aytiladi: tolko — tolko, spletnya — ispletniy, stolovaya — istalovoy, zaveduyushchiy - zavidit kabi: Kampir mazasi yuq ayol. Tolka kelinini qiynagani qiynagan... O'zzukun yulakka utirib olib, o'tgan-ketganni **ispletniy** qiladi

(S.Ahmad, "Hasrat" hajviyasi). Vey, vey, shchmoshcha yigitning guli tushadi. Ish bilgan odam har erda ham nonini topib ketaveradi. Stalovoyga zavidit bo'ldim. Ha, ushatdayam tortib turdik (S.Ahmad, "Nomi yuq tuy" hajviyasi).

Nutqning sofligiga soya solishi mumkin bo'lgan yana bir so'zlar guruhi jargon va argolardir. Bunday so'z va iboralar, ya'ni muayyan kichik ijtimoiy qatlam (savdogarlar, ug'rilar, qimorbozlar kabi) va kasbiy doyra vakillari orasidagina tushunarli bo'lgan sun'iy yoki shartli tarzda yaratilgan birliklar o'zbek tilida u qadar ko'p emas. Masalan, ba'zi ana shunday ijtimoiy guruhlar orasida yakan, loy ("pul" ma'nosida) kabi so'zlar qo'llanadi. Yoki ba'zan bolalar uyin uchun guyo boshqalar tushunmaydigan "til" yaratadilar, bunda so'zning har buginidan oldin yoki keyin zi, ra, ba, sa kabi tovushlarni kushib aytadilar. Masalan, Zi-**ku**- zi-**tub**- zi-**xo**-zi-**na**-zi-**dan** zi-**ki**-zi-**tob** zi-**ol**-zi-**dim** kabi. Ammo aytish kerakki, o'zbek tilida bunday jargon va argolar ko'p emas. Albatta, tasvir zaruriyati, estetik maqsad bilan bog'liq holda bunday so'z va iboralar badiiy nutqda o'rni bilan qo'llanaverishi mumkin.

Umumtilda dag'al, haqorat so'z va iboralar ham mavjud. Ammo tilshunoslikda vulgarizmlar nomi bilan yuritiladigan bunday so'z va iboralar jamiyatda barqarorlashgan ma'naviy-axloqiy qoidalarga zid bo'lgan i uchun ularni nutqda kiritish nutqning sofligini tamoman izdan chiqarishi bilan bir qatorda jamiyat a'zolarining hamiyatiga ham daxl qiladi. Nutqda vulgar so'zlarni ishlatish nutq to'zuvchining tarbiyalanganlik darajasining tubanligini ko'rsatadi, zotan, tarbiyalanganlikning mohiyati shaxsning jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy tartibotlarga so'zsiz va muntazam hurmat bilan qarashi va demakki, qat'iy amal qilishidan iboratdir. Ming yillik milliy an'analarimizda ham, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya davlat siyosatining ustuvor yunalixlaridan biriga aylangan bugungi kunimizda ham sukinib gapiriga insonga behurmatliq nopisandliq hatto bezorilik sifatida baholanadi.

Aytish lozimki, faqat badiiy nutq ba'zan bunday so'zlarga o'z tarkibidan joy ajratadi. So'z san'atkorlari badiiy asarlarda, albatta, muayyan me'yorga amal qilgan holda qahra- mon xarakteri, ichki dunyosi, hissiy holati kabi jihatlar- ni kabariq, aniq, ochik ifodalash maqsadida vulgar so'z iboralardan ham foydalanadilar. Masalan, Cho'lpon "Kecha va kundo'z" romanida Razzoq sufining kir va tang ma'naviy dunyosi, ma'rifatining muntazamsizligini xolis va ochiq tasvirlash niyati bilan uning nutqiga vulgarizmlarni kiritadi: Sufi bular uyga kirib olguncha eshik oldida bo'zarib-gezarib turdi. Bular uyga kirganlaridan keyin sallasini Kurvonbibiga o'zatib, ustidagi malla yaxtagini olisdan turib kartga irg'itdi va o'zining oddiy ovozi bilan:

Qanjiqlar! — deb baqirdi.

Yosh narsalar uynashsa nima bo'libdi? Muncha endi zabtiga oldingiz? — dedi Kurvonbibi.

Gapirma, eshak!

Cho'lpon vulgarizmlarni u qadar ko'p kullamaydi, kulla- ganda ham, asosan, xotin taloq qiztaloq, sintaloq, zangar, bachchag'ar, dayus, hez kabi nisbatan "engilroq" dag'al so'zlarga murojaat qiladi. Agar tasvirlanayotgan holat anchayin "og'ip" haqorat so'z yoki iborani talab etsa, yozuvchi ularni aynan emas, balki

umumiy perifriza yuli bilan ifodalaydi va shchu tarzda nutqda ochiq vulgarizmlar me'yoriga qat'iy amal qiladi. Mazkur romandan bir-ikki misol: Mingboshi erkin-erkin kuldi:

Tavba de, betavfiq! Astag'furullo ge!

Miryokub astarfurullo o'rniga **uyat bir so'z aytdi...**

Mingboshi **nihoyat darajada odobsiz bir so'z bilan baqirib javob qildi.** Ikkala yosh xotin sekin-sekin orqalariga tisarilib o'z uylariga kirib ketdilar. Xadichaxon turgan joyida qotib qoldi...

Ba'zan so'z ustalari qaxramonning benihoya tarang hissiy-emotsional holati, alam va qahru g'azabini ifodalash uchun ham haqorat so'zlardan foydalanadilar. Masalan: Tergovchi Qo'chqor Jalol meni qamoqqa olgan kuniyoq oltinlaringni, boyliklaringni qaerga yashirgansan, deb kechasiyu kundo'zi uxlatmay so'roq qildi. Menda bunaqa narsalar yuq desam, ishonmaydi. Uradi, tepadi, ko'llarimni qayiradi... Qo'chqor Jalol **haromi, g'arning bolasi** bitta gapni biladi. Oltin, oltin qani?... (S.Ahmad "Azroil utgan yullarda" hikoyasi). Ana shunday beadoq gazab-nafratni ifodalash uchun

ayrim hollarda juda og'ir haqorat shaklidagi beodob iboraning qisqartirilib, ixchamlashtirilib qo'llanishi ham ko'zatiladi: Bu uydagi qimmatbaho buyumlar mo'zeylarda shchm topilmasdi... Men qamalganimda bolalarim bir chekkadan sotib usha onangni... Qo'chqorga oborib berishipti, na gilam qopti, na chinni asbob (S.Ahmad, usha hikoya).

Dag'al, haqorat so'zlarni o'rnida kayillatib qo'lashning betakror namunasini ulmas "Alpomish" dostonida ham kurish mumkin. Alpomishning singlisi Qaldirg'och "ahmoq qalmoq" elida tuqson alpning orasida talash bo'lib, ular zurumidan azoblar ichra urtangan Barchinni qutqarmoqqa shoshilmagan akasidan upkalab, "Nomardsan!" desa kamlik kiladiganday,

Aka, aytgan so'zim og'ir olmagin,

Nar-moda ishini bunda qilmagin, — deydi. **Nar-moda** ("erkak-urg'ochi") vulgar so'zi Alpomishning alp qalbini qattiq silkitadi. Alpomish tuganmas hayrat va hasrat bilan:

Nar-moda deb meni silkib solasan,

Juda ham akangni nomard bilasan, — deydi. Shunda Qaldirg'och o'sha gaplarini yana ham qattiqroq, qamchinliroq qilib aytadi:

Har kim o'z elida bekmi, to'rami,

Nar-modalar sendan kamroq bo'lami,

Mardning yori toy-talashda qolami?! shu nar-moda so'zi o'zining qiyossiz ta'nador qudrati bilan Alpomishning yuragidagi hamiyat degan bikir tuyg'uni tiriltirib, uni Boychibarga mindiradi...

Tabiiyki, nutqqa olib kiriladigan har bir so'z va ibora, albatta, "ishlashi", muayyan ma'noni ifodalash uchun xizmat qilishi lozim. Nutq tarkibiga olib kirilgan so'z yoki ibora nutqning mazmuniy kurilishi uchun bir "rishtcha" bo'lmasa, u nutq uchun ortiqcha yuq demakki, nutqning sofligiga xalaqit beradigan keraksiz unsurga aylanadi. Tilshunoslikda parazit so'zlar deb ataladigan bunday birliklar ko'proq og'zaki nutqda ko'zatiladi. Aytilmoqchi bo'lgan fikrni etarli

darajada aniq tasavvur qilmasliq fikrlar o'rtasidagi tizimli munosabat idrokining etishmasligi, fikrning kuyilib kelmasligi natijasida nutq oqimida yo`zaga keladigan o`zilishni, qanday bo`lmasin, "yopish", tegishli uyg`yn ifodani uylab topish uchun ketadigan vaqtda nutqning yaxlitligini ta'minlash ehtiyoji bilan bog`liq holatda e-e-e, xm-m-m, he-e-e kabi tovush "oqim"lari, xo'-o'-o'sh, haligi, anaqa, masalan, demaq shu, innaykeyin, ya'ni, aytayliq bildingizmi, tushundingizmi, men sizga aytsam, gap shundaki, qarang kabi lug`atlarda aniq ma'nosi mavjud so`z va iboralar ayni ma'nosidan begona qilingan tarzda qo'llanadi. Bunday qo'lashlar bora-bora nutq to'zuvchida o'ziga xos odatga aylanib qolishi ham mumkin, masalan, kimdir haligi, kimdir demaq yana boshqa birov bildingizmi so`zini og`zaki nutqida parazit so`z sifatida doimiy ishlatadi. Aytish mumkinki, bunday so`zlar u yoki bu notiqning so`zlashuv uslubining o'ziga xos ko'rsatkichi bo`lib qoladi (hatto bu "ko'rsatkich" shaxsning laqabiga aylanib ketishi ham mumkin, masalan, "shu-shu" domla, "xo'sh-xo'sh" usta kabi). Bu, albatta, nutqning sofliqini izdan chiqaradi, nutqda ifodalangan informatsiyani qabul qiladigan tinglovchining diqqatini chalg`itadi, nutqning o`z maqsadiga erishishini qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham, ayniqsa, o`qituvchi va asosiy quroli so`z bo`lgan boshqa mutaxassislar parazit so`zlarning o`z nutqlariga kirib qolishidan saqlanishlari lozim. Maktab o`quv- chilarida ham parazit so`zlarning nutqiy odatga aylanmasligi uchun o`qituvchi bu yunalishda doimiy ish olib borishi maqsadga muvofiq.

So`z san'atkorlari qahramon xarakteri, ma'naviy-ma'rifiy saviyasini ko'rsatishda badiiy asarda parazit so`z va iboralardan ham foydalanadilar.

Rasmiy ish qog'ozlari, umuman, idoraviy yozishmalar uslubida doimiy qo'llanadigan, turg'unlashgan, qoliplashgan so`z, so`z birikmasi va iboralar ham mavjudki, ularni ishlatishda aqlga kuch kelmaydi, ular ayni uslubda matn to'zishda nutqiy odatga aylangan. Tilshunoslikda idoraviy so`z va iboralar yoki kantselyarizmlar deb yuritiladigan bunday birliklar hujjatlar tili uchun zaruriy unsurlardir, chunki ularning qoliplashganligi ham nutq to'zishni, ham bu nutqni jadal tushunishni sezilarli darajada qulaylantiradi. Ammo kantselyarizmlar so`zlashuv, publitsistik va badiiy nutqda kiritilar ekan, nutqning sofliq anchagina zarar ko`radi.

Muayyan nutqiy qo'llanishda turg'unlashgan so`z va iboralarga ortiqcha ruju qo'yish nutq to'zuvchining o`z nutqiga e'tiborsizligi, kerakli ifodani tanlashga erinchoqligi, ta'bir joiz bo'lsa, undagi tafakkur tanballigi, ruhiy lisoniy loqaydliq "tayyorga ayyor" moyasiga moyillik tarzida baholanishi mumkin. Bunday nutqda nafadat sofliq balki tirik til sezgisi ham kulog`ini ushlab ketadi, unda nutq to'zuvchining o`z tili, ko'zi, qulog`i, disqasi, tayinli qiyofasi ham bo'lmaydi. Bunday notiq jungina Er haydaldi jumlasini Erni sifatli haydash ishlari muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirildi shaklida to'zadi (Yana ...tupni teptiishi ustalik bilan amalga oshirdi, ...binoni ta'mirlash amalga oshirildi kabi ko'plab ifodalarni eslash mumkin). Uningcha, rasmiy qolip "kuyuishchoni" shuni taqozo etadi. Chin so`z zargari Abdulla Kahhor "Quyushqon" asarida bu holat hakida shunday yozadi: "Hozirgi vaqtda tilimizning boyligini, uning qochiridlarini o'rganishga eringan, so`z san'atiga hunar deb emas, kasb deb qaraydigan, bisotidagi bir hovuch so`zni yillar davomida aylantirib kun ko'rib yurgan bir

turkum qalam aqlining "faoliyati", chala mulla ba'zi olimlarning "ilmiy xulosa"lari natijasida ajib bir til bunyodga kelgan. Bu tilda hech kim gapirmaydi, zotan, gapirish mumkin ham emas, faqat yozib o'qib berish mumkin... Bu tilning hech qaerga yozilmagan, lekin amalda joriy bo'lgan temir qonuniga ko'ra "yaxshi ovqat edim!" deb yozib bo'lmaydi, albatta, "sifatli ovkatlandim" deb yozish shart. "Papiros chekadigan kishi gu- gurtini olib yurishi kerak" deb yozish tug'ri emas, "Papiros chekish odatiga ega bo'lgan kishi o'zini tegishli gugurt bilan ta'minlab yurishi kerak" deb yozilsa tug'ri bo'ladi. Bu tilda latifa aytib bo'lmaydi, yozib bo'lmaydi! Bu tilda hazilga, maqolga, matalga, ajoyib xald iboralariga o'rin yuq. Bu til har qanaqa jonli fikrga kafan kiygizadi, har qanaqa o'ynoqi mazmunni taxtaga tortadi, har qanaqa lektorii g'urbatning uyasiga, har qanaqa auditoriyani o'lik chiqqan hovliga aylantiradi. ...Bir talay jurnalistlar, redaktorlar, notiqlar, lektorlar, agitatorlar singari bu odam ham mazkur tilni rasmiy, qaerdadir tasdiqlangan til deb bilar, bu tilda so'zlanadigan o'lik nutq jon kirgizgani qolinadigan har bir harakatni "Kuyushkrndan tashqari chiqish" deb hisoblar ekan. Lektorii, agitatorii g'urbatning uyasiga, nutqni og'ir yukka aylantiradigai bu "quyushqon"ni qancha tezroq uloqtirib tashlasaq shuncha yaxshiroq!"

Tabiiyki, turgunlashgan nutqiy qoliplardan qo'tulish uchun, avvalo, tafakkurdagi qoliplardan voz kechish, mustaqil va ijodiy tafakkur malakalarini oshirib borish zarur. Bunga, ayniqsa, maktabda alohida ahamiyat berilishi kerak. Rasmiy uslubdan boshqa uslublarda qo'llangan tayyor nutqiy krliplar o'quvchining ijodiy tafakkur ko'nikmalarining tarkib topishi, barqarorlashishiga xalaqit beradi. Sof nutqning go'zal namunalari bo'lmish har jihatdan pishiq-puxta badiiy asarlarni muntazam mutolaa qilib borish, bunda badiiy nutqda o'z tajassumini topgan soflik sifatiga doimiy diqqat qilish o'z samarasini berishi tayin.

Adabiyotlar:

1, 3, 6, 12, 14, 26, 31

Tayanch so'z va iboralar:

1. Nutqning sofliqi
2. so'z va iboralar
3. kanselarizmlar.
4. jargon
5. argolar,
6. parazit so'zlar,
7. vulgarizmlar,
8. varvarizmlar

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutqning sofliqi deganda nimani tushunasiz?

2. Qanday omillar nutqning sofligini bo'zadi?
3. Nutqning sofligi va tozaligi bo'zilgan matnlar bilan ishlash.

6-mavzu: Nutqning boyligi

Reja:

- 1.Co'z boyligini ta'minlovchi manbalar**
- 2.Nutq boyligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlar**
- 3.Badiiy nutq va nutqning boyligi**

Nutqning ta'sir quvvati, tegishli axborotni tinglovchiga tugal va qulay, "yukumli" tarzda etkazivda imkoniyati muhim kommunikativ sifatlardan bo'lmish boyligiga ham bog'liq. Boy nutq tinglovchining joniga tegmaydi, balki u bunday nutqni jon qulog'i bilan tinglaydi,

Nutqning boy yoki kambag'alligi unda tilning bir-biridan farq kiladigan unsurlari (so'zlar, ma'nolar, intonatsiya, sintaktik to'zilmalar, iboralar va sh.k) dan qay darajada foydalanilganlik bilan belgilanadi. Ayni bir til unsuri nutqda qanchalik kam takrorlangan bo'lsa, bu nutqning boylik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi yoki, aksin- cha, muayyan til unso'rining takrori ko'p bo'lgan nutq kambag'al hisoblanadi va uning ta'siri ham shunga yarasha bo'ladi. Ulug' Alisher Navoiy aytganideq "Bir deganni ikki demak xush emas, So'z chu takror o'ldi, dilkash emas". Shuning uchun nutqning bu sifati rang-baranglik tarzida ham talqin etiladi, ya'ni boylik tegishli fikr ifodasi uchun qo'llangan til birliklarining xilma-xilligi, rang-barangligi bilan ulchanishiga urg'u beriladi. Qadimgi yunon faylasufi Galikarnaslik Dionisiy (eramizdan oldingi I asr) "So'zlarning ko'shilishi haqida" nomli asarida nutqning rang-barangligi (boyligi) sifati zaruriyati to'g'risida shunday yozadi: "Umuman barcha yokimli narsalarday hatto har qanday go'zallik ham tinimsiz takrorlansa, jonga tegadi; xilma-xil, rang-barang o'zgarishlarda esa bu go'zallik mangu yangi bo'lib qolaveradi,"

Boy nutq to'zish uchun ifodalarning bir xilligidan qochish, ayni bir tushuncha yoki fikrga farqli-farqli "libos"lar tanlash va kiydirish lozim. Buning uchun esa nutq to'zuvchida til vositalarining boy va faol zahirasi mavjud bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, notiq etarli darajadagi so'zlar, ularning ma'nolari, so'z birikmasi va gap modella ri, jumlaning intonatsiya va melodika turlari zahiralariga sohib bo'lmog'i talab etiladi. Bu zahira qancha boy bo'lsa,notiq o'z nutqining maqsadiga muvofiq tarzda undan maqbul birliklarni tanlash, xilma-xil ifodalarni ishga solish imkoniyatiga shunchalik ko'proq ega bo'ladi.

Leksiq semantiq grammatik intonatsion jihatdan rang-baranglik nutqning boyligini yo'zaga keltiradi.

Tayinki, faol lug'ati qashshoq bo'lgan leksik bisoti uch-to'rt ming so'zdan oshmaydigan kishining boy nutq to'zishi maxl. Boy, shirali nutq to'za bilmoq uchun, eng avvalo, ana shu bisot zangin va rangin bulmog'i shart. Atokli so'z

san'atkorlarida, masalan, ulug' Alisher Navoiyda 26 mingdan ortiq rus shoiri Pushkinda 21 mingdan ortiq so'z boyligi mavjudligini mutaxassislar ta'kidlaydilar. Albatta, bunday ulkan so'z boyligiga ega bo'lish har kimga ham nasib etavermaydi. Ammo o'z nutqini boy, ta'sirchan, o'tkir bo'lishini istaydigan har bir kishi tasarrufidagi lug'at boyligini kengaytirib borish haqida qayg'urishi lozim.

Bor-yug'i 9 ta jumladan iborat ushbu badiiy nutq parchasida birgina kapalak so'zi 7 marta takrorlanganki, bu ham ayni nutqning leksik jihatdan boyligiga putur etkazganligini sezish qiyin emas: **...Kapalaklarni** aytmaysizmi? Bir-birini ko'vlab guldanda gulga qo'nayotgan kapalaklarga mahliyo bo'lmay ilojing yuq. Bularning hammasi o'tkirni butunlay sexrlab kuydi. O'tkir o'rtoqlari bilan gul terib yurib, chiroyli **kapalakka** ko'zi tushib qoldi. Buncha chiroyli o'chmasa. O'tkir **kapalakni** o'shlamoqchi bo'ldi. Biroq kaftlari orasiga qisib o'shladim deganda, kapalak ko'z ochib yumguncha boshqa gul ustida paydo bo'lardi.

O'tkir **kapalakning** orqasidan qo'vlab charchadi, ko'p ovora bo'ldi. Axiyri kapalakni ko'zdan yuqotib kuydi (A.Sodiqov, "Tog'da" hikoyasi).

Mana bu jumlagi e'tibor beraylik: Qo'llanmadagi uslubiy echimlar mashg'ulot rejasi va mashrulot matnidan iborat ikki qismdan iboratdir (S.Jo'raev, H.Qodirov). Bu jumlaning qashshokligi, nafaqat qashshokligi, balki uslubiy g'alizligi ochiq ko'rinib turibdi. Ayni bir iborat so'zi ikki marta takrorlanganki, bu nutqning boylik sifatini tamoman ishdan chiqargan. Ayni holat, shubhasiz, nutq to'zuvchidagi so'z boyligining chegaralanganligi, o'z nutqiga e'tiborsizligi mahsulidir. Aslida mazkur iborat so'zining biri o'rnida, masalan, tarkib toptan yoki tashkil topgan ifodalari qo'llanganda, nutqning bu qadar qashshokligi yo'zaga kelmas edi.

O'zbek tili har jihatdan, xususan, lug'at xazinasini nuqtai nazaridan benihoya boy va rivojlangan tildir. Shuning uchun ham bu qadim tilda "oldidan o'tganda bugungi Ovrupo adabiyoti ham shapkasini olib salom berib o'tadigan" (Fitrat) adabiyot yaratilgan. Bu adabiyot, albatta, tilimiz so'z g'ajinasining xira tortmas ko'zgusidir. Tilimizda muayyan bir tushunchani ifodalashning bir emas, balki bir qancha, xilma-xil imkoniyatlari mavjudki, ularni ishga solish, nutqning boyligini ta'minlashga xizmat qildirish uchun muntazam e'tibor va sa'y-harakat lozim bo'ladi. Ana shu e'tibor susaydimi, nutqning boyligi tushunchasining mohiyatiga putur etaveradi.

Tilimizdagi ana shunday xilma-xil imkoniyatlarning biri sinonimiya yoki ma'nodoshlik hodisasining benihoya kulamdorligidir. Ma'lumki, sinonimiya faqat so'zlar doirasidagina emas, balki morfologik va sintaktik shakllar doirasida ham keng tarqalgan.

Matnda so'z takroridan qochishning eng sinalgan va maqbul yullaridan biri ayni shu so'z ma'nodoshligidan farosat va mahorat bilan foydalanishdir. Boburning bu boradagi betakror san'atkorligi haqida iste'dodli olim M.Olimov shunday yozadi: "Boburnoma" matnini ko'zatib, biz shunga amin bo'lamizki, hozirgi kunda qalam axdiga tanish bo'lgan taxrir tamoyillari Boburga aslo begona bo'lmagan. U ham sahifalar ustida faqat ilhom bilan qalam uynatgan emas, balki ter to'kib mehnat qilgan, boqiy so'z dunyoga kelishining azobli to'lg'oklarini boshidan kechirgan.

Quyidagi parchani ko'zdan kechiraylik: Kypg'on eli yuqoridin bulag'a **dud** qildilar. Alar to'shukni berkitgan bila tutun yuqori ko'rg'on elig'ao'q yonib,

ko'rg'on eli o'lum ichi bo'lub, qochib chiqtilar. Xush, nega Bobur dastlab dud so`zini, keyingi jumlada esa xuddi shu ma'nodagi shutun kalimasini qo'llagan? Tabiiyki, bu bekorga emas. Biz hozir uslubshunoslikda urganadigan va taxrir amaliyotida rioya qiladigan tak- rordan qochish tamoyili Bobur uchun ham qat'iy qoida hisoblangan.

Bobur Farg'ona viloyati haqida yozadi: Etti pora qasabasi bor: beshi Sayxun suyining janub tarafida, ikki shimol jonibida. Boshqa o'rinlarda ham ushbu tushunchaga murojaat etishga to'g'ri kelganda, taraf va jonib so`zlari bir-biri bilan o'rin almashib keladi. Matn mazmuni izn bergan o'rinlarda esa bu so`zlarning boshqa sinonimlari qo'llanadi.

Quyidagi narchada barg va yaproq so`zlari o'zaro almashinib kelgan va matnga rang-baranglik baxsh etgan (ta'kid bizniki. — N.M.): Daraxtlarning bargini otqa berurlar edi. Anda tajriba bo'ldikim, bori yafroqlardin tut yafrog'i va qaro yig'och yafrot otqa sozvorroq emish. Yoki: Qalin kishisi uqqa, qilichqa borib, g'alaba kishisi ilikka tushti, suvda ham ko'p kishisi o'ldi."

Sinonimlar (lisoniy va nutqiy) ning bu tuganmas imkoniyatlaridan so`z ustalari hamisha unumli foydalanadilar. Misollar: Ikkala o'rtoqing sharaq-sharaq gaplashgan, bir-birlariga sevinch bildirishgan kuvnoq va baland ovozlari boshqa hamma unlarni bosib ketdi... Xudo xadeb shunaqa insofsizlarga berar ekan-da! Biz bechoralarga ham bir narsa o'zatsa-chi!.. (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Kanal ko'prigidan oshib, cho'l tomonga jilovni burdim. Ot negadir tixirlik qilib, yurmay turib oldi. Jonivor bir-ikki qamchidan keyin ham oldinga jilish o'rniga orqasiga tisarilib, taysallardi (S.Admad, "Cho'l burguti" hikoyasi).

Ta'kidlash joizki, faqat takrorlangan bir so`z yoki bir so`z shakligina emas, balki so`z yasalishi va grammatik shakl yasalishida asos bo'lgan so`zning takrori ham nutqning boylik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mana bu jummalarni ko'zdan kechiraylik: Xulosa qilib aytganda, islom dini va falsafasi yangi axloqiy komillikka intiluvchi tarbiyani vujudga keltirishga intildi. Bu intilish hamon o'z kuchida qolmoqda (M.Qodirov). Parchada intilmoq fe'li uch o'rinda asos sifatida takrorlangan. Birinchi jumladagi intiluvchi va intildi so`zlaridagi asos (intil) ning takrori nutqning boylik sifatini bo'zgai. Matn sintaktikasi qoidalariga ko'ra ikkinchi jumla tarkibidagi intilish so`z shaklining qo'llanishi o'rinli, ayni so`z shakli (harakat nomi) bu olmoshi bilan birgalikda mazkur ikki jumlaning o'zaro bog'lanishi uchun xizmat qilgan, ya'ni ...intildi. Bu intilish... Ammo birinchi jumlada takror qo'llangan intil- asosi mavjudligiga ko'ra bu uchinchi qo'llanish nutq to'zuvchining so`z zahirasida ifodalar tanqisligini yanada ta'- kidlaganday bo'ladi,

Ba'zan ana shunday takrorlangan leksik asoslar muayyan bir nutqiy parchadagi har bir jumlada ishtirok etadiki, bunday nutqning boyligi haqida gapirish qiyin. Qiziq— asosi turt marta takrorlangan ushbu misolda bunga ishonch hosil qilish mumkin: Ko'pchilik singari men ham sport turlaridan futbolga qiziqaman. Jahon va Evropa chempionatlari, mamlakatimizda hamda jahonning kuchli (?) birinchiliklarini qiziqish bilan ko'zatib boraman. Ayniqsa, futbol statistikasi bilan 25 yillardan buyon qiziqib kelaman. Qiziqarli futbol uyinlarini televizor orqali to-

mosha qilish bilan birga futbolga oid materiallar ham beradigan "Erudit" gazetasini muntazam ravishda o'qib boraman ("Xurriyat", 2006 yil 18 oktyabr).

Muayyan bir grammatik shaklning keragidan ortiq takrori ham nutqning boyligini ta'minlashga xizmat qilmaydi. Bir jumla yoki undan katta nutq parchasida, masalan, bir kelishik shaklining takror-takror, qalashib kelishi nutqni g'ariblashtiradi, ayni paytda ifodalanmoqchi bo'lgan fikr o'zanini birdan idrok etilishini ham qiyinlashtiradi. Mana bu jumlaning ko'raylik: "Amsterdam — Pekin" avtorallisi yunalishiga O'zbekistonning ko'shilishi boy madaniy merosimiz va 15 yil oldin o'zining mustaqil taraqqiyot yulini tanlagan xalqimizning bugungi hyotiga jaxon jamoatchiligining katta qiziqishining yana bir tasdig'i bo'ldi ("O'zbekiston ovozi", 2006 yil 1 avgust). Bir jumlaning o'zida 5 ta qaratqich kelishigi shakli qo'llangan. Bu jumlaning boy deb ham, anglanishi qulay deb ham, ravon deb ham bo'lmaydi. Holbuki, tilimizning grammatik imkoniyatlari ichiga chuqurroq kirilsa, mazkur takrordan qochishning ming bitta yulini topish mumkin. Xech bo'lmaganda, o'zining mustaqil taraqqiyot yuli so'z birikmasida belgisiz qaratqich kelishigi (o'z taraqqiyot yuli tarzida)ni qo'lash, xalqimizning bugungi hayoti so'z birikmasida bugungi so'zini ishlatmasdan belgisiz karatqich kelishigi (xalqimiz hayoti tarzida) dan foydalanish, jahon jamoatchiligining katta qiziqishi birikmasidagi mazmunni jahon jamoatchiligidagi katta qiziqish shaklidagi boshqa sintaktik to'zilma orqali berish bilan 3 ta qaratqich kelishigi shaklidan qutulish mumkin edi. Morfologik va sintaktik sinonimiyaning mavjud imkoniyatlari etarlicha ishga solinsa, bu kabi holatlarda nutqning boyligini bimalol ta'minlash mumkin.

Muayyan bir mazmuniy munosabatni xilma-xil sintaktik shakllarda ifodalash mumkin, ya'ni tilda buning uchun boy sinonimik zahira mavjud. Masalan, sabab munosabatini olayliq bu munosabat sodda gaplarda sabab holi orqali namoyon bo'ladi. Sabab holi odatda ravishdosh, ravish, turli kelishiklardagi yoki ko'makchilar bilan kelgan ot, olmosh, harakat nomi, sifat-dosh, takdidiy so'zlar bilan ifodalanadi, aytish mumkinki, sabab munosabatini ifodalaydigan sintaktik shakllar ana shunday xilma-xil va ko'p. Bu shakllarning faqat bittasinigina nutqda takror-takror ishlatish nutqning tussizligiga olib keladi. Bir badiiy matndan terib olingan ushbu jumalarda buni ko'rish mumkin: Unga yotoqxonada hozircha bush o'rin yuqligini aytishdi. Shu boisdan u Bozori gul mahallasidagi bir hovli boloxonasini ijaraga oldi... Elmurodni qishlog'ida ko'ngli ochiq, fe'li kengligidan talay qizlar yoktirishardi... Shodlanganidan yigitning yuragi uynoklab ketdi... Elmurod shu kuni uyalganidan derazani shart yopdi Dedi ota servant qiziga yoqqanligidan quvonib... ...Xursand bo'lganidan ko'ngli yayrab ketdiProrabning so'zini erda qoldirganidan ko'ngli bir oz xijil edi... Tuyga bir qishloqi yigitni ergashtirib borayotganingizdan iymanmaysizmi?.. Ancha-muncha aroq ichganidan yonoqlapu lovullardi Ichimlik kayfiyatidan ancha dadillangan Irodasini hirs dovuliga tizginsiz tutqizganidan qiz dudoqlaridan... bo'sa olardi... Opasi ko'ngli siqqanidan unta ayrim yumushlarni buyurar... Zamira singlisining hurmati, mehri ortib borayotganidan g'oyat mamnun edi (S.Ravshan, "Manzillar" qissasi). Bunday holatda nutqning sintaktik rang-barangligi tamomap yuqolganligini ta'kidlamoq joiz.

Nutqning boyligini yo`zaga keltirishda tilning sintaktik vositalari favkulodda ahamiyatga molikdir. Ta'bir joiz bo'lsa, sintaksis ma'nolarning xilma-xil va rang-barang qatimlarini yaxlit bir butunlik holiga keltirib to'qiydigan mexanizm vazifasini utaydi. Shunisi yanada hayratlanarliki, bu yaxlit butunlikni ham faqat bir shakl yoki tus- dagina emas, balki nutq to'zuvchi "usta"ning maqsadiga muvofiq va mahoratiga bog'liq holatda turfa shamoyil yoki ranglarga kiritishi mumkin. Ana shu shamoyil va ranglar yaxlit butunlik bo'lmish nutq boyligining poydor belgilari sifatida namoyon bo'ladi.

Tilimizdagi sodda va ko'shma gaplar, murakkablashgan gaplar, ularning xilma-xil qolip (model) lari, bu qoliplar asosida yaratilishi mumkin bo'lgan millionlab jumlar boy nutq to'zish uchun cheksiz-chegarasiz imkoniyatdir. Bulardan xabardor kishining nutqi qurilishi nuqtai nazaridan faqat bir xil qolipdagi jumladan tarkib topmaydi, ya'ni bir xil sintaktik birliklar takroridan iborat bo'lmaydi. Bunday odamning nushchi, albatta, sintaktik kurilishi jihatidan rang-barang, demakki, boy bo'ladi.

Iste'dodli adiblar o'z asarlarining tili ustida ishlarkan, ayni shu sintaktik rang-barangliklikka alohida e'tibor beradilar. Katta mahorat bilan yaratilgan badiiy asarlar sintaktik boy nutqning o'ziga xos namunalaridir.

Abdulla Qahhor asarlarining sintaksisi bu jihatdan ham ulkan ibrat maktabidir, Ularda muayyan bir sintaktik struktura ketma-ket kelavermaydi, aksar hollarda gap strukturasini ko'p tarmokdi, ya'ni xalqning ayni jonli so'zlashuviga xos bo'lgan kurilish, tom ma'nodagi tirik nutq. Tirik nutq esa qashshok bo'lmaydi. Yozuvchining xalqchilligi u qo'llagan sintaktik birliklarda ham yaqqol ko'rinadi. Misol: U avval nemisni qarg'adi, keyin yigitdan koyidi:

— Axir, seni bola-chaqangdan ayirgan-ku shu qurib ketgurlar edi, uni otaman degan kishining nega qo'lini tutasan! Xat o'qiyotibdi emish-a! Bola-chaqasi bilan qo'shmozor bo'lmaydimi!.. O'ziga o'zi qilibdi-da ("Asror bobo" hikoyasi).

Bunday xalqona, rang-barang jumlar A.Kahhor asarlarida faqat qahramonlar nutqidagina emas, balki muallif nutqida ham muntazam ko'zatiladi. Yozuvchining deyarli har bir jumlasida jonli nutqqa xos sintaktik ohang baralla eshitilib turadi, muayyan bir gap qolipi ketma-ket qo'llanavermaydi, aksincha, xilma-xil gap qoliplari doimiy al- mashinib keladi. Masalan "Qizlar" hikoyasi mana bunday boshlanadi: Qani biron xolis odam bo'lsa, aytsin: butun O'zbekistonni qidirganda Nurmatjonga o'hshagan yigitdan yana bironta topilarmikin? Bo'lgan taqdirda ham u yoshligida oynaga qarab, Nurmatjonday "men qanaqa xotin olar ekanman" degan emasdir.

Ba'zi odamlar — hazilmi, chinmi — har xil gaplar tarqatishadi: yozda uning ketidan pashsha ergashib yurar emish. Yolg'on! Nima qiladi ergashib? Labining ikki burchi hamisha oqarib turadi deyishadi. Bu ham... kusur emas, balki fazilat — ma'sumlik nishonasi... Ko'rinib turganiday, parchadagi hech bir jumla sintaktik qurilish nuqtai nazaridan biri ikkinchisini takrorlamaydi. Sodda gaplarning ham, qo'shma gaplarning ham farqli va o'ziga xos koliplaridan foydalanilgan, ularga asosan to'zilgan jumlar o'rtasidagi aloqa ham juda mustahkam va tabiiy. Parchada intonatsion rang-baranglik ham o'quvchi diqqatini jalb etadi, xilma-xil tinish belgilari bunga ishora qilib turibdi. Ayni paytda qo'llangan sintaktik birliklar

qurilishidagi o'ziga xoslik bilan bog'liq holatda ham intonatsion rang-baranglik ta'minlangan. Aytish kerakki, mustaqil jumalarning o'zaro bog'lanishi, bu bog'lanishni ta'minlovchi leksik-semantik va sintaktik-funksional vositalarning qo'llanishida ham A.Qahhor ijodi ibratlidir. Zotan, nutqning sintaktik boyligi ana shu bog'lovchi vositalarning rang-barangligi bilan ham o'lchanadi. Matnda takror-takror ayni bir bog'lovchi vositaning qo'llanishi nutqning qashshoklashuviga olib keladi.

Bu o'rinda shuni ham aytish kerakki, nutqning boylik darajasini pasaytiruvchi, qashshoklashtiruvchi leksik semantik morfologik sintaktik va intonatsion takrorlarni ifodalilik tasviriylik va ekspressivlikni oshirish maqsadi bilan atayin qo'llanadigan takrorlardan farqlash lozim. Ko'proq badiiy va publitsistik nutqda muayyan tushuncha yoki mazmunni alohida ta'kidlash, o'quvchi diqqatini tortish, ohangdorlikka erishish, missiy holatga urg'u berish kabi niyatlar bilan bog'lovchi, so'z, so'z birikmasi, gaplar takrorlanadi. Bu usul o'ziga xos nutq figuralari bo'lib, ular nutqning boylik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, balki ijodkorning mahorati bilan ifodalilikni yo'zaga keltiruvchi vositalarga aylanadi. Masalan, Quyidagi she'riy parchalarda buni ko'rish mumkin:

Yurt bu kun karvonlar boshida nordir,
Yurt bu kun Sharq ichra tengsiz bir diyor.
Yurt bu kun oxuday xo'p ishvakordir,
Sir kabi seravjdin, Pomirday poydor
(A.Oripov, "Hamid Olimjon xotirasiga" she'ri).

Sen borsan — men uchun bu hayot go'zal,
Sen borsan — men uchun dilbar koinot.
Sensiz qolar edim zulmatda tugal,
Sensiz qolar edim butkul bemurod
(A.Oripov, "Sen borsan..." she'ri).

Ey dust!
Uchmoq uchun **qanot kerak qanot kerak**
Qanot kerak lekin uni **qoqmoq kerak**.
Qoqmoq kerak osmonlarni **quchmoq uchun**,
Quchmoq uchun sabot keraq sabot kerak
(A.Suyun she'ri).

Istaysizmi - yukmi, gardun aylana,
Istaysizmi —yukmi, qaytib kelaman.
Sog'inmagan ko'zingizdan aylanay,
Istaysizmi — yuqmi, sizni sevaman
(I.Mirzo, "Istaysizmi - yuqmi" she'ri).

Tabiiyki, nutqning boylik sifati tilning faqat muayyan bir sathiga oid rang-baranglik bilan baholanmaydi. Nutq leksiqlik semantikli morfologikli sintaktikli va intonatsion jihatlardan rang-barangliklarning jamul jami tarzida shakllanganda, chinakam ma'noda boy bo'la oladi. Shuning uchun nutq to'zuvchi bu jihatlarning har birini tugal tasavvur etmog'i maqsadga muvofiq.

Uslublar nuqtai nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, nutqning boyligini ta'minlash uchun eng qulay makon badiiy uslub ekanligi shubhasiz. To'g'ri, publitsistik uslub ham nutq boyligining namoyon bo'lishi uchun yaxshigina imkoniyat beradi. So'zlashuv uslubiga oid nutqda leksikli semantikli va, ayniksa, intonatsion rang-baranglik notiqning mahoratiga kura muntazam yo'zaga chiqishi mumkin. Ilmiy va rasmiy nutqda esa boylikka qaraganda mantiqlik va qoliplashganlik ustuvorlik qiladi.

Aytish mumkinki, badiiy nutq o'z tabiati, mohiyati va maqsadiga uyg'un holatda boylikka moyilligi bilan ajralib turadi. Qashshoq nutq hech qachon estetik ta'sir quvvatiga sohib bo'la olmaydi, estetik kuvvatsiz esa badiiy nutq o'zining bosh vazifasini bajarishi mushkul. Shuning uchun ham haqiqiy so'z san'atkorlari asar tilining boyligi ustida muttasil mehnat qilganlar, tinimsiz izlanganlar, tilning turli satxlaridagi rang-baranglikning betakror imkoniyatlarini kashf etganlar. Chinakam boy, rangin nutqning nodir namunalarini yaratganlar. Badiiy adabiyotimiz tili jamiyatimiz a'zolarining boy nutq to'zish sinoatlarini urganishlari uchun bitmas-tuganmas manba, o'ziga xos maktabdir. Bu benazir maktabning a'lochi o'quvchilari bo'lish o'zini madaniyatli, ma'rifatli, ma'naviyatli kurmoqni istagan har bir kishining burchidir.

Adabiyotlar:

1, 8, 11, 15, 18, 26, 31

Tayanch so'z va iboralar:

1. Nutqning boyligi
2. Estetik ta'sir
3. Uslublar
4. Takrorlar
5. Ma'nodoshlik
6. Intonatsiya
7. Badiiy nutq

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutqning boyligi deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday omillar nutqning boyligini bo`zadi?
3. Nutqning boyligi va tozaligi bo`zilgan matnlar bilan ishlash.

7 - mavzu: Nutqning jo`yaliligi va ifodaliligi

Reja:

- 1. Nutqning jo`yaliligi va nutqiy muloqot**
- 2. Nutqning og`zaki yozma shakllari**
- 3. Nutqning ifodaliligi va uslublar**

Agar nutq o`zida barcha kommunikativ sifatlarni mujassam etsayu har jihatdan juyali, ya`ni o`z o`rnida bo`lmasa, u maqsad manziliga borib etmaydi. Juyalilik yuq joyda nutqning boyliq aniqliq ifodalilik kabi muhim sifatlarining mohiyati yuqoladi.

Sharqning buyuk pandnomachisi Kaykovusning shunday ug`iti bor: "...Tilingni yaxshi xunar bila o`rgatg`il va muloyim so`zdin boshqa narsani odat qilmag`il. Nedinkim, tilga har nechuk so`zni urgatsang, shuni aytur, so`zni o`z joyida ishlatil so`z agar yaxshi bo`lsa ammo noo`rin ishlatilsa. garchand u har nechuk yaxshi so`z bulsa ham yomon nobop eshitilur (ta`kid bizniki. - N.M.). Shuning uchun bexuda so`zlamagilki, foydasizdur. Bunday befoyda so`z ziyon keltirur va har so`zki undan xunar isi kelmasa, bunday so`zni gapirmaslik lozim. Hakimlar debdurlar: "So`z bir nash`adur, undan humor paydo bulur".

Xalqimiz donoligining bebaho yombilari, o`ktam o`zbek so`zining ko`rki bo`lmish maqol va matallarda ham ayni fikr bot-bot ta`kiddangan. Ularning ayrimlariga quloq tutaylik: "So`zga tushmagan so`zni aytma, Sozga tushmagan — g`azalni"; "Juyali so`z juyasin topar, Juyasiz so`z iyasin (egasin) topar"; "Juyaga tuya ham chukadi"; "O`rinli so`zga tuya cho`kadi, O`rinsiz so`zga hamma so`kadi". Notiq nutq to`zar ekan, "tuyaning cho`kishi va hech kimning uni so`kmasligi" uchun nutqining juyasini, o`rnini aniq tasavvur qilishi shart. Masalan, kimningdir og`ir kasalligi yoki vafoti haqidagi fikrni ifodalash uchun to`ziladigan nutqda ortiqcha chiroylilik jimjimadorlik kutarinkilik tantanavorlik bo`lmasligi lozim, aks xrla nutq juyali hisoblanmaydi.

Nutqning juyaliligi, aytish kerakki, nutqiy muloqotda jiddiy ahamiyatga ega. Bu sifat ("umestnost rechi") rus tilshunosi B.N.Golovin tomonidan juda yaxshi belgilangan.

Bu tavsifni ham hisobga olgan holda nutqning ayni sifatini shunday ta'riflash mumkin: juyalilik til vositalarini shunday tanlash, ularni shunday alokalantrish va bir-biri bilan bog'lashki, buning natijasida nutq konkret mulokotning maqsadi va sharoitlariga tamomila javob beradigan tarzda tarkib topadi. Ayni ta'rifdan kelib chiqqsa, juyali nutq ifodalanmoqchi bo'lgan axborotning mavzusi, uning mantiqiy va hissiy mazmuni, tinglovchi yoki o'quvchilar tarkibining yosh, ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa xususiyatlari, yozma yoki og'zaki nutqning xabar berish, tarbiyaviy, estetik va shu kabi vazifalariga tula mos kelishi asosida yo`zaga keladi.

Qadimgi yunon faylasufi Galikarnaslik Dionisiy nutqning juyaliligi haqida gapirar ekan, muayyan bir mazmun uchun tanlangan ayrim so`zlar va ularning ko`shilishi o`rinli, boshqalari esa o`rinsiz bo`lishini ta`kidlaydi va borliqning o`zi bunga misol ekanligini aytib, shunday yozadi: "...Axir, biz jahlimiz chiqqanda va xursand bo`lgan imizda, noliganimizda va qurqqanimizda, boshimizga baxtsizligu musibat tushganida va qaygusiz, sokin xayollarga chumganimizda aynan bir xil so`z va so`z kutilishlaridan foydalanmaymiz-ku." Albatta, har qanday tilda fikrni ayni holatlarga uyg'un, ya'ni juyali ifodalash uchun etarli lisoniy vositalar mavjud.

Nutq uslublari haqida gap ketganda, ularning har biri uchun xoslangan til vositalari borligi hamisha ta`kidlanadi. Masalan, bir uslubga xoslangan so`z, ibora, sintaktik qurilma yoki shu kabi birlikning boshqasiga o`tkazilishi nojoiz, o`rinsiz hisoblanadi. Bunday holatlarni uslubiy juyalilikning bo`zilishi tarzida baholash mumkin.

Bu o`rinda aytish kerakki, juyalilik sifatini o`rganishda nutqning yozma va og'zaki shakllarini farqlash lozim, chunki bu nutq shakllarida juyalilik o`ziga xos tarzda namoyon bo`ladi. Ma'lumki, yozma va og'zaki nutqning voqe bo`lish sharoitlari bir xil emas, shunga ko`ra bu ikki nutq shakliningo`ziga xoslangan birliklari, grammatik shakllari, sintaktik qoliplari bor. Bu holatni hisobga olmaslik natijasida ham nutqning juyaliligiga putur etishi mumkin.

Yozma nutqda ko`p qo`llanadigan, demakki, uyga xoslangan yuqorida ko`rsatib o`tilganideq yuqorida aytib o`tilganideq yukorida kurganimizdek; quyida kurib o`tamiz, Quyidagi guruhlariga bo`linadi, mazmuni Quyidagicha shaklidagi bir qancha sintaktik qurilmalar mavjud. Albatga, ular faqat yozma nutqda juyali, lekin bu iboralar og'zaki nutq tarkibiga kirarkan, nutqning juyaliligi tamoman bo`ziladi. Oddiy mantiq bilan qaralsa, yozma nutq qog'oz (yoki boshqa material) ga bitilgan bo`ladi, sath, makon nuqtai nazaridan moddiylik kasb etadi. Sath, makondagina "yuqori" va "kuyi" tushunchalari ma'noga ega. Ammo og'zaki nutqning moddiyligi makonga emas, balki zamonga, vaqta ko`radir, ya'ni og'zaki nutq talaffo`z paytidagina mavjud. Shunday ekan, zamonga nisbatan "yuqori" va "kuyi" tushunchalari ma'noga ega emas. Zamon "oldin, avval, ilgari" va "keyin, sung" kabi tushunchalarni o`z ichiga oladi. Ko`rinadiki, yozma nutqdagi, masalan, Yukorida ta`kidlanganideq mustaqillikni istamaydigan xalq yuq tarzidagi juyalilik sifatini mujassamlashtirgan jumla og'zaki nutqda Avval (ilgari, oldin)

ta'kidlanganideq mustaqillikni istamaydigan xalq yuq shaklida berilsa, nutqning juyaliligi joyida bo'ladi.

Ba'zan kishilarning og'zaki nutqida Yuqorida so'zga chiq- qinlarnang hamma yaxshi tilaklariga biz ham qo'shib, yubilyarni chin dildan tabriklaymiz qabilidagi jumlar uchraydi-ki, yuqorida so'z shakli tufayli nutqning nafaqat juyaliligi, balki mantiqiyliigi, to'g'riligi, aniqligi kabi sifatleri ham izdan chiqadi. Bu nutq juyali va boshqa sifatlariga ham ega bo'lishi uchun, masalan, Oldin (oldinroq, bizdan oldin, bizgacha) so'zga chiqanlarning hamma yaxshi tilaklariga biz ham qo'shib, yubilyarni chin dildan tabriklaymiz shaklida bo'lishi lozim edi.

Nutq to'zishda ifodalanmoqchi bo'lgan axborotning mavzusi, uning mantikiy va hissiy-ruhiy mazmuni anik; tasavvur qilinmog'i va ana shularga uyg'un holatda til vositalari tanlanmog'i kerak. Mavzuga, mantiqiy va hissiy mazmunga muvofiq bo'lmagan har qanday til birligi, sintaktik struktura, intonatsiya, hatto metafora, metonimiya, epitet, o'xshatish kabi badiiy tasvir vositalari, maqol, matal, turli iktiboslarning nutqda begonaligi, bejoligi juda tez bilinadi va bunday nutqni juyali deb bo'lmaydi.

Aytayliq yaqin kishisini yuqotgan odamning hissiy-ruhiy holati ma'lum. Shunday odamdan kungil surash, unga ta'ziya bildirish uchun to'ziladigan nutqda "o'lmoq" ma'nosini ifodalash uchun aynan o'lmoq so'zini tanlash o'rinli emas, bu so'z so'zlovchi va tinglovchi muloqotidagi mantiqiy-axloqiy munosabat ruhiga mos emas. Bu mazmundagi nutq- ning juyaliligini ta'minlash madsadida mazkur so'zning vafot etmoq, bo'lmay qolmoq, o'tib qolmoq, olamdan o'tmoq, olamdan ko'z yummoq, u dunyoga ketmoq boqiy dunyoga rixlat qilmoq kabi "yumshokroq" (evfemistik) muqobillari qo'llanadi.

Badiiy tasvir vositasi sifatida nutqda olib kiriladigan o'xshatish ham fikr mantig'i va hissiy-ruhiy holat bilan to'liq uyg'unlik kasb etmasa, nutqning juyaliligi haqida gapirish qiyin. Atoqli rus adibi M.Yu.Lermontov o'zining mashhur "Zamonamiz qahramoni" romanining dastlabki variantida oshiq ofitser Grushnitskiyning mundiridagi epo- letlar (maxsus pogon) ni ikkita kotletga o'xshatadi. Romanning keyingi tahririda esa bu o'xshatishdan voz kechadi va oshiq Grushnitskiyning epoletlarini Amo'rning qanotchalariga o'xshatadi. Ta'kidlash joizki, birinchi o'xshatish juda ham anik va konkret, chindan ham, epoletlar shaklan kotletga aynan uxshaydi, ammo oshiq qahramonning hissiy-ruhiy holati bilan mutlaqo bog'lanmaydi; ikkinchi o'xshatish esa oshiqning ruhiy holati bilan assotsiativ aloqadorlikka ega, ya'ni Amur — yunon afsonalarida sevgi xudosi demakdir. Shuning uchun ham ayni shu keyingi o'xshatish bejo yoki beta'sir emas, balki behad juyali va ta'sirlidir.

Cho'lpon "Kecha va kundo'z" romanida, masalan, Razzoq so'fining eng mudhish, fojiaviy ruhiy holatini tasvirlar ekan, o'rinli, qahramon ruhiyatiga monand o'xshatishlarni qo'llaydi. Mana bir misol: Piyoladagi choyni yarim qoldirib, ko'chaga chiqqan vaqtida so'fi o'z-o'zini taniyolmay qoldi. Oyoqlari xuddi tobut ko'tarib borayotgan musulmonning oyog'iday bir- biriga tegmasidi.

Nutqdagi har qanday kiyoslash ham o'z o'rnida bo'lishi lozim. Noo'rin qo'llangan kiyoslash nutqning juyaliligiga salbiy ta'sir qiladi. Masalan mana bu jumladagi qiyoslashni juyali deb bo'lmaydi: Kishi hayotini saqlab qolish etti

qavatli imorat kurishdan ham murakkabroq, deyishadi ("Xurriyat", 2006 yil 5 iyul). Avvalo, xech kim bunday de- maydi, xalq orasida bunday matalnamo ibora yuq, demaq deyishadi so`z shakli joiz emas, Bunday kiyoslashning juyali emasligi shundaki, kishi hayotini saqlab qolish, albatta, murakkab va sharaflı ish, ammo uning murakkabligini aynan etti qavatli imorat qurish bilan solinttirishning biron-bir mantiqiy asosi ham, me'yorga daxldor ma'nosi ham yuq. Nega olti yoki sakkiz, un, yigirma qavatli imorat kurish qiyos etaloni sifatida olinmagan? Ko'rinadiki, mazkur jumlada nutqning juyalilik sifati oqsoq.

Mana bu parchaga e'tibor beraylik:

- Kechirasiz, o'zingizni tanishtirmadingiz.

- Asli farg'onalikman. Ismim Kamola. Hozirda ikkinchi oilam bilan Toshkentda yashayman.

O'z tug'ilgan joyingdan olisda yashashning ham azoblari bor...

Albatta. O'zga yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l deganlari haq ekan ("Xonadon", 2006 yil 24 avgust).

Bu nutqiy parchadagi O'zga yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l maqoli o'z o'rnida qo'llanmagan, chunki bu kabi vaziyatlarga maqolning mazmuni muvofiq kelmaydi. Tabiiyki, Farg'ona va Toshkent boshqa-boshqa yurtlardagi shaharlar emas. Nutqiy olib kiriladigan maqol-mataldir, turli hikmatli so'zlardir yoki asarlardan olingan iqtiboslardir, albatta, nutq vaziyati, ruhiyati va mantiq'i bilan uyg'un bulsagina, juyali nutq sifatini ola biladi.

O'z nutqining juyali bo'lishini istagan kishi nutq to'zar ekan, bu nutqni tinglovchi yoki o'quvchining yoshi, ijtimoiy makomi, madaniy-ma'rifiy saviyasi kabi jidatlarni ham nazardan qochirmasligi zarur. Ayniqsa, o'qituvchi bu borada juda xushyor bo'lishi, o'z o'quvchilari uchun ibrat ko'rsatishi maqsadga muvofiq. Uning har bir jumlası ana shu jihat- larni tulasicha o'zida mujassamlashtirgan namuna darajasida to'zilishi kerak.

Kichkintoylar nutqini o'stirishga bag'ishlangan qo'llanmada (S.Jo'raev, H.Qodirov) juyalilik sifatidan mahrum bo'lgan ancha-muncha jumalarni ko'rish mumkin. Masalan, bog'cha bolalari uchun Sog'likda ko'rishaylik! Omon bo'lsa albatta, ko'rishamiz! kabi iboralarni o'rganish tavsiya etilgan. Holbuki, bu jumlar bog'cha yoshidagi bola nutqi uchun mutlaqo xos emas, bola tilida ular juyali nutq sifatiga sohib bula olmaydi. Ular bola nutqida hatto chuchmal, kulgili eshtilishini isbotlash kerak emas. Bunday jumlar kattalar, keksalar nutqidagina mazkur sifatni ola biladi. Yoki yana bir jumlanı ko'raylik: Mashg'ulot davomida "yaxshi" va "a'lo" baholar olgan bolalarni tarbiyachi o'z oldiga chaqirib, minnatdorchilik bildiradi. Bu jumlada minnatdorchilik bildirmoq iborasi nojuya qo'llangan, shuning uchun nutqni juyali deb bo'lmaydi. Bog'cha bolasi va tarbiyachi o'rta- sidagi yosh va maqom farqi mazkur iborani qo'lashga monelik qiladi, bunday o'rinda juyalilik sifati rag'batlantirmoq so'zini ishlatishni taqozo etadi.

Umuman, nutqning juyalilik sifatini ta'minlash uchun nutq to'zuvchi nutqiy vaziyatni, o'zi ifodalamokdi bo'lgan mazmunni, tinglovchining turli xususiyatlarini, muloqotning ijtimoiy-madaniy, axlokiy-estetik jihatlarini etarli darajada tasavvur etmog'i lozim.

Nutqning bu sifati ba'zan ta'sirchanlik tarzida ham talqin etiladi. Ammo ta'sirchanlik keng qamrovli tushuncha bo'lib, u yaxlit yaxshi nutqqa xosdir. Tabiiyki, har qanday nutqning asosiy maqsadlaridan biri tinglovchi yoki o'quvchi ongiga ta'sir etishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirishda esa nutqning muayyan bir sifati emas, balki barcha kommunikativ sifatlari u yoki bu darajada ishtirok etadi. Zotan, to'g'ri yoki aniq bo'lmagan, boy yoki mantiqiy bo'lmagan, sof yoki juyali bo'lmagan nutqning ta'sirchanligi hakida gapirib bo'lmaydi. Lekin ayni paytda nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda ifodalilik sifatining alohida, hatto hal qiluvchi o'rin tutishini ta'kidlamog' joiz.

Nutq tinglovchi yoki o'quvchining kuruq kulog'ini emas, balki qalb kurg'onini, aql qal'asini zabt etmog'i uchun, eng avvalo, uning tarkibi va kurilishi diqqatni tortadigan, qizg'in qiziqish uyg'otadigan bo'lishi lozim. Bu esa ayni ifodalilik sifatining mohiyatini tayin etadigan xususiyatdir. Boshqacha qilib aytganda, ifodalilik nutqning tarkibiy to'zilishi va boshqa lisoniy xususiyatlariga kura tinglovchi yoki o'quvchi diqqatini o'ziga jalb qila olishdan iborat kommunikativ sifatidir.

Nutqning turli uslublari bu kommunikativ sifatga turli darajada ehtiyoj sezadi. Masalan, rasmiy ish qog'ozlarida ifodalilikka nisbatan kamroq e'tibor qilinsa, ilmiy uslubda o'rni bilan bir qadar bu sifat kerak bo'ladi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar muammolari yoritilar ekan, nutqning ifodaliligi ayricha ahamiyat kasb etadi. Til nazariyasi va poetika masalalari bo'yicha fundamental tadkikotlar yaratgan mashhur rus, keyinchalik amerika filologi R.O.Yakobson (1896-1982) poetika va uslubshunoslikdan o'zok tilshunos ham, lingvistika muammolariga loqayd qaraydigan adabiyotshunos ham o'zini zamonaviy olim deyishga haqli emas deb hisoblagan. "O'zi esa ayni shu aqidaga qat'iy amal qilgan, shuning uchun ham asarlarini juda ham qiziqarli, diqqatni ushlab turadigan, ifodalilikka boy tarzda yozgan, uta ifodali nutq bilan baxslashgan va fikriga ko'shilmaganlarni ham ishontirib, o'z tomoniga og'dirgan. Uning ijodini urgangan olimlar "uning nazariy va metodologik kontseptsiyasidagi ichki ziddiyatlar qisman shuning uchun hamisha ham tadqiqotchilar e'tiborini tortmagan bo'lishi mumkin"ligini ta'kidlaydilar.

Tabiiyki, tashviqot xarakteridagi ma'ro'za yoki dars jarayonidagi bayon nutqida ham ifodalilik alohida zaruriyatga aylanadi. O'qituvchi dars mavzusini tushuntirar ekan, o'z nutqining ifodaliligiga e'tibor bermasa, ifodalilikni ta'minlaydigan vositalardan foydalanmasa, nutqi quruq, shirasiz, jozibasiz bo'ladi va natijada bunday nutq o'quvchi diqqatini torta olmaydi. Mavzu aslida qanchalik qiziqarli bo'lmasin, mazkur ifodalilik sifatidan maxrum nutq sabab o'quvchida tayinli qiziqish uyg'onmaydi, dars tinglovchi uchun zerikarli bir yumushga aylanadi. O'z-o'zidan o'quvchi bunday darsning tezroq tugashini kutadi, undan qutulish umidi bilan vaqt o'tkazadi.

Ifodaliliq ayniqsa, chinakam badiiy nutqning benihoya zaruriy sifatlaridandir. Zotan, ta'kidlab o'tilganideq aynan badiiy nutqda tilning estetik vazifasi birinchi planga chiqadi, butun kulami bilan namoyon bo'ladi. Bu vazifaning amalga oshishida esa aynan nutqning ifodalilik sifati favkulodda muhim o'rin tutadi.

Tilda ifodalilikni yo`zaga keltirishga xizmat qiladigan imkoniyatlar juda ham ko'p va xilma-xil. Bunday imkoniyat hech bir istisnosiz tilning barcha satxlarida mavjud. Tilning tovush kurilishi, so`z xazinası, morfologik shakllari, sintaktik birliklari, intonatsiya, uslub kabilarning har biri nutq ifodaliligining bitmas-tuganmas manbalaridir. Nutq to'zuvchi bu manbalarning mohiyati, tabiati va ularni unumli ishga solish usullaridan etarli xabardor bo'lsa, nutq-ning ifodalilik sifatini ta'minlashga qiynalmaydi.

Aloxida estetik maqsad bilan qo'llangan bir tovush, bug'in, ypg'y kabi fonetik birliklar nutqda ifodalilikka xizmat qiladigan vositalarga aylanadi. Masalan, Kurqayman! jumlası va uning Kur-may-man! tarzida butinlab aytilgan varianta o'rtasida ifodalilik jihatidan ancha-muncha fark bor, albatta, butinlangan jumla sezilarli darajada ifoda- li, demakki, ta'sirli. Yoki adabiyotshunoslikda alliteratsiya, assonans deb yuritiladigan unli va undoshlar takrori natijasida nutqda yo`zaga keladigan ifodalilikni eslaylik. Hassos so`z ustasi E.Vohidovning ushbu turtligidagi q undoshining takroridan tug'ilgan ifodaliliq dilbar bir ohangdorlik ham dikqatga, ham hayratga molik:

Qaro **q**oshing, **q**uyu**q** **q**oshing, **q**iyiq **k**ayrilma **q**oshing, **q**iz,
Qilib **q**atling'a **q**asd, **q**ilich **q**ayrar **q**otil **q**aroshing, **q**iz.
Qafasda **q**alb **k**ushin **q**iynab, **q**anot **q**oqmoqqa quymaysen,
Qarab **q**uyg'il **q**iyokim, **q**albni **q**izdirsin **k**uyoshing, **q**iz.

Tilning so`z xazinası nutqiy ifodalilikning o'ziga xos asosiy manbalaridan biridir. Ammo tilning lug'at boyligi haqida gap ketar ekan, lug'aviy birlik hisoblanmish frazeologik iboralar ustida ham tuxtalmoq joiz, chunki so`z bilan frazeologik iboralar solishtirilganda, iboralarning ifodalilik nuqtai nazaridan katta imkoniyatga ega ekanligini sezmaslik mumkin emas.

Frazeologik iboralarning ekspressivlikka, obrazlilikka, alohida ifodalilikka ega bo'lmagan ko'rinishlari tilda aytarli yuq darajada. Shuning uchun ham o'zbek tali frazeologiyasi ilmiga tamal toshini quygan Sh.Rahmatullaev iboralarni "nutqimiz kurki" deb ta'riflaydi. Iboralar ma'no hajmi, qamrovi jihatidan ham so`zga nisbatan ustun- likka ega. Bu munosabat bilan A.Hojiev shunday yozadi: "Frazeologizmlar so`zlar kabi yaxlit bir ma'no (belgi, harakat kabilarni) ifodalasa-da, lekin frazeologik ma'no ko'p jihatdan leksik ma'nodan farq qiladi. Shu sababli frazeologizmlar so`zlarga sinonim bo'lgan hollarda ham frazeologik ma'no bilan leksik ma'no bir-biriga teng bo'lmaydi. Qiyoslang: o'taketgan — uchchiga chiqqan, beqiyos(juda) — er bilan osmoncha, albatta — turgan gap, hech qachon — ikki dunyoda (ham), yashirin (xufiya) — eng ichida. Keltirilgan frazeologizmlar o'z sinonimlari bo'lmish so`zlarga nisbatan, birinchidan, ma'noni kuchli daraja bilan ifodalasa, ikkinchidan, ular obrazlilik ottenkasiga ega.

Umuman, frazeologik ma'noning hajmi leksik ma'noning hajmiga nisbatan keng, murakkab bo'ladi. Ko'pina frazeologizmlar ma'nosida so`zning ma'nosida yuq komponent bo'ladi. Masalan: yoqasini ushlamoq, boshida yonyaoq chaqmoq, er-kukka ishonmaslik oddiygina hayron bulish, azoblash, ardoqlash emas, balki

ortiq darajada hayron bulish, nihoyat darajada azoblash, uta darajada ardoqlashdir. Demaq bu frazeologizmlar ma'nosida "uta (ortiq) darajada" komponenti bor".¹

Nutqning ifodaliligini ta'minlashda frazeologik iboralar yana shuning uchun ham betakror vositadirki, ular "hayotdagi voqea-hodisalarni ko'zatishtirish, jamiyatdagi maqbul-nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir". So'z san'atining usta-lari tildagi bu vositadan unumli foydalanadilar. Masalan, kutmagan so'zi etti uxlab bir tushiga kirmagan iborasi bilan ma'nodosh, ammo ibora ifodalilik jihatidan so'zdan ustun. Ayni ma'noda iborani qo'lash nutqning ifodaliligini ta'minlashi tabiiy: Mingboshi hayron bo'lib qoldi. Bu etti uxlab bir tushiga kirmagan fikr edi. Ko'zini keng-keng ochib, mexmonga qaradi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Hech qachon so'zi va tuyaning dumi erga tekkanda iborasi urtasidagi ekspressiv farq yanada sezilarlidir: Otaboy tuyaning dumi erga tekkanda osh qilib beradi, — deb pungilladi Ko'ziboy ensasi qotib (S.Ahmad, "Tuyboshi" hikoyasi). Ko'pincha yozuvchi iboraning tarkibini o'zgartirishi, yangilashi, boshqacharoq qilib to'zishi va shu tarzda ifodalilikni yanada kuchaytirishi mumkin. Birgina misol, Cho'lpon o'z romanida ko'z-quloq bo'lib turmoq iborasini ko'z-quloq qilib bermoq tarzida o'zgartirib kullagan, bu nutqqa alohida obrazlilik baxsh etgan: Maslahat natijasida qaynona bilan kelin uyda qoladigan bo'lib, ikki-uch oydan beri bularnikida yashaydigan qarindoshlardan Savribibi degan kampir qizlarga ko'z-quloq qilib berilgan edi.

Ma'lumki, frazeologik iboralar ma'nosi ular tarkibidagi so'zlarning to'g'ri ma'nolari umumlashmasidan iborat bo'lmaydi, balki frazeologik ma'no mazkur so'zlardan biri yoki bir nechasini muayyan bir obraz asosida kuchma ma'noda qo'lash orqali yo'zaga keladi. Ijodkorlar ibora tarkibidagi so'zlarning to'g'ri ma'nolarini "tiriltirish" va ularni frazeologik ma'no bilan qarshilantirish yuli orqali kulgi chiqarish, o'ziga xos obrazlilikni yaratishga ham harakat qiladilar. O'tkir o'zbekcha kulgining hadisini olgan S.Ahmadning "Chuchvara" hajviyasidan olingan ushbu parchada buni ko'rish mumkin: Majlisda unga:

— Sen bola, chuchvarani xom sanab yuribsan. Shoshma hali, jujani ko'zda sanaymiz. Bu qanaqasi, sirkang suv kutarmaydigan bo'lib qopti, — deyishdi...

Endi menga navbat! Mening sha'nimga juda ko'p nojuya gaplarni aytdinglar. Hammasiga javob tayyor: chunonchi, sirkasi suv kutarmaydi, dedinglar. Nimaga shama qilyapganlaringni bilaman. O'zumchilik zvenosida ishlaganimda sirka solganman. U suv kutaradimi, yumi, o'zim bilaman. Ikkinchi masalaga o'taylik: jujani ko'zda sanaymiz, dedinglar. Bundan ikki yil oldin parranda fermasini uchma-uch qilib top- shirganman. Jujasi ham, ho'rozi ham tuppa-to'g'ri chiqqan. Endi uchinchi masala: chuchvarani xom sanaydi, deysizlar. Mana shu gap menga og'ip botdi. Qani aytinglar-chi, mening chuchvara sanayotganimni kim ko'ripti? Kimning uyiga kirib, chuchvarasiga kul tekkizibman? Voobshe, men chuchvara emayman...

So'zning ifodalilikni ta'minlashdagi imkoniyatlari ham benihoya katta. Taqlidiy (va tasviriy) so'zlarni olib ko'raylik. Ma'lumki, tovushga yoki obrazga takdid asosida yo'zaga kelgan so'zlar tildagi eng sodda va kadimiy so'zlar hisoblanadi. Tilshunoslikda tilning paydo bo'lishi borasidagi talldinlarda takdidiy so'zlar

masalasiga ham alohida o'rin beriladi. Hatto til tabiatdagi xilma-xil tovushlarga taqlid qilish natijasida paydo bo'lgan degan qarash ham mavjud. Aytish joizki, muayyan predmetga xos bo'lgan tovushli harakat, asosan, taqlidiy o'zakli fe'l bilan ifodalanadi. Bunday so'zlar tegishli predmetni juda aniq, tiniq tasavvur qilish imkonini beradi, usha predmetning tovushi yoki obrazi qo'lokdar ostida aks sado berib turadi. Ana shu ma'noda taklidiy so'zlarning nutqdagi ifodalilik badiiylik kuvvati beqiyosdir. Mana Alpomishning Barchinni ozod qilishga otlanib, shijoat bilan elib borayotgani tasvirlangan badiiy nutq:

Dubulg'a boshda **dungullab**,
Kark kubba qalqon **qarqillab**,
Tilla poyanak urilgan
O'zangilarga **sharqillab**,
Bedov otlari **dirkillab**,
Olg'ir kushdayin **charqillab**,
Kulda nayzasi **suqillab**,
Yurmoqchi o'zoq yuliga,
Qaramay ungu so'liga,
Etsam deb yorning eliga,
Siltab yuradi Boychibor...
Yul yurar davlatli shunqor.

So'zlarni ko'chma ma'noda qo'lash ham nutq ifodaliligini ta'minlash uchun tunganmas manbadir. Kuchma ma'noning deyarli barcha asosiy holatlarda emotsional-ekspressiv buyoqdorlikka ega bo'lishi ma'lum. Mana bu jumlagi e'tibor beraylik: Men har gal Matyokubnkiga borganimda uning xonasiga kirishdan avval un-un beshta kitobni xarid qilish uchun ajratib kuygan bo'lardim. Lekin ularni silab-siypab, varaklab ko'rib, yana qaytarib berardim — karmon qurg'ur uncha

semiz emas edi (O.Sharafiddinov, "Snayperlikdan — aka- demiklikka" maqolasi). Ikkinchi jumlaning karmon kurg'ur uncha semiz emas edi qismi alohida ifodalilikka ega. Bu ifodalilik esa semiz so'zining ko'chma ma'noda qo'llanishi hisobiga yo'zaga kelgan (albatta, bunda og'zaki nutqda xos kurg'ur so'zining ham ishtirokini ta'kidlash mumkin). Ayni qismdagi fikr bunday qo'llanishsiz, ya'ni Karmonimda pul ko'p emas edi shaklida ifodalanganda edi, nutqning ifodalilik sifati buy ko'rsatmagan bo'lardi.

Nutqda so'zlarni kuchma ma'noda ishlatishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular kuchimlar (yoki troplar) nomi bilan umumlashtiriladi. Kuchimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashlik umumiylik aloqadorlik kabi) asosida tasviriylik ifodalilik aniklikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga kuchiriladi. Shuning uchun ham ko'chimlar o'ziga xos tasviriy vositalar sifatida nutqning ifodaliligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

Nutqning ifodaliligini ta'minlashga xizmat qiladigan ana shunday tasviriy vositalardan biri epitet bo'lib, uni sifatlash ham deyishadi. Buning sababi shuki, epitet narsa yoki tushunchaning belgi-xususiyati, sifatini aniq, ravshan va obrazli

ifodalaydi, ayni paytda bu ifoda ekspressiv-emotsionallikka ega bo'ladi. Epitet tildagi mavjud im- koniyatga ko'ra faqat nutqda voqelanadi. Masalan, temir qoshiq birikmasidagi temir so'zi o'z ma'nosida, bu so'z, aytayliq "Temir xotin" (Sh.Boshbekovning asari nomi) birikmasida esa ko'chma ma'noda, ya'ni epitetdir. Mazkur epitet nutqning emotsionalligi, ekspressivligini, demakki, ifodaliligini oshirishi aniq. Bardoshli xotin, chidamli xotin, toqatli xotin kabi holatlarda temir xotin birikmasidagi ma'no umuman ifodalanar, ammo tushunchaning qamrovliligi, ifodaliliq obrazlilik tamoman yuqoladi. Aytish mumkinki, epitetlar asosida ham qiyos yotadi, ya'ni ularni qisqargan o'xshatishlar deyish mumkin. Boshqacha aytganda, yuqoridagi misolga qaytsaq temir bilan xotin chidamlilik belgisiga ko'ra qiyoslangan, ya'ni temirday chidamli (bardoshli, toqatli) xotin tarzidagi o'xshatish konstruksiyasini tasavvur qilayliq qiyos uchun asos bo'lgan "chidamlilik" belgisi avvalo temirga xos, temir so'zi ayni belgining etaloni sifatida to'g'ridan-to'g'ri xotin so'ziga sifatlovchi tarzida qo'llangan. Kuchli ekspressivlikka ega va mazkur belgilarni qabariq hamda boshqa ikir-chikirlari bilan ifodalaydigan ko'chma ma'no voqelangan. Nutqda epitetning yo'zaga kelishi mexanizmi, asosan, shu zaylda bo'ladi. Badiiy nutqda epitetlar o'ziga xos badiiyat vositasi sifatida faol qo'llanadi. Bir necha misol: Holbuki, u o'zini bil- masdan va hech narsa uylayolmasdan telba qadamlar bilan bitta-bitta bosib ilgari yurardi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Lablarimda, peshonamda sezaman mo'z nafasini (Zulfiya). Oltin O'zbekiston tuprog'i bu kun bir pari faslning og'ushida mast (A.Oripov, "O'zbekistonda ko'z" she'ri). Ko'rg'oshii xayollar ezadi bag'rim, janda umidlarga solaman yamoq (Faxriyor, "Ayolni eslamoq..." she'ri).

Ko'chimlarning eng keng tarqalgan turlaridan yana biri metaforadir. Bunda narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi uxshashlik asosida nom ko'chadi. Masalan, qozonning kulog'i birikmasidagi kuloq so'zining ma'nosi metaforik ma'no, chunki u odamning kulog'iga o'xshashligi asosida yo'zaga kelgan. Lekin ayni so'zning bu ma'nosi tilda doimiy metaforaga aylangan, ya'ni turg'unlashgan, mazkur tushunchaning nomiga aylanib, tilning lug'at boyligidan joy olib bo'lgan. Shunga ko'ra bunday metafora nutqning ifodaliligi nuqtai nazaridan qimmatga ega emas. Metafora qanchalik yangi, ohorli, tutilmagan bo'lsa, shunchalik ifodali bo'ladi. Mohir so'z ustalari o'z asarlarida so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash orkali ifodali, obrazli nutqning go'zal namunalarini yaratadilar. Quyidagi misollarda buni kurish mumkin: Zotan, ularning o'zlarini unutar darajada birbirilari bilan bu xilda uynashuvlari usha g'am-g'ashlar purjinasining bo'shalishi, siqintilar oqimining tug'onni bo'zib oldinga tomon yul solishi emasmi?! (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). "Telbaning ishini unglaydi xudo", yillarning og'zida saqich bu naql (I.To'lakov, "Maqol" she'ri). Manglayi tirishar zinapoyaning, Panjara kuylaydi misoli chiltor, Terlab ketganini kursang oynaning... Hamma narsa seni kutar intizor (I.Mirzo, "Izimdan sudralib" she'ri).

Ta'kidlanganiday, metafora narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida yo'zaga keladi, lekin qiyoslanuvchilardan faqat birining, ya'ni o'xshatish etalonning nomigina lisoniy ifodalanadi, metaforik ko'chma ma'no ayni shu so'zda vokrlanadi. Shunga ko'ra metaforani yashirin yoki qisqargan o'xshatish ham deb nomlashadi. Ayni paytda nutqda to'liq (ya'ni qiyoslanuvchilarning har ikkisi ham,

o'xshatish asosi va o'xshatish ko'rsatkichi ham lisoniy ifodalangan) o'xshatishlar ham borki, ular ham nutq ifodaliligini ta'minlashga ko'maklashadigan tasviriy vositalar sirasiga kiradi.

Badiiy nutqning ifodaliligi nuqtai nazaridan qaralganda, o'xshatishlarning musichadek beozor (odam), ayiqday ko'pol (yigit), toshday qattiq (narsa), mo'zday sovuq (suv), qorday oppoq (rang) kabi qo'llanishi an'anaga kirib qolgan, hammaga ma'lum bo'lgan turlaridan ko'ra nutq to'zuvchining, ijodkorning o'zi tomonidan yaratilgan, ya'ni xususiy-muallif o'xshatishlari ahamiyatlirokdir. Tug'ri, mazkur an'a- naviy o'xshatishlar ham nutqning ifodaliligi uchun ma'lum darajada xizmat qiladi. Masalan, musichadek beozor odam birikmasi beozor odam birikmasiga nisbatan, ayiqday ko'pol yigit birikmasi ko'pol yigit birikmasiga nisbatan, toshday qattiq narsa birikmasi qattiq narsa birikmasiga nisbatan ifodaliroq, ekspressivroq ekanligi ko'rinib turibdi. Shuning uchun odatdagi nutqning ifodaliligini ta'minlash uchun ulardan ham foydalanish lozim. Ammo nutqning, ayniksa, badiiy nutqning ifodaliligini kuchaytirish uchun xususiy-muallif o'xshatishlari alohida ahamiyatga molikdir. Ijodkorning bevosita o'zi yaratgan, uning o'tkir ko'zi, ko'lamli tasavvuri va bepoyon taxayyuli, ziyrak ko'zatishlari mahsuli sifatida yo'zaga kelgan va o'z o'rnida qo'llangan o'xshatishlar betakror obrazlarning go'zal ifodachilariga aylanadi, haqkoniy ta'sirli tasvir uchun xizmat qiladi, nutqda kuchli poetik mazmun kasb etadi. Mana bu parchaga e'tibor beraylik:

Men ipak qurti kabi
Xayolimga o'raldim,
Tuyg'ularning girdobi
Orasida yuqoldim

(Oybeq "Shoir bilan suhbat" she'ri).

Parchada murakkab hissiy holatning go'zal va real tasviri berilgan, bu hissiy holatning asosiy va ajoyib mazmuni birinchi ikki misradagi ko'tilmagan, favkuloda o'ziga xos o'xshatishda nozik ifodasini topgan. Ipak qurti kabi tarzidagi o'xshatish etaloni nixoyatda original, ayni holat ifodasi uchun juda mos. Ma'lumki, ipak qurti ipak chiqarib o'zini o'zi o'raydi va pilla hosil bo'ladi, o'zi esa oppoq pilla ichida pinhon bo'ladi. Shoir esa o'z xayoliga o'raladi, u pilladay oppoq xayollar ichra pinhon bo'ladi. Teran va tarang tasvir, haqiqiy oybekona o'xshatish. Aytish mumkinki, mazkur o'xshatish hissiy holatning benihoya emotsional rasmini chizish imkonini bergan. Yana misollar: So'fining tani shu topda Arabiston toklarining saratondagi toshlariday qizib yonardi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Uning xumor bilan kuyib yongan miyasi shoshilish poezdning o'txonasiday tez va soat mexanizmasiday muntazam ishlardi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). She'r tuqiyman urgimchak kabi muhabbatning tolalaridan (Faxriyor, "Ruhning kulankasi" she'ri). Maydalab o'rilgan sochlardek egatlarga taralgan suvlar — nay kuksidan oqayotgan ohanglar kabi sirli-sirli jildiraydilar (I.To'lakov, "Paxtazorni sog'inganda" she'ri). Kunglim ham bu kecha oyday yarimta (A.Oripov, "Bahor" she'ri).

So'z ustalari ba'zan o'xshatish asosini umumlashtirgan holda o'xshatish yaratadilar, bunda o'xshatishning mazmun hajmi yanada kengayadi. Bunday

o'xshatishlarda qiyoslanuechilar muayyan bir belgiga ko'ra emas, balki barcha belgilariga ko'ra, ya'ni umuman o'xshatiladi. Masalan, hassos adib Oybek "Hamza" nomli dostonida Shohimardon qishlog'ining o'tmishdagi manzarasini tasvirlar ekan, shunday o'xshatish yaratadi:

Pastda qishloq, toshlarga qapishibdi zich —
Faqir uylar **qaldirg'och inlari kabi**.

Shoir faqir uylarni qaldirg'och inlariga o'xshatadi. Albatta, qaldirg'och inlarining o'xshatish etaloni sifatida tanlanishi Oybekning tiyrak nigohi maxrulidir. Agar faqir uylar to'lig'icha tavsiflanadigan bo'lsa, hatto bir-ikki sahifa ham kamlik qilardi va shunda ham bu o'xshatish etaloni ifodalaganiday yorqin va ta'sirli tavsif yo'zaga kelmagan bo'lardi. Faqir uylar qaldirg'och inlariga bir emas, balki bir necha, ya'ni guvaladan kurilganliq kichiklik ko'rimsizlik osilganlik kabi belgilar asosida yaxlit holatda o'xshatilgan, mazkur ifoda aniqlik bilan bir qatorda ekspressiv buyokda ham ega. Mana yana bir oybekona o'xshatish:

Mana suvga tushar polvon qiz,
Tulqinlarni hech pisand qilmay...
Sochlar suvda qora ilonday

("Qizlar" she'ri).

Ko'chimlarning yana bir turi bo'lmish metonimiya tasviriy vosita sifatida nutqning ifodaliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi muayyan aloqadorlik asosida birining nomi bilan ikkinchisining atalishi metonimiyaning mohiyatidir. Masalan, Dasturxonga qarang! jumlasidagi dasturxon so'zi metonimik qo'llan- gan, ya'ni dasturxondagi noz-ne'matlar nazarda tutilgan. Badiiy nutqdan olingan Quyidagi misollardagi metonimiya tufayli yo'zaga kelgan ifodalilikka e'tibor qiliig: Uning aytishicha, mingboshi etib borguncha qishlokning qariyb yarmi qirilib bitadi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Ko'ltiqda Pasternak yo Pushkin, Hislarda uchadi dilgirlik (Oybeq "Bo'sh kunim..." she'ri). Bu erga termulib parishon dunyo To'g'rilab oladi kulda soatin (A.Oripov, "Kenglik nuktasi" she'ri).

Narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi butun-bo'lak munosabati asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chirish tarzida talqin etiladigan sinekdoxa ham ifodalilik uchun xizmat qiladi. Masalan, Bu kishi tirnoqa zor jumlasidagi tirnoq so'z sinekdoxa yuli bilan "farzand" kuchma ma'nosida qo'llangan, ya'ni nutqda "bo'lak" (tirnoq) nomi bilan "butun" (farzand) nomlangan. Ammo bu tasviriy vosita o'zbek nutqida u qadar keng tarqalgan emas, Ayrim misollar: **Shop muylov** o'rnidan turib ketdi: - Nafisamisan.? Voy-voy, - deb yuborganini o'zi bilmay qoldi (S.Ahmad, "Bahor qizlari" hikoyasi). Do'stlar eshigi ham taq-taq yopilgay, Fyccali qalb u yon gar kuysa qadam (A.Oripov, "Baxtiyor..." she'ri). Shunday o'tib borar umrimiz bekor... Oramizda sarson bir juft qora ko'z (A.Oripov, "Yondimu va lekin..." she'ri).

Mubolag'a va kichraytirish ham badiiy tasvir vositalaridan bo'lib, ular ham kuchma ma'noga asoslanadi. Mubolag'ada narsa, belgi-xususiyat oshirib, burttirib

ifodalansa, kichraytirishda ular haddan ortiq darajada kichraytirib tasvirlanadi. Har ikki tasviriy vosita ham ifodalilikka xizmat qiladi, tinglovchi yoki o'quvchi diqqatini darhol jalb etadi. Xalq og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyot, so'z ustalari nutqida bu tasviriy vositalar anchayin keng qo'llanadi. Quyidagi parchalardagi mubolag'aga e'tibor qiling: Oh urarman, oh urarman, Oxlarim tutsin seni. Ko'z yoshim dars bo'lib, Baliklari yutsin seni (Xalq kushig'i). Sovchining ko'pligidan ostonasi eyilib ketgan deydilar (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Ilojin topsa agar, ketmoning dastasin ham Erga qadab, termulib, ko'kartirguvchi bu xalq. Jazm etsa ko'kka buyar jahon xaritasin ham, Bugun cho'lga chiqibdi, niyati topsin barhaq (A.Oripov, "Qarshi kushig'i" she'ri). Ushbu parchalarda esa kichraytirish qo'llangan: Tariqday zaminning ustida beun Yashab utdi shundoq buyuk bir yurak (A.Oripov, "Noma'lum odam" she'ri). Shu zamon ko'zingiz oldida birdan Kichik chumolicha qolgusi Farhod... Yo'z yilda qaytibdi bunday falokat, Yo'z yil-ku tarixga — qoshning orasi (A.Oripov, "Avlodlarga maktub" she'ri).

Nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini oshirishda kinoya ("ironiya" ham deb ham yuritiladi, turli ko'rinishlarga ega) ham alohida o'rin tutadi. Bunda so'z yoki ibora o'z ma'nosiga tamomila qarama-qarshi bo'lgan kuchma ma'noda ishlatiladi. Kinoya so'zlovchining tasvirlanayotgan narsa yoki tushuichaga kesatikdi, pichingli, istehzoli, umuman, salbiy munosabatini ifodalash vositalaridan bo'lganligi uchun xam so'z yoki iboraning to'g'ri ma'nosiga zid, ya'ni inkor, salbiy buyokdi ma'no vokelanadi. Bunday kinoyaviy ma'noning vokelanishida nutq vaziyati, kontekst va intonatsiyaning ham alohida rol uynashini ta'kidlamoq lozim. Masalan, Bugun jug'rofiya o'qituvchisi darsga kelmadi. Xottok qilaman deb so'ridan yiqilib, oyog'ini sindiripti. Ajoyib "xushxabar"- dan keyin bir zumda sinf bo'shadi-qoldi (S.Ahmad, "Bir o'pichning bahosi" hajviyasi) parchasida xushxabar so'zi "shumxabar" tarzidagi kinoyaviy ma'noda qo'llangan. Kinoyada so'z yoki iboraning tildagi ma'nosi bilan nutqda reallashgan kuchma ma'nosi o'rtasidagi zidlik kuchli ta'kid oladi va shunga ko'ra birdaniga diqqatni jalb etadi. Quyidagi misollarda ham buni kurish mumkin: Yozuv mashinasi bo'lmagan tergovchi maxramasining mirzasi bechora protokolni juda zur diqqat va hafsala bilan ko'chirgan. Ori rost, erli halqning nomlarini yozishda u ham chalasavod bolalarning ishini qiladi, ya'ni "Akbarali" degan so'zni bir joyda "Umarali", yana bir joyda "Amir ug'li", yana bir joyda "Qambarvali" deb yuboradi (Cho'lpon "Kecha va kundo'z" romani). Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi — Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achindi va erini haydab olgani bitta emas, ikkita xukiz berdi, lekin "kichkinagina" sharti bor. Bu shart ko'zda ma'lum bo'ladi (A.Qahhor, "Ug'ri" hikoyasi). — Ikromjon akamni qamokda olib ketishdi. Hamma narsani xatlab ketishdi.

Hojar derazadan bosh suqdi:

— Kelling oyog'i "kutlug'" keldi-da! Ha, qadami "yoqdi" (S.Ahmad, "Poyqadam" hajviyasi).

Ko'chimlarning yana bir turi jonlantirish bo'lib, unda insonga xos xususiyatlar jonsiz yoki mavhum narsalarga nisbatlanadi, ya'ni jonsiz narsalar insonlar kabi harakat qiladi, uylaydi, gapiradi. Bu tasviriy vosita ham nutqning ifodaliligini

oshirishga xizmat kiladi. Jonlantirish ko'prok xalq og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyotda ko'za-tiladi. Misollar:

Chultaq xassasini o'qtalib Hasad

Ilxomning boshiga tushirdi chunon:

— Kim quyibdi senga parvozni, nomard, Bizlar er yo'zida yursak sargardon (A.Oripov, "Shoir va ilhom" she'ri). Supurgi etgan joyidan nariga o'tmasdan erga yonboshladi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani).

Nutqning ifodalilik sifatini yo'zaga keltiradigan ko'chimlar, tasviriy vositalar juda ham xilma-xil, rang-barangdir. Tabiiy, ular faqat yukorida kurib o'tilganlar bilangina chegaralanmaydi. Aytish lozimki, nutqning ifodaliligini ta'minlash xaqida uylanar ekan, albatta, mazkur tasviriy vositalarning me'yorini ham unutmaslik kerak. Muayyan bir matnda bu tasviriy vositalarning barchasini kalashtirib tashlash, o'rinli-o'rinsiz ularga murojaat qilaverish nutqning ifodaliligiga, ta'sirchanligiga salbiy ta'sir etishi tayin. Keragidan ortiq qo'llangan tasviriy vositalar nutqning chuchmallashuviga olib keladi.

Tilning fakat leksik sathigina emas, balki sintaktik sathi ham nutq ifodaliligini ta'minlashda benihoya keng imkoniyatlarga ega. Sintaktik kurilmalarning rang-barangligi, sinonimikasi ifodalilikni kuchaytirishga qanchalik xizmat qilsa, muayyan bir sintaktik birlikning atayin qilinadigan takrori ham bu jixatdan shunchalik diqqatga sazovor, ifodalilikni yo'zaga keltirishda sintaktik figuralar, gapdagi so'z tartibi, intonatsion vositalarning rolini xam esdan chiqarmaslik lozim. Ifodali nutq to'zish malakasini shakllantirishda tildagi barcha vositalar — leksik-semantiq leksik-sintaktik sintaktik intonatsion vositalarning imkoniyatlarini to'g'ri va to'la tasavvur etish muhimdir.

Adabiyotlar:

1,3, 6, 18, 19, 28, 30

Tayanch so'z va iboralar:

1. Nutqning ifodaliligi
2. Tasviriy vositalar
3. Kinoya
4. Ko'chim
5. Jonlantirish
6. Mubolag'a va kichraytirish
7. Metonimiya
8. Metafora

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutqning ifodaliligi deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday omillar nutqning ifodaliligi ta'minlaydi?
3. Nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda ifodalilikning o'rni.
4. Badiiy adabiyotda, matbuotda jo'yalilik va ifodalilikning aks etishi.
5. Matbuotda nutqiy ifodalilikning aks etishi.

8-mavzu: O`qituvchining nutq texnikasi

Reja:

1.Nutq texnikasida ovozning o`rni

2.Nutq jarayonida nafas olish va nafas chiqarish

3.Tovushlarni aniq talaffo`z qilish

Tuliq, mukammal shakllangan, talab darajasidagi nutq texnikasi o`qituvchining umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim o`zvi, ta`bir joiz bo`lsa, tamallaridandir. Jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini tug`ri vokelantirish kunikma va malakalarining jami nutq texnikasi demakdir, Bunda ovozning sifati, nutq jarayonida to`g`ri na- fas olish, tovush va tovush kushilmalarini aniq talaffo`z qilish, aniq diktsiya kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Nutq texnikasidagi bosh masala ovoz masalasidir. Asosiy kuroli nutq bo`lgan har qanday odam uchun ovoz hal qiluvchi ahamiyatga molikdir.

XIII asr Sharqining ulkan adibi Shayx Sa`diy Sheroziyning mashxur "Guliston" asarida shunday bir hikoyat bor: "Sanjariyya masjidida bir kishi rag`bat bilan azon aytar erdi, bir ovozi bilanki, eshitganlar andin nafrat etardilar. Masjidning sohibi bir amir erdi, odil va xushxulq- lik. Xoxdamas erdiki, aning kunglini mukaddar aylasa, aydi: "Ey javonmard, bu masjidning qadimgi muazzinlari borki, har birining besh tillo vazifasi bordur. Senga un tillo berurmen, tokim bulak mahallaga ketarsen". Bu so`zga ittifoq ayladilar va muazzin ketdi. Bir muddatdin sungra amirning ho`zuriga qaytib keldi va aydi: "Ey amir, menga zulmu sitam ayladingki, un tillo bilan meni bu mahalladin junatding. Ul mahallaki, men bordim, menga yigirma tillo berdilarki, bulak mahallaga ketsam qabul etayurmen". Amir kuldi va aydi: "Aslo olmagaysen, zeroiki ellik tilloga ham rozi bulurlar". Yoqimsiz ovoz kishilarni o`ziga jalb qilmaydi, chaqirmaydigina emas, balki bunday ovozdan barcha qochadi, hamma vaqt har kim undan qutulmoq payidan bo`la- di.

Mashxur rus olimi M.V.Lomonosov o`zining "Notiqlik bo`yicha qisqacha qo`llanma"sida notiq bulish uchun, avvalo, tabiiy qobiliyat zarurligini, tabiiy qobiliyat esa rudy va jismoniy turlarga bulinishini aytadi. Olim jismoniy qobiliyat deganda baland va yokimli ovoz, o`zun nafas va bakuvvat kukraq shuningdeq sog`lom tana va kelishgan komatni nazarda tutadi.'

Bugungi kunda siyosatchilarning imiji ("qiyofasi")ni yaratishda bir qancha tashki omillar qatorida ularning ovoz tembri ham muhim ekanligi alohida ta`kidlanadi. Umuman, siyosatchimi, o`qituvchimi, aktyormi, jurnalistmi, kim bo`lishidan kat`i nazar, uning og`zaki nutqida barcha kommunikativ sifatlar mavjud bulsa-yu ovozida u yoki bu nuqson sezilsa, bunday nutq ta`sir kuchini kamida yarmiga yuqotadi. Aytish mumkinki, bir kishigami, yo`z kishigami, boringki, ming kishigami, buning fardi yuq, o`zgaga xitoban aytilgan har qanday nutqda ovozning, ovoz sifatining o`rni favquloda,a mudimdir.

"Tabiiy jismoniy qobiliyat" sifatidagi, aytayliq xirqiroq, chiyildoq, shang`iroq kabi ovozlarining yokimli bulolmasligi, ya`ni tinglovchi qulog`ini kiynashi tayin. Bunday yoqimsiz ovozdan "libos kiygan" fikrning kattagina qismi nutq idrokining o`ta sezgir va nozik darvozasi bo`lmish kulokdan utolmay tashqarida qoladi. Bu, albatta, nutq egasi

ko'zlagan maqsad — muayyan bir axborotni tinglovchiga tugal va ta'sirli tarzda etkazish uchun kulay sharoit yaratmaydi, balki unga monelik qiladi. Bu eski haqiqatni aslo yoddan chiqarmaslik lozim. Tabiatan ana shunday "kuloqni qiynaydigan" ovozga ega bo'lgan odam o'z ishiningsamarasidan chinakam ho'zur tuyushi, Shayx Sa'diyning "Guliston"idagi muazzin holiga tushmasligi uchun faoliyatining asosiy kuroli nutq bo'lmagan boshqa kasblarning etagini tutgani ma'qul.

Sir emaski, faoliyatining asosiy quroli nutq bo'lgan kasblar orasida o'qituvchilik birinchi o'rinda turadi, buning ustiga, o'qituvchilar soni ham ayni tur kasblarning boshqalarida mashg'ul bo'lganlar sonidan sezilarli darajada ortikdir.

O'qituvchining ovozi, talaffo'zi, diktsiyasi, umuman, tirik nutqi hamisha o'quvchilar, ayniksa, kichik sinflardagi o'quvchilar uchun o'ziga xos etalon, namuna vazifasini bajaradi. O'qituvchining tirik nutqidagi, kattadir, kichikdir, har qanday nukson o'quvchi nazaridan chetda qolmaydi, darhol uning diqqatini tortadi. Bunday nukson o'qituvchi nutqida muntazam ko'zatsilsa, o'quvchi o'qituvchidan nohaq bulsa-da, ranjigan hollarida mazkur nukson asosida uni sirtdan kalaka, mazax qilishgacha borishi mumkin. Masalan, o'quvchilar o'zaro ana shunday o'qituvchi haqida gaplashganda, uni mazkur nuksonli ovoz, talaffo'z yoki diktsiya bilan eslashadiki, bu umumiy tarbiya jarayoni uchun ham ijobiy holat emas, albatta.

Kasbiga sadoqatli o'qituvchi o'z o'quvchisi ko'zi ungida qusursiz va qadrli ustoz imijini yaratish, uni saqlash uchun hamisha nutqining fonetik rasoligi haqida qayg'urishi zarur. To'g'ri, tugma xirqirokdiq chiyildokdik kabi ovozni yoqimsiz qiladigan jihatlardan tamoman kutulishning iloji yuq. Ammo nutq texnikasini etarli darajada bilmaslik oqibatida yo'zaga keladigan nuqsonlardan fonetik bi-limlardan xabardorliq ovozni yulga quyish (ruschada "postanovka golosa"), aniq talaffo'z qilish, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish bo'yicha turli mashqlar yordamida imkon qadar xalos bulish mumkin.

Mashhur qadimgi yunon notig'i Demosfenning dastlab ovozi past, talaffo'zi yomon, nafasi qisqa bo'lganligidan chiroyli va ta'sirli nutq ayta olmaganligi haqida tarixchilar yozganlar. Bu sohani chukur urgangan olim S.Inomxo'jaev ta'kidlaganideq keyinroq Demosfen nutq texnikasi asoslarini egallashga juda jiddiy kirishgan. U bir erto'la qazib, shu erto'lada ovozini rivojlantirish, diktsiya, deklamatsiya bo'yicha oylab mashklar qiladi. Talaffo'zidagi nuqsonlar, "r" tovushini aytoymasliq ba'zi tovushlarni noaniq aytilish kabilarni bartaraf etish maksadida og'ziga mayda toshlarni solib, she'rlar, turli matnlarni o'qish bilan shug'ullanadi.

Ovozni rivojlantirish, ovoz apparatlarini chiniqtirish uchun esa tepaliklarga yugurib chiqib, yugurib tushib, nafasini ushlab turgan holda she'rlarni deklamatsiya kiladi. Demosfen gapirayotganda bir elkasini xadeb ko'taraverish odatidan ko'tulish uchun ertulasining shiftiga uchi o'tkir xanjarni osib kuyib, elkasini xanjarning ayni uchiga tug'rilab turib, mashklarini davom ettiradi. Ana shunday mashakqatli va muntazam mashklar tufayli Demosfen notiqlikning chung cho'qqisini zabt etgan.

"O'qituvchi nutqida ko'zatiladigan kamchiliklardan biri fonatsiya jarayonida, ya'ni nutq hosil bulish paytida nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bog'liq. Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yulga kuyilishi kerakki, nafas olish zuriqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, o'zun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Zotan, tovush, nutq ayni shu nafas chikarish jarayonida hosil bo'ladi.

Fonatsiyada nafas olish va nafas chikarish fazalarining ketma-ketligi, almashinish tartibini to'g'ri tasavvur etmoq kerak. Bu fazalar bilan nutqning hajmiy va, albatta, mazmuniy-estetik qurilishi o'rtasidagi mutanosiblikni to'g'ri belgilamaslik oqibatida

nafasning etmay qolishi, shunga ko'ra bir nafas bilan yaxlit aytilishi lozim bo'lgan nutq parchasining bulinib ketishi, mantiqiy mazmunni bo'zadigan noo'rin pao'zaning paydo bo'lishi kabi nuqsonlar o'rtaga chiqadi. Masalan, Qadimiy va boy tilimizning sofligini saklash har birimizning burchimizdir jumlasini aytilarkan, masalan, har so'zidan keyin nafas tutab qolsa, ilojisiz, nafas olish uchun tuxtalish majburiyati paydo bo'ladi, bu esa jumlaning noto'g'ri bulinishiga olib keladi. Yoki ba'zan noto'g'ri taqsimlangan nafas jumlaning oxiriga borib etmay qolsa, jumladagi sunggi so'z "yamlanib" talaffo'z qilinadi, so'zlovchi xudud bo'tilib qolganday, juda qiynalganday tuyuladi, bu tinglovchi uchun ham sezilarli darajada kiynoq tug'diradi.

Yana bir misol. Odam o'ta hayajonlanganida, qattiq qurqqa-nida yoki og'ip musibat ichida bo'lganida, umuman, turli hissiy xolatlarga tushganida so'zlarkan, iafas olish va nafas chiqarish fazalarini nazorat qila olmay koladi. Buning natijasida normal fonatsiya uchun nafasi to'g'ri takrimlanmaydi, ko'pincha oddiy bir so'z uchun ham nafasi yotmay qoladi. Tabiiyki, uning nutqi, so'zlari, tovushlari g'ayriodatiy bir shakllarda voqelanadi. O'qituvchi bunday xolatlarni ham hisobga olishi maksadga muvofiq. U dars jarayonida keraksiz hissiyot va hayajonlarini jilovlab olishi keraq aks xolda bu xolatlar uning nutqiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazishi mumkin.

Nutq texnikasini egallashda umumiy tarzda bo'lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur. Ma'lumki, tovushning fizik-akustik xususiyatlari uning balandligi, kuchi, tembri (buyokdorligi), cho'zlikligi kabi sifatlardan tarkib tottadi. Har qanday og'zaki nutqning yashashini ta'minlaydigan intonatsiyaning prosodik unsurlari bulmish nutq me- lodikasi, nutq ritmi, nutq tempi (tezligi), nutq tembri kabi tushunchalar asosida ham mazkur fizik-akustik xususiyatlar yotadi. Masalan, "nutqda ovozning (tonning) baland- past tarzda tulqinlanishi melodikani yo'zaga keltiradi, melodika esa gapning ifoda maksadiga yoki emotsionallikka ko'ra turlarini belgilashda, sintagmalarni, kirish so'z yoki kiritma gaplarni ifodalashda muhim vosita sanaladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tebranish chastotasi nutqda boshqa akustik vositalar (urg'u, tembr, temp kabilar) bilan munosabatga kirishib, murakkab tovushni hosil qilishi ham mumkin, bunday murakkab tovushlardan esa turli ekspressiv- stilistik maqsadlarda, ayniqsa, she'riy misralardagi to- vush tovlanishlarini tarkib toptirishda foydalaniladi". O'qituvchi o'z nutqida bu fonetik imkoniyatlar va qonuniyatlarni tug'ri va o'rinli namoyon eta bilishi lozim.

Ayrim o'qituvchilar ko'pincha dars jarayonida boshqa joylardagiga qaraganda anchayin baland ovozda gapiradilar. Bu yul bilan guyoki sinfdagi shovqinni "bosib" quyganday bo'ladilar. Ammo bu usulning ta'siri baribir u qadar katta bo'lmaydi, faqat o'kituvchining ovoz apparati keraksiz zo'rikadi, o'zi tez charchaydi, Yana ba'zi o'qituvchilar borki, ular darsda deyarli past ovozda so'zlaydilar. Bunda ham o'kdtuvchi- ning o'zi kiynaladi, ammo sezilarli samaraga erishmaydi, faqat bunday ovoz bo'g'iq, tussiz eshitiladi va o'quvchining dikkatini ushlab turmaydi.

Tajribali o'qituvchi faqat baland yoki faqat past ovozda dars utmaydi. Tovushlarning balandligi, kuchi, tembri va cho'zikedigidan iborat akustik sifatlarining turli darajalari (bu darajalarning diapazoni juda keng)ni bayon kilinayotgan axborotning mazmuni va tabiati, ayni paytda sinfdagi o'quvchilarning ruhi-kayfiyatiga muvofiq ravishda modulyatsiya qiladi, ya'ni almashtirib turadi. Ana shu tarzda monoton, quruq, ifodalilikdan maxrum nutq shaklidan kutuladi va nutqning ohangdorligi, ta'sirchanligiga erishadi.

O'qituvchining nutq texnikasi bilan bog'liq nuksonlardan yana biri nutq tempi, tezligini to'g'ri belgilamaslik yoki tezlik-sekinlikning maksadga ko'ra mu'tadilligini saqlay olmaslikdan iborat. Nutqning tempi, albatta, bayon qilinayotgan materialning mohiyatiga, ifodalanayotgan fikr strukturasiga uyg'un bo'lishi maksadga muvofiq aks

holda, ya'ni o'qituvchi materialni faqat jadal tempda bayon qilsa, o'quvchi axborotni o'ziniki qilib olishga, axborot tarkibidagi muhim jihatlarni o'z vaqtida tilgashga, to'la idrok etishga qiynaladi. Boshkacha qilib aytganda, o'quvchining idrok sur'ati o'qituvchining nutqi tezligidan orqada qoladi, unga "etib yurolmaydi". Zotan, o'qituvchi nutqidagi me'yoridan ortiq jadal temp dars berish metodikasi koidalari uchun ham begonadir. O'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlari, ayni dars paytidagi ruxiyati, charchagan yoki charchamaganligi, materialni qanday qabul qilayotganligidan kelib chiqqan holda nutq tempini tanlasa, uni o'rni bilan o'zgartirib tursa, ham pedagogiq ham psixologik jixatdan to'g'ri bo'ladi.

Nutq texnikasida diktsiya masalasi ham alohida o'rin tutadi. Xar bir tovush, so'zning to'g'ri va aniq talaffo'z qilinishi, nutq oqimida so'z shakllari va gaplarning "chaynalmaligi", ayniksa, o'qituvchi nutqi uchun jiddiy talablardandir. Taassufki, ba'zan o'qituvchilar nutqida ham diktsiya noaniqligi bilan bog'liq nuksonlar ko'zatiladi. Masalan, ba'zan "z" tovushini jaraigsiz "s" tovushiga moyil tarzda talaffo'z qilish uchraydi: siz — sis, eshitdipgiz — eshit-dingis kabi. Bu va bu singari nuksonlar nutq tovushlarining hosil bulish o'rinlarini yaxshi bilmaslik va artikulyatsion apparat (tovush hosil qilishda ishtirok etadigai nutq a'zolari)ning etarli darajada faol emasligi natijasida paydo bo'ladi. Noto'g'ri yoki noaniq talaffo'z qilinadigan tovushning hosil bo'lishida ishtirok etadigan nutq a'zolarining faolligini oshirish yuli bilan kishi nutqidagi ana shunday diktsion xatolarni to'zatishtirish mumkin. Buning uchun xilma-xil mashqlar yaxshi yordam beradi. Masalan, turli tez aytishlar, maqol va matallar, turli mazmundagi matnlarni muntazam ovoz chikarib takrorlash ana shunday mashqlarning bir ko'rinishidir.

Umuman, o'qituvchi o'zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg'urishi, fonetika, fonologiyaga oid bilimlardan umumiy tarzda bulsa-da, xabardor bo'lishi, kerak bo'lgan da, o'z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashklardan muttasil foydalanib borishi maqsadga muvofiq. Chunki tugal nutq texnikasisiz o'qituvchiing, har bir nutq to'zuvchining og'zaki nutqi madaniyatini aslo raso deb bo'lmaydi.

Adabiyotlar:

1, 2, 7, 14, 15, 24, 32

Tayanch so'z va iboralar:

1. Nutq texnikasi
2. Og'zaki nutq
3. Diksiya
4. Nutq tempi
5. Fonetik bilimlar
6. Ovoz apparatlari

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutq texnikasida ovozning o'rni qanday?
2. Nutq jarayonida nafas olish va nafas chiqarishga qanday e'tibor berish kerak?
3. Tovushlarni aniq talaffo'z qilish uchun nimalarga ahamiyat berish lozim?
4. O'qituvchining nutq texnikasi qanday bo'lishi kerak?

Adabiyotlar:

Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: "Sharq", 1997. 64 b.

Milliy istikdol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent: "O'zbekiston", 2000. 80 b.

Ona tili — davlat tili. Toshkent: "Adolat", 2004. 80 b.

Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: "O'qituvchi", 1992. 160 b.

Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1- qism. Toshkent: "Navro'z", 1997. 95 b.

Begmatov E. "O'zbek adabiy tilining mustaqillik davri rivojiga doyr // "O'zbek tili va adabiyoti", 2006, N4, 3 — 9- betlar.

Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: "Talqin", 2005. 272 b.

Jumaxuja N.A. Istiklol va ona tilimiz. Toshkent: "Sharq", 1998. 160 b.

Yuldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. Toshkent: "Ma' - naviyat", 2002. 80 b.

Kaykovus. Qobusnoma. Tuldirilgan 2-nashri, Toshkent: "Istikdol", 1994. 173 b.

Maxmudov N. Ma'rifat manzillari. Toshkent: "Ma' - naviyat", 1999. 64 b.

Navoiy Alisher. Asarlar. 15 tomlik. 14-tom. Toshkent: F.Fulomov nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. 272 b.

Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. Toshkent: "Ma' - naviyat", 2003. 112 b.

Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari (O'zbek tili 5-doimiy anjumani tezislari). Toshkent: "Sharq", 1999. 256 b.

Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. Toshkent: "Ma' - naviyat", 2006. 336.

Ko'ng'upov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent: "Uqituvchi", 1992. 160 b.

Rasulov.R, Xusanov.N, Nutq madaniyati va notiqlik san'ati.Toshkent,Moliya-iqtisod,2007,132b.

Kirish

1-Mavzu: "O`qituvchi nutqi madaniyati" kursining mundariyasi, maqsadi va vazifalari. Nutq madaniyati va boshqa fanlar.

2-Mavzu: Madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatlari.. Nutqning to'g'riligi.

3-Mavzu: Nutqning aniqligi

4-Mavzu: Nutqning mantiqiyliigi

5-Mavzu: Nutqning sofligi

6-Mavzu: Nutqning boyliigi

7-Mavzu: Nutqning juyaliligi va ifodaliligi

8-Mavzu: O`qituvchining nutq texnikasi

Adabiyotlar